

67



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI**

«O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI O‘RGANISH»

kursi o‘quv qo‘llanmasi

(O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi
muassasalari uchun)



**«ShARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2003**

M u a l l i f l a r :

X. Odilqoriyev — yuridik fanlar doktori, professor;
R. Qayumov — yuridik fanlar nomzodi, professor;
X. Nazarov — yuridik fanlar nomzodi, dotsent;
M. Lafasov — tarix fanlar nomzodi, dotsent;
Z. Karimov — ilmiy xodim;
O. Omonova — O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi:

O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, yuridik fanlar doktori, professor **X. B. Boboyev** va yuridik fanlar nomzodi, dotsent **X. N. Nazarov**larning u m u m i y t a h r i r i o s t i d a.

O‘quv qo‘llanmaning metodik apparati *Z. Karimov, M. Sattorova, X. Azizov, G. Maqsudova, M. Usmonboeva* tomonidan tayyorlangan.

T a q r i z c h i l a r :

A. To‘laganov — yuridik fanlar doktori, professor;
M. Axmedshoyeva — yuridik fanlar nomzodi, dotsent.

E k s p e r t g u r u h i r a h b a r i

O. T. Husanov — yuridik fanlar doktori, professor.

«O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish» kursi o‘quv qo‘llanmasi O‘zbekiston Konstitutsiyasining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini, ma’no-mazmunini va mohiyatini o‘rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalash va yuksaltirish maqsadida chiqarilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoyishi asosida yaratildi. Ushbu qo‘llanma ilk marotaba nashrga tayyorlanganligi bois, unda kamchiliklar bo‘lishi tabiiy. Qo‘llanma yuzasidan fikr-mulohazalaringizni Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markaziga yuborishingizni so‘raymiz.

Mazkur o‘quv qo‘llanma o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimidagi o‘quv muassasalari uchun mo‘ljallangan.

Har bir millatning taraqqiy va taoliysi ishlarini o'z vaqtida nizomdan chiqarmay tartib ila yurit-makg'a bog'lidir.

Abdulla Avloniy

KIRISH

O'zbek xalqi xotirasida XX asrning so'ngi o'n yilligidagi shonli tarixiy voqealar abadiy muhrlanib qoladi. Aynan shu o'n yillikning boshlarida istiqlol sari qadam qo'yildi. Ajdodlarimizning azaliy orzusi mustaqillik — o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi qo'lga kiritildi. Bu yillarda insonparvar, demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini bunyod etish uchun zarur zamin yaratildi.

Yangi ming yillik boshi XXI asr — *o'zbek xalqi uchun O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirish va inson huquqlari ustuvor bo'lgan farovon hayot qurish asri* bo'ladi. Bu borada jamiyat hayotining barcha sohalarida tub yangilanish va bunyodkorlik ishlari keng ko'lamda izchil amalga oshirilmogda.

Kelajagi buyuk O'zbekistonni yaratishga hissa qo'shish shu Vatan farzandlarining zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Yuksak mas'uliyatni anglab, jamiyatda o'rnatilgan tartib va intizomga amal qilib yashash huquqiy davlatga xos xususiyat hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, huquqiy davlat o'z-o'zidan bunyod bo'lmaydi. Buning uchun hayotda Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi ta'minlanishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyat bo'lishi, mas'uliyat va majburiyatni his qilib yashash tarzi qaror topishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — oliy yuridik kuchga ega huquqiy hujjatdir. Uning qabul qilinishi huquqiy tiklanish va taraqqiyot sari qadam bo'ldi. Mustaqillik Konstitutsiyasi davlatimiz mustaqilligining ulkan ramzi bo'lib, unda o'z istiqlol va taraqqiyot yo'limiz aks etadi. Uni kelgusi avlod erkinlik, mustaqillik, ozodlik va hurlik tantanasi sifatida tarixda e'zoz-hurmat bilan tilga oladi.

O'zbek xalqi ana shunday ulug'vor Konstitutsiyaga munosib buyuk xalqdir.

O'zbekiston Konstitutsiyasi *xalq xohish-irodasini ifoda etuvchi adolatli davlat, farovon jamiyat va erkin hayot qurish* va uni rivojlantirishning istiqbollarini belgilaydi. Unda *inson hayoti, uning sha'ni, qadr-qimmat, haq-huquqlari va manfaatlari oliy qadriyat* sifatida mustahkamlab qo'yilgan.

Asosiy Qonunimizda belgilangan normalarning hayotda amaliy ifoda topishida o'sib kelayotgan yosh avlodning *Konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyati to'g'risida huquqiy bilimga egaligi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatning yuksakligi* muhim rol o'ynaydi.

Shuni hisobga olib davlatimiz ta'limning barcha tizimlarida huquqiy ta'lim va tarbiyani yanada yaxshilashga ustuvor vazifa sifatida alohida e'tibor berib kelmoqda. Huquqiy ta'limni rivojlantirish sohasida diqqatga sazovor amaliy ishlar qilinmoqda.

Biz qonun ustuvor bo'lgan jamiyat barpo qilmoqchimiz. Qonun ustuvorligi — **bu qonunga rioya etish hamma uchun majburiy bo'lgan, uni buzishga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydigan huquqiy hayotiy tartibdir.** Shuning uchun shu hayotiy tartibga o'zimizni tayyorlab va yetarli huquqiy bilimlarga ega bo'lib borishimiz lozim.

Shuni aytish kerakki, faqat huquqiy bilimli bo'lishning o'zi yetarli emas, shu bilan birga egallagan bilimlarni hayotda qo'llay olish madaniyatini ham o'zimizda tarbiyalab borishimiz kerak. **Chunki huquqiy bilim va uni amalda qo'llash madaniyati huquqiy-ma'naviy qiyofamizni ko'rsatuvchi mezondir.**

Konstitutsiyadagi huquqiy g'oyalar istiqlool mafkurasida asosiy o'rinni egallaydi. Qonun jamiyat hayotida hamma uchun yashash va harakat qilish qoidasiga aylanar ekan, qonunga nisbatan fuqarolarning munosabati qanday bo'lishi kerak? Qonunga hurmat, e'tiqodchi? degan qator savollar kelib chiqadi. Konstitutsiyaning mazmun va mohiyatini o'rganish, undagi ulug'vor g'oyalarni bilish, qonunga e'tibor va e'tiqod yuksak bo'lishini hayotning o'zi talab etadi.

Shuning uchun Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligini ta'minlashda istiqlool mafkurasining tarkibiy qismi bo'lgan huquqiy mafkura muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki odamlarni birlashtiruvchi va fikrlarni jamlaydigan qonun-

larga murojaat etish zarur bo'lganda, yuksak huquqiy madaniyatga ehtiyoj kuchayganda, qonunlarga bo'ysunish zarurligini tushuntiruvchi, huquqiy tizimni muhofaza qiluvchi, qonuniylik talablarini tashviq va targ'ib qiluvchi huquqiy mafkura har qanday davlat uchun zarurdir. Bundan esa, oldimizda huquqiy mafkuraviy tarbiyalanganlik darajamiz qanday, degan savol tug'iladi. **Biz o'zimizda huquqiy mafkuraviy sohadagi bilimlarimizni mustahkamlab borsak, har qanday vaziyatda jamiyat manfaatiga zid bo'lgan xatti-harakatlarga va tahdidlarga Konstitutsiya asosida baho bera olamiz, kerak bo'lsa kurasha olamiz va o'zimizni himoya qilamiz.** Shuning uchun huquqiy mafkuraning asosiy o'zagi hisoblangan Konstitutsiya qoidalari bizning e'tiqodimizga aylanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qadr-qimmatini hech narsa bilan o'lchab va tenglashtirib bo'lmaydi. **Chunki unda mustahkamlangan qoidalarda va ifodalangan g'oyalar zamirida xalqning, millatning, qolaversa sizning huquq va erkinliklaringiz mujassam.** Uni aziz va muqaddas deb bilib, Konstitutsiyadagi qoidalar asosida yashash Sizing kelgusi hayotingiz farovon bo'lishining asosidir.

Sizlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish naqadar muhim ekanligini anglab yetdingiz. O'ylaymizki Konstitutsiya Sizing hamrohingizga aylanadi va yashash tarzingizni qurishda asosiy hayotiy qo'llanma bo'ladi.

**O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasini
o'rganish**

O'zbekiston Respublikasi-ning huquq tizimida Konstitutsiya muhim o'rin tutadi. Konstitutsiya huquq tizimining bir-lamchi asosidir. U huquq tar-moqlari birligini, o'zaro muvofiq-ligini hamda harakatlanish prinsiplarining yagonaligini ta'minlaydi. Huquqiy davlat yaratish sari rivojlanib borayotgan davlatimizda huquq ustuvorligini ta'minlab borish muhim vazifalardan sanaladi. Konstitutsiyaning ustuvorligi esa har birimizdan ulkan huquqiy mas'uliyatni talab etadi. Ya'ni, bu mas'uliyat kons-titutsiya va qonunlarni bilishni, ularga amal qilib yashashni taqozo etadi. **Bu Konstitutsiyani o'rganish zarurligini belgi-laydi.** Chunki uni o'rganish Konstitutsiya mazmunini ifodalovchi huquqiy qoidalar, ularga ongli ravishda amal qilib yashash va qonun ustuvorligiga erishishning muhim shar-tidir.

O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish zarurligini inobatga olib, Respublika Prezidentining 2001 yil 4 yanvarda «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi qabul qilindi. Mazkur ***Farmoyishning maqsadi:*** O'zbekiston Konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no-mazmuni va mohiyatini o'rgatish, yosh avlodning huquqiy ongi va madaniyatini tarbiyalash hamda yuksaltirishga qaratilgandir. Ushbu Farmoyish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini fanlar tarkibida emas, balki alohida o'quv fani sifatida birinchi marta ta'lim muassasalari o'quv rejasi-ga kiritishga asos bo'ldi.

Ushbu Farmoyishdan kelib chiqib, ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi o'quv muassasalari o'quvchilarining Konstitutsiya to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlarini yanada boyitish hamda mustahkamlash maqsadida ***«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursi kiritildi.***

O'quv kursi asosida Asosiy Qonunimiz to'g'risida chuqur va mukammal bilim, ko'nikma va malakalarga, shuningdek konstitutsiya qoidalari va qonun hujjatlarini mustaqil o'rganish hamda mutolaa qilish imkoniyatlariga ega bo'lasizlar.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursi umumiy o'rta ta'lim bosqichida «Konstitutsiyaviy huquq» fanidan egallagan tushuncha va bilimlaringizni yanada rivojlantirish, boyitishga amaliy yordam beradi.

Sizlar o'quv kursi bo'yicha tayyorlangan ushbu qo'llanma orqali O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'yicha umumiy batafsil ma'lumotga, shaxs va davlat munosabati, fuqarolarning asosiy huquqlari va burchlari, huquq va erkinliklarning konstitutsiyaviy kafolatlari, davlat tuzilishi va boshqaruv shakli, davlat organlari haqida bilim olasizlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan yaqindan tanishish va uni bevosita o'rganish o'z huquqingiz, erkinlik va burchlaringizni zamon talabi darajasida bilishingiz uchun zamin yaratadi. Qonunlar doirasida jamiyatda o'z o'ringiz va qadringizni tushunishingiz zarur. Hayotning talabi ham

shu. Konstitutsiya asosida o'z huquq va erkingizni amalga oshirish to'g'risidagi bilimga ega bo'lishingiz orqali hayotingizdagi ko'p masalalarga javoblar topasiz.

Konstitutsiya va qonunlarni bilish muhimligi

O'z huquq, erkinlik va burchlarimizni yanada chuqurroq anglashda qonunlarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiya huquq va erkinliklarni mustahkamlash bilan birga fuqarolar zimmasiga burch va mas'uliyatlar yuklaydi. **Burch degani, avvalo Konstitutsiyani o'qib o'rganishdan boshlanadi.** *Konstitutsiyani bilgan kishi o'z xatti-harakatini qonun doirasida amalga oshiradi. Boshqa kishilarning hamda jamiyat va davlatning huquqi va erkini hurmat qiladi. Konstitutsiyani bilish asosida sizda shakllangan huquqiy ong jamiyat taraqqiyotining qudratli kuchiga aylanadi.* Qonunlarni bilishning muhimligi oqibat natijada ana shunday maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bois ajdodlarimiz qonunga hurmat va unga itoat qilishni qadrlaganlar. «Qonunni bilganga keng dunyo, qonunni bilmanganga tor dunyo», «Qonunning kaliti adolat, adolat kaliti saxovat», «Qonunbuzar — elbuzar, elbuzarni qonun tutar» va shu kabi hikmatli so'zlar ham qonunga bo'lgan ongli munosabatning mahsulidir.

Agarda jamiyat hayotiga e'tibor bilan nazar tashlasak, hammaning huquqiy bilimlari barobar emasligini his qilamiz. Ayrim kishilar hatto Konstitutsiya va qonunlarni yaxshi bilishga, sinchiklab o'rganishga, o'z hayotida qo'llashga beparvolik va loqaydlik bilan qarashadi. Bosh qonunning ma'no-mazmunini anglamaydigan fuqaro jamiyatda o'z haqini bilmaydi. Huquqiy ongsiz tomashabinga o'xshab qoladi. Bu bilan ular nafaqat jamiyat manfaatlariga balki o'zlariga ham ziyon yetkazishlarini anglab yetmaydilar.

Yuqoridagi fikrlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan qonunlarni bilgan kishi o'z huquqi va erkini jamiyat manfaatlarini bilgan holda amalga oshiradi.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursining predmeti, maqsadi va vazifalari

Siz o'rganayotgan o'quv kursi boshqa fanlar singari o'z predmetiga, maqsadi va vazifasiga egadir. Ularni har tomonlama chuqur bilish O'z-

bekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishda Sizga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmun-mohiyati, unda mustahkamlangan normalar va ularning amaliyotda qo'llanish jarayoni o'quv kursi predmetini tashkil etadi.

O'quv kursining maqsadi: — *O'zbekiston Konstitutsiyasi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berish, Konstitutsiyaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, uning mazmun-mohiyatini yoritish, qonunlarga hurmat uyg'otish, huquqiy ongni oshirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda huquqiy davlatni bunyod etishda faol ishtirok qiladigan huquqiy bilimli komil insonni tarbiyalashdir.*

Konstitutsiyaviy qoidalar mazmunini o'rgatish va ularga amal qilib hayotda yashash zarurligini anglatish o'quv kursining **bosh vazifasini** tashkil etadi.

O'quv kursi o'z oldiga bir qator ulug'vor vazifalarni qo'yadi. Bular ta'limiy va tarbiyaviy vazifalardan iboratdir.

Ta'limiy vazifalar:

1. Amaliy faoliyatda zarur bo'lgan Konstitutsiya bo'yicha huquqiy bilimlar berish va konstitutsiyaviy qoidalarni hayotda qo'llay bilishga o'rgatish;
2. Huquqiy ong, huquqiy tafakkur va huquqiy madaniyatni zamon talablari darajasida shakllantirish hamda huquqiy savodxonlikni oshirish;
3. Inson erkinliklari, u ayni vaqtda muayyan burch, majburiyat va mas'uliyat ekanligini teran anglatish;
4. Ijodiy, mustaqil fikrlash, olgan bilimlarini hayotga tadbiq etish, huquqiy me'yoriy hujjatlar, adabiyotlar ustida mustaqil ishlash va erkin mutolaa qilishga hamda ommaviy

Tarbiyaviy vazifalar:

1. Konstitutsiya va qonunlarga nisbatan e'tiqod, milliy va umuminsoniy huquqiy qadriyatlariga hurmat uyg'otish hamda kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash;
2. Yuksak xulq-atvor fazilatlarini bilan o'zgalarga namuna bo'la olishga o'rgatish va jamiyat hayotida ijtimoiy huquqiy faol bo'lish tuyg'usini tarbiyalash;
3. Jamiyat manfaatlariga zararli harakatlarga, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, huquqbuzarliklarga nafrat uyg'otish;
4. Konstitutsiya bo'yicha olgan bilimlar natijasida o'z hayoti kelajagini belgilash, o'z Vatani ning dunyoda munosib o'rin egallashida hissa qo'shish

axborot vositalaridan foydalanishga o'rgatish;

5. Jamiyatdagi voqea va hodisalarni huquqiy jihatdan mantiqiy tafakkur qilish va munosabat bildirish olish layoqatini shakllantirish;

6. Konstitutsiya asosida qonunchilikni yaratish yo'lida va huquqiy sohada yuz berayotgan o'zgarishlarni teranroq anglash hamda zarur ilmiy, g'oyaviy, tarbiyaviy xulosalar chiqarishga o'rgatish;

7. Mutaxassislik va kasb-hunar yo'nalishi bo'yicha huquqiy bilimlarini boyitish.

hamda boshqa millat vakillarining huquqiy manfaatlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash.

O'quv kursini o'rganishning o'ziga xos asosiy tamoyillari mavjud. Bu tamoyillar Konstitutsiyaning mazmuni yo'nalishlarini bildiradi. Konstitutsiyani o'rganishimizda ana shu tamoyillar asosida yondoshuvimiz va xulosalar chiqarishimiz Asosiy Qonunimizning mohiyatini chuqur anglashimizga imkon beradi.

O'quv kursini o'rganish tamoyillari: *jamiyat hayotida Konstitutsiya va qonunning ustunligi; inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligi; demokratiya va ijtimoiy adolat; xalq-sevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik; umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat; xalqaro huquqiy me'yorlar va tamoyillarga sodiqlik; kelajak avlod oldidagi mas'uliyatni anglash; milliy davlatchilik va huquqiy tajribalarga tayanish; erkinlik va yaratuvchanlik; boy tarixiy huquqiy meros va ilg'or huquqiy g'oyalarga asoslanadi.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishda o'quv kursi o'z metodlariga tayanadi. Bu metodlar quyidagilardan iborat: **Konstitutsiyani o'rganishga ilmiy yondoshuv, nazariy va amaliy tahlil, qiyosiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, o'zaro bog'liqlilik va aloqadorlik, siyosiy va huquqiy hurfikrlilik, huquqiy dalillardan foydalanish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish** kabi metodlardir. Bu

metodlardan samarali foydalanish Konstitutsiya ma'no-mazmunini to'g'ri tushunishimizga yo'l ko'rsatadi.

Konstitutsiya mazmuni shunday tuzilganki, undagi qoidalarga aniq va to'g'ri, sinchkovlik bilan yondoshilishini talab etadi. Chunki uning mazmuniga e'tiborsiz yoki yuzaki yondoshuv esa noto'g'ri xulosalar chiqarishimizga olib kelishi mumkin. Konstitutsiyaviy qoidalarni har kim har xil tasavvur qilishi yoki har kim o'z tafakkuridan kelib chiqib, shu asosda bajarishi uchun Konstitutsiya imkon bermaydi. Shuni aytish kerakki, konstitutsiyaviy qoidalar tub mazmunini hamma bir xilda tushunishi lozim. Konstitutsiyani o'rganish metodlari konstitutsiyaviy qoidalarning asl mohiyatini qanday bo'lsa, shundayligicha teran idrok qilishimizga xizmat qiladi.

**O'quv kursining boshqa
o'quv fanlari bilan
aloqasi**

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursi ijtimoiy gumanitar va tabiiy fanlar bilan uzviy aloqadorlikni o'zida mujassam

etadi. Konstitutsiya barcha huquq fanlari tizimida asosiy o'rin tutadi. Huquq fanlari mazmunini yoritishni Konstitutsiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Konstitutsiya huquq fanlarining asosiy manbaidir. Huquq fanlarining ahamiyati shundaki, ular Konstitutsiya qoidalarida qo'llanilgan tushunchalarni to'laroq o'zlashtirishimizda muhim rol o'ynaydi.

O'quv kursining ijtimoiy fanlar: tarix, shaxs va jamiyat, estetika, ma'naviyat asoslari va shu kabi fanlar bilan aloqadorligi mavjud. Ularni o'rganish jarayonida Konstitutsiya va unga tegishli huquqiy tushunchalarga duch kelinadi. Bu fanlarda ularning fan sifatidagi o'ziga xos mazmuniga monand keladigan Konstitutsiya bilan bog'liq qirralari umumiy tartibda yoritiladi. Masalan, «Tarix» fanida davlat, konstitutsiyaning qabul qilinishi, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni tarixiy nuqtai nazardan, «Shaxs va jamiyat» fanida asosan shaxs va jamiyat bilan bog'liq tushunchalar, ularning rivojlanish qonuniyatlari falsafiy jihatdan, tabiiy fanlarda esa, yer va tabiatni avaylab-asrash hamda muhofaza qilish masalalari yoritiladi.

Mazkur o'quv kursi esa, ana shu fanlardan olgan tushuncha va bilimlarni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Demak,

Konstitutsiyaga taalluqli tushunchalarning boshqa fanlar mazmunida qo'llanilishi fanlararo aloqaning namoyon bo'lishidir. O'zlashtirilgan davlat va huquqqa oid tushuncha va bilimlarni boyitishda, to'ldirishda va mustahkamlashda o'quv fanlararo aloqa muhim ahamiyat kasb etadi.

**Huquqiy hujjatlar va
adabiyotlar bilan ishlash**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishda manbalar muhim o'rin tutadi. Manbalarni quyidagi tarkibiy

qismlarga ajratish mumkin. **Asosiy manbalarga:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; Konstitutsiya asosida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va farmoyishlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari kiradi. **Yordamchi manbalarni:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga oid huquqiy adabiyotlar va turkum risolalar; o'quv qo'llanmalar va darsliklar, ommaviy axborot vositalarining konstitutsiyaga taalluqli materiallari, boy huquqiy ma'naviy va madaniy meros tashkil qiladi.

Ular bilan mustaqil ishlash va mutolaa qilish huquqqa bo'lgan qiziqishimizni oshiradi va erkin fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi. Qonun hujjatlari va konstitutsiyaga oid huquqiy adabiyotlar bilan ishlash madaniyatini o'zimizda shakllantirib borish bilim doirasini kengaytirishga zamin yaratib beradi. O'quv kursiga taalluqli huquqiy hujjatlar bilan ishlash madaniyati izlanuvchanlikni, ijodkorlikni, tirishqoqlikni, bilim olishga chanqoqlikni, o'z iste'dodini namoyon etishni, hujjatlar mohiyatini to'g'ri talqin etishni talab etadi.

**Kirish qismi bo'yicha egallagan bilimlaringizni
mustahkamlash uchun topshiriqlar.**

Quyidagi savollarga javob bering:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish zarurligini tushuntirib bering.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishning ahamiyatini izohlab bering.



3. «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish» o‘quv kursi predmeti, maqsad va vazifalarini aytib bering.

Erkin fikr bildiring



- 1) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyat rivojida tutgan o‘rniga;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida bilimingiz yetarlimi? Agar bilimingiz yetarli bo‘lmasa, uni qanday boyitasiz?
- 3) Sizningcha Konstitutsiya va qonunlarga munosabat, hurmat va e‘tiqod qanday bo‘lishi kerak?
- 4) Shaxs sifatida o‘z huquqiy manfaatingizga oid Konstitutsiya doirasidagi me‘yorlarni bilasizmi?
- 5) Jamiyatda fuqarolarning Konstitutsiyaga rioya qilish darajasiga munosabatingizni bildiring.
- 6) Konstitutsiyada belgilangan o‘z huquq va erkinliklaringizni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelganmisiz?

Qaysi adabiyotlarda:

Adabiyotlar bilan tanishib javob toping



- 1) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyhasini tayyorlash va qabul qilinishi to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar berilgan?
- 2) Respublika Prezidenti Islom Karimovning qaysi asarida Mustaqillik Konstitutsiyasining mazmun va mohiyati keng tarzda yoritib berilgan?
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tuzilishi va xususiyatlari qaysi kitoblarda bayon etilgan?
- 4) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida xorijlik olimlarning fikr va mulohazalari o‘z ifodasini topgan?

O‘z mulohazangiz



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini belgilovchi g‘oyalarning xalq, millat va inson taqdiriga ta‘siri qanday asoslarda namoyon bo‘ladi?


Ushbu jadval asosida o'z mulohazangizni daftaringizga yozib to'ldiring

Xalq taqdiriga ta'siri	Millat taqdiriga ta'siri	Inson taqdiriga ta'siri

Hayotiy yo'llanma



**O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi**



Uni or-nomusni asraganday asramoq
Uning asosida yuksak huquqiy bilimiga va huquqiy madaniyatga ega bo'lish
Konstitutsiya va qonunlarga bo'ysunib, qat'iy amal qilib yashash
Konstitutsiyaga hurmatda va e'tiqodli bo'lish
Konstitutsiyada belgilangan o'z huquqlari, erkinliklari va burchini anglab olish
O'z huquqlarini Konstitutsiya asosida himoya qila olish
Konstitutsiyani himoya qilish, uning hayotdagi tabiiqida hissa qo'shish
Konstitutsiya to'g'risidagi bilimlarni yanada boyitib, mukammallashtirib borish
Shaxsiy hayotdagi muammolarga konstitutsiya asosida yechim topish va hal qilish

I b o b. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, unda shaxs va davlat munosabati huquqiy asoslari

1-§. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI — ASOSIY QONUN

Davlat agar dinu oyin (qonun) asosida qurilmas ekan, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘xsharkim, uni ko‘rgan har kimsa nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi.

Amir Temur

**Davlat mustaqilligi va
inson erkinligi Qomusi**

Mustaqillik sharofati tufayli 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. **Erkinlik va ozodlikni, mustaqillik va hurlikni** tantanali tarzda o‘zida namoyon etuvchi bu muqaddas huquqiy hujjat qabul qilingan qutlug‘ sanani xalqimiz umumxalq bayrami sifatida keng nishonlab kelmoqda. Mustaqillik Konstitutsiyasi jahonning siyosiy xaritasida yangi suveren davlat — O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘lganligini qonuniy tasdiqlab berdi.

Asosiy Qonunimiz *davlat mustaqilligini mustahkamlab, inson huquqi va erkinligi huquqiy kafolati* sifatida muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Buni shu aziz Vatanning har bir farzandi yurakdan his etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — davlatning Asosiy qonuni bo‘lib, istiqbol sari intilishimizga kuch baxshida etuvchi hujjatdir. U ijtimoiy va davlat hayotining huquqiy asosidir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ozod va suveren davlatning huquqiy asoslarini yaratish bilan birga jamiyatimizning huquqiy taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Konstitutsiyaga binoan o‘zbek xalqining yo‘li bitta — **Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish, mustaqillikni mustahkamlab mamlakat ravnaqini ta‘minlashdir.**

O‘zbekiston Konstitutsiyasining o‘ziga xos mazmuni

shundan iboratki, u o'zbek xalqining tarixiy va milliy qadriyatlarini, g'arb demokratiyasining insonparvarlik tamoyillarini o'zida mujassam etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyatimiz barcha a'zolarining, shu jumladan yoshlarning manfaatlarini, ularning haq-huquqi va erkinliklarini to'la o'zida ifoda etadi. Chunki kelajagimiz bo'lgan yoshlar davlatimizning har tomonlama qudratli davlatga aylanishida faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yoshlarning qobiliyati, iste'dodi, bilimiga muvofiq ijtimoiy ehtiyojlarini e'tiborga olib, ilm olish, kasb, mashg'ulot turi va ish tanlash huquqini o'z ichiga oluvchi huquqlar majmui Konstitutsiyaviy qoidalarda mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiya qabul qilinishi va unda aks etgan xususiyatlar

O'zbekiston yangi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi 1990-yil 20-iyunda Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilinishi bilan bevosita bog'liqdir. Kon-

stitutsiyani yaratish zarurati o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Buning albatta o'z sabablari bor edi. **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi asosiy sabablari:** o'zbek xalqining ozodlik, erk va mustaqillik yo'lidagi intilishi; xalqning butun bor imkoniyati va salohiyatini ishga solish, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash; iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni demokratlashtirish, suveren davlatning huquqiy asoslarini yaratish, huquqiy nigilizm va o'zboshimchalikning oldini olish, o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini huquqiy jihatdan belgilash zaruriyati va boshqa omillar tashkil etadi.

Birinchi Konstitutsiya loyihasini tayyorlash uchun mamlakatning ko'zga ko'ringan siyosatshunos, huquqshunos, iqtisodchi va boshqa mutaxassis olimlardan tarkib topgan 64 kishidan iborat komissiya tuzildi. Konstitutsiya loyihasini tayyorlash komissiyasining birinchi tashkiliy majlisi 1991-yil 12-aprelda Prezident Islom Karimov raisligida o'tdi. Unda kelajagi buyuk davlatning Konstitutsiyasi «o'zbek xalqining munosib turmushini, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimizni qayta tiklashi, insonning ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak» degan vazifa qo'yildi. Bu

vazifa zamiridagi tamoyillarga javob bera oladigan xalqchil Asosiy Qonun yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi tarixda yangi burilish davri sahifasini ochib berdi. U jamiyatda tamomila yangi ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy tizim qaror topishiga huquqiy poydevor sifatida dunyoga keldi. **Uning qabul qilinishi qonunchilikdagi mustaqillik bo'ldi.**

Konstitutsiya — xalqning, millatning yuz-ko'zi, uning obro'-e'tibori va nufuzi timsoliga aylandi. Shu ma'noda Konstitutsiya o'zbek xalqi irodasi, erki, ruhiyati, ijtimoiy-siyosiy tafakkuri va madaniyati mahsulidir. Chunki Konstitutsiya loyihasi ustida ikki yil davomida ishlanib, u umumxalq muhokamasidan o'tdi. Umumxalq muhokamasi davomida jami 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. Xalqning fikrlari asosida Konstitutsiya loyihasi yanada boyitilib sayqal topdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tub mohiyatiga ko'ra yangi huquqiy hujjat bo'lib, unda inson manfaati ulug'lanadi. Insonning ajralmas huquq hamda erkinliklarining davlat huquqlaridan ustunligi tan olinadi va u davlat himoyasidadir.

Konstitutsiya xalqimizga xos bo'lgan xususiyatlar: *mehrqibat, odob-axloq, odamiylik, o'zga millatlarga hurmat, aql-zakovatga intilish, iymon va e'tiqod, or-nomus, iffat va hayo kabi ezgu fazilatlarga asoslanadi.*

Konstitutsiyada milliy xususiyatlar ham yorqin aks ettirilgan. Bu xususiyatlar: **konstitutsiyada mustahkamlangan qoidalarda milliy qonunchilik rivojlanishi uchun zamin yaratilganligi; tarixiy, etnografik, milliy an'analar, urf-odatlar va qadriyatlarimiz singdirilganligi; ma'naviy va madaniy tarixiy merosni asrash, oila qadriyatlari va milliy ruhiy, demografik, tabiat-iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar inobatga olinishida namoyon bo'ladi.**

Konstitutsiyada yana bir muhim xususiyat o'z ifodasini topgan. Bu davlatchiligimizning tarixan tarkib topgan ilg'or tajribalaridan foydalanilganligidir. Tarixdan ma'lumki, biz yashayotgan Vatanimiz hududida qonun ustuvorligi ta'minlanishi asosida ozodlik va mustaqillik mustahkamlangan buyuk saltanatlar hukm surgan davrlar bo'lgan. Xususan,

Amir Temur davrini alohida ta'kidlash lozim. «Temur tuzuklari» shu davrning yorqin «Konstitutsiya»si bo'lib, jamiyatda ustuvor ravishda amalda bo'lgan. Ana shu tajribalardan, al-Farobiyning fozil davlat va Navoiyning adolatli jamiyat to'g'risidagi ta'limotlari hamda boshqa buyuk alomamlar huquqiy merosidan foydalanilganligi Konstitutsiyaning mazmunini yanada boyitgan.


O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yakka hukmronlikka da'vo qiluvchi mafkuradan, zo'rlab tiqishtirilgan siyosatbozlikdan, siyosatlashuvdan, balandparvoz shiorlardan, sinfiylikdan va partiyaviylikdan xolidir. Shuning uchun ham Mustaqillik Konstitutsiyasi Sho'ro davrida qabul qilingan siyosiy manifest shaklidagi Konstitutsiyalardan hayotiyligi va amal qiluvchi xususiyati bilan chinakam yuridik hujjat sifatida mazmunan ajralib turadi.

**O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining
mazmun va mohiyatini
belgilovchi asosiy
g'oyalar**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining maqsadi, prinsiplari, asosiy qoidalari mazmun va mohiyati negizini belgilovchi ulug'vor g'oyalar, uning

Muqaddimasida to'la bayon etilgan. Konstitutsiya muqaddimasi juda ixcham va yuksak saviyali. Muqaddimada **O'zbekistonning rivojlanish, yangilanish va taraqqiyot yo'li hamda yangi jamiyat va davlat qurilishining yo'nalishlari** belgilab beriladi. Ushbu istiqboldagi maqsadlar sari rivojlanishning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li quyidagi ilg'or huquqiy g'oyalarga tayanadi. Bular: *inson huquqlari va davlat suverentetiga sodiqlik, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni anglash, o'zbek davlatchiligining boy tarixiy tajribasiga tayanish, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat, xalqaro huquqning qoida va talablarini tan olish, fuqarolarning farovon hayot tarzini yaratish, insonparvar demokratik huquqiy davlatni bunyod etish, fuqarolar tinchligi, milliy va millatlararo totuvlikni ta'minlashdan iborat.* Bu g'oyalar xalqimizni yagona maqsad yo'lida birlashtiradi va jipslashtiradi.

Konstitutsiya g'oyalari o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Ularni hayotga tadbiiq qilishga qodir bo'lgan kuch ham kerak. Bunday kuch jamiyat, davlat va insonning o'zidir.



Asosiy Qonundagi insoniy, ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy-huquqiy g'oyalarni ro'yobga chiqarishda har bir inson va fuqaroning faol ishtirok etishi muhimdir. Shu bilan birga jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyat darajasi yuqori bo'lishi ham zaruriy shartlardan biridir. Shuning uchun har birimiz aql-zakovatimizni va bilim salohiyatimizni Konstitutsiyada mustahkamlangan yuksak g'oyalarni hayotda ro'yobga chiqarishga safarbar etishimiz lozim bo'ladi.

**O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi tuzilishi
va sifatini belgilovchi
mezonlar**

O'zbekiston Konstitutsiyasi 128 moddadan iborat bo'lib, 26 bobni birlashtiruvchi 6 bo'limni o'z ichiga oladi. ***O'zbekiston Konstitutsiyasi tuzilishi mazmu-***

ni — fuqarolar o'rtasida totuvlik, milliy va ijtimoiy hamjihatlik, shaxs erkinligi va saylov erkinligi, siyosiy barqarorlik, farovonlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlatning inson va fuqarolar oldidagi o'z burchini bajarishga erishishga yo'naltirilgan. Shu bilan bir qatorda, **Asosiy Qonunimiz mazmunida *tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, mamlakat va dunyo barqarorligi kabi umuminsoniy g'oyalar*** ham mujassamdir.

Konstitutsiyaga ega bo'lish, unga tayanish, itoat qilish, u bo'yicha yashash, undan himoya topish hamda uni himoya qilish lozim va shartdir. **Konstitutsiya biz uchun shunday aziz narsadirki, uni or-nomusni asraganday asramoq lozim.** Chunki aynan Konstitutsiyada O'zbekistonning davlat suvereniteti (I bob), xalq hokimiyatchiligi (II bob), qonun ustuvorligi (III bob) aks etadi. Aynan u o'zbek millatining tiliga davlat maqomini beradi (4-moddada). Xalqni hokimiyat manbai sifatida e'tirof etadi. Ijtimoiy hayotda siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini kafolatlaydi.

Inson huquqlari va erkinligi oliy qadriyat hisoblanadi. Shu bilan Konstitutsiyada inson eng mo'tabar mavqega ko'tariladi. Agarda Konstitutsiyaga e'tibor bilan qarasangiz birinchi bo'limdan so'ng inson huquqlari va erkinliklari boshlanadi. Konstitutsiyaning 2-bo'limi inson huquqlarining to'liq va ixcham tizimidir. Undan keyingi 3-bo'lim jahondagi birorta konstitutsiyada yo'q. Mazkur bo'limning

asosiy maqsadi: fuqarolik jamiyati an'analarini shakllantirish, jamoat birlashmalari va ijtimoiy munosabatlarning sog'lom ravnaqini ta'minlashdir. Bundan keyingi bo'limlarda davlat tuzilishi va davlat organlariga oid qoidalar bayon etiladi. Demak, Konstitutsiya «Inson — jamiyat — davlat» yo'nalishida tuzilgan bo'lib, unda inson manfaati birinchi o'ringa qo'yilgan.

Asosiy Qonunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustuvor yo'nalishdagi hujjatlari, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, xalqaro huquqning me'yor va tamoyillari hisobga olingan. Shu bilan birga AQSh, GDR, Fransiya, Shvetsiya, Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Bolgariya, Vengriya, Turkiya, Eron, Yaponiya, Misr, Hindiston va boshqa davlatlarning xalqaro huquq talablarini aks ettiruvchi konstitutsiyaviy tajribalarini o'zida jamlagan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bosh va ustuvor tamoyillari: barcha fuqarolarning teng huquqliligi; biron bir millatga daxldorligi, diniy e'tiqodi va mazhabidan qat'iy nazar, jamiyatda shaxs ustunligi va ijtimoiy adolat barqarorligini ta'minlash; milliy ozchilikni tashkil etuvchi aholi qatlamlariga e'tibor bilan qarash, ularning tili xalq an'analari va urf-odatlarini hurmat qilish; ularning o'ziga xosligi va taraqqiyotini saqlashga zaruriy shart-sharoitlar yaratish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining sifatini belgilovchi mezonlar ham mavjud bo'lib, ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin. Jumladan: *konstitutsiyaning huquqiy davlatni barpo etish ehtiyoji va istiqbollariga muvofiqligi, xalqaro konstitutsiyaviy tajribalarning konstitutsiyani yaratishda ijodiy foydalanilganligi, konstitutsiyaning bevosita harakatdagi huquq ekanligi, konstitutsiyaning huquq manbai sifatida yetakchilik roli hamda davlat va jamiyatda barqarorlikka erishishdagi ahamiyati* va shu kabi mezonlardir.

**O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi normalari**

Konstitutsiya jamiyatda amalda bo'lgan barcha qonunlarni bir maqsad, bir g'oya, bir tartibga bo'ysindiradigan yagona umumdavlat miqyosidagi asosiy qonundur. Konstitutsiya qonunlarning huquqiy bazasi hisoblanadi. Konstitutsiyada

mustahkamlangan normalar *O'zbekiston davlati konstitutsiyaviy tuzumining asoslarini, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini, fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismlarini, O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishini, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimini* belgilab beradi.

Konstitutsiya normalari hamisha ustuvorlik va ta'sis kuchiga egadir. Konstitutsiya normalari mazmuni talablariga mos va to'la muvofiq asosda qonunlar ishlab chiqilib, amalga kiritiladi. Konstitutsiyaviy normalarga bevosita amal qilib turgan huquq deb qaralishi mumkin. Konstitutsiya (III bobi)da konstitutsiyaviy normalarning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishiga oid qoida mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyaviy normalarning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi tushunchasi *qonun yaratish, ijro etish va huquqni qo'llash jihatlarini* qamrab oladi. Hamda Konstitutsiya normalarini ijro etish uchun normativ hujjatlar chiqarilishini anglatadi. Normativ hujjatlarni shajara deb tasavvur etsak, shu shajara tepasida Konstitutsiya turadi. Konstitutsiyaviy normalar an'anaviy huquq mezonlariga nisbatan eng asosiy norma, qonunni sharhlash va qo'llash vositasi hisoblanadi.

Ijtimoiy turmush barcha sohalarining tartibga solib turilishida va hayotda qonun ustuvorligi qaror topishida qabul qilingan qonunlar yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya normalariga o'zaro muvofiqligi muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyil qabul qilinadigan qonun hujjatlari Konstitutsiya normalariga to'la va aniq mos kelishi zarurligini bildiradi. Shu bilan birga Konstitutsiyada mustahkamlangan normalar inson, jamiyat va davlat manfaatlariga ziyon keltiradigan tarzda talqin qilinmasligi lozim. Shu bois Konstitutsiyaning 16-moddasida bu ikkala muhim masala mustahkamlab qo'yilgan. Bu moddaga ko'ra, «**Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.**

Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas».

Konstitutsiya asosida qabul qilingan qonunchilik hujjatlarini yo'nalishiga qarab 4 ta turkumga ajratish mumkin.

Birinchisi — davlatchiligimizni mustahkamlashga va davlat tuzilmalarini takomillashtirishga qaratilgan hujjatlar, **ikkinchisi** — iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning huquqiy negizini tashkil etadigan qonunlar, **uchinchisi** — jamiyat siyosiy tizimini erkinlashtirish va demokratlashtirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish huquqiy asoslarini belgilovchi qonunlar, **to'rtinchisi** — xalqaro huquq sub'ekti sifatida O'zbekistonning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlardir.

Konstitutsiya O'zbekistonning erkin taraqqiyotini huquqiy jihatdan to'la ta'minlaydi. Shu bilan birga butun qonunchilik va qonunni ijod qilish jarayonining, demokratiya va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning huquqiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan norma va tamoyillar demokratiya va huquqshunoslikning eng zamonaviy talablariga javob beradi. Bu esa jamiyatimizning hayotiy amaliyoti bilan tasdiqlanmoqda. Ayni vaqtda, O'zbekistonning Asosiy qonuni teran tarixiy ildizlarga, milliy an'analar va o'zbek xalqining siyosiy-huquqiy madaniyatiga tayanadi.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Konstitutsiya
haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'z asarlarida Konstitutsiyaning mazmun va mohiyatiga, uning davlat mustaqilligini va inson

huquqlarini mustahkamlashdagi ahamiyatiga alohida to'xtalib, unga sermazmun va ifodali tarzda baho bergan. Yurtboshimizning «*Konstitutsiya bizga inson huquqlari, ozodlik, barqarorlik va taraqqiyot majmuini ifodalaydigan demokratik, huquqiy va adolatli davlatni qanday qilib qurish yo'llarini ochib beradi*» degan so'zlari hayotda o'z ifodasini topmoqda. Konstitutsiyaga berilgan bu purma'no baho Mustaqillik Qomusi kelajagi buyuk O'zbekiston davlatini bunyod etishning huquqiy kafolati bo'lishligidan dalolat beradi. Prezidentimiz Konstitutsiya haqida to'xtalar ekan, shunday deydi: — «*Har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir*».

Konstitutsiya inson manfaatlarini himoya qiluvchi yuksak tayanchdir. Bosh Qomus fuqarolarimizning haq-huquqlarini himoya etishda asosiy mezondir. Ya'ni Konstitutsiya odamlarning Bosh himoyachisidir. Unda inson ulug' maqomga ega. Shu bois Prezidentimiz «Inson so'zi Ona, Vatan degan kalomlar kabi muqaddasdir. Bu muqaddaslikni, inson erkining daxlsizligini mustahkam qonunlarimiz himoya qilishi kerak» degan edi. Konstitutsiyamiz va uning asosida qabul qilingan qonunlar ham ana shu ezgu maqsadga yo'naltirilgan. Chunki yurtboshimiz iborasi bilan aytganda: «Aslida inson baxt uchun, dunyo ne'matlaridan bahramand bo'lish uchun tug'iladi».

Prezident Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 8 yilligiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqida shunday degan edi: «Demokratik O'zbekiston Konstitutsiyasida esa «har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli» ekani, O'zbekiston bozor munosabatlariga asoslanishi, uning negizini xilma-xil mulk shakllari tashkil etishi, barcha mulk shakllarini teng huquqqa ega ekaniga kafolat berildi. Ishbilarmonlik, tadbirkorlik va tashabbuskorlik harakatiga keng yo'l ochib berildi va mulkdorlar tabaqasini vujudga keltirish tamoyillari ishlab chiqildi». Konstitutsiyada o'z aksini topgan va mustahkamlangan bu qoidalar jamiyatimizning iqtisodiy qudratini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining asosiy
prinsiplari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari davlat suverenitetini, xalq hokimiyatchiligi hamda inson huquqlarini tan olish va

ta'minlashga qaratilgan. Konstitutsiyaning birinchi bo'limi suveren O'zbekiston davlatining mohiyatini belgilab beradi. Bu mohiyatni *davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi va tashqi siyosat prinsiplari* tashkil etadi.

Suverenitet — davlatning eng muhim ajralmas belgilaridan biridir. Suverenitet ikkita o'zaro bog'liq shaklga ega bo'lib, ular xalq (millat) va davlat suverenitetidan iborat.

Xalq suvereniteti va davlat suvereniteti to'g'risidagi g'oyalar shakllanishi va rivojlanishi o'z tarixiga ega. Bu

masalada umuminsoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk shaxslar: Aflotun, al-Farobiy, Amir Temur, A. Navoiy va shu kabi mutafakkirlar qarashlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ular bu tushunchalarga turlicha munosabat bildirganlar.

Xalq suvereniteti haqidagi g'oyani XIV asrda yashagan yevropalik mutafakkir Marsiliy Paduanskiy keng ma'noda asoslab, uning jamiyat hayotidagi ahamiyati to'g'risidagi qimmatli fikrlarni ilgari surgan edi. Keyinchalik bu g'oya nazariy jihatdan yanada rivojlantirilib va mazmunan boyitildi.

Xalq suvereniteti davlatning asosi va manbai xalq (millat) ekanligini anglatadi hamda xalqning to'la hokimiyati va xalq boshqaruvi ma'nosini bildiradi. Ko'pchilik davlatlarning Konstitutsiyalarida xalq suvereniteti g'oyasi o'z aksini topdi. Masalan, Fransiya Konstitutsiyasining 3-moddasida, Italiya Konstitutsiyasining 1-moddasida xalq suvereniteti g'oyasi mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Konstitutsiyasining 7-moddasida xalq suvereniteti g'oyasi to'la o'z ifodasini topgan. Hozirgi paytda xalq suvereniteti prinsipi va millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi xalqaro huquq tomonidan tan olingan.

Davlat suvereniteti — xalqning suveren irodasini ifoda etuvchi davlat hokimiyatining ichki ishlarda va xalqaro munosabatlarda butunlay mustaqil ekanligini bildiradi. Ya'ni, mamlakat hududida davlat hokimiyati ustun va boshqa davlatlar bilan qanday munosabatda bo'lishini o'zi belgilaydi, uning ishlariga boshqa davlatlar aralashish huquqiga ega emas, deganidir. Davlat suvereniteti haqidagi g'oyani XVI asrda fransiyalik mutafakkir Jon Boden ilgari surgan edi. Uning fikricha suverenitet davlatning muhim belgisi bo'lib, suveren bo'lmagan davlat, davlat emas. J.Boden davlat suvereniteti deganda, mutloq, bo'linmas oliy hokimiyatni tasavvur qiladi. Davlat suvereniteti g'oyasi ham bir qator davlatlar Konstitutsiyalari mazmunida, xalqaro huquq hujjatlarida asosiy o'rinni egallaydi.

Jahondagi davlatlarni biri-biridan farqlovchi o'z nomlari bo'ladi. Bizning davlatimiz Konstitutsiyasining 1-moddasiga binoan — suveren demokratik respublika bo'lib,

«O‘zbekiston» yoki «O‘zbekiston Respublikasi» degan nomlar bilan ataladi, mazkur atamalar bir ma‘noni bildiradi. O‘zbekiston davlatining nomi va uning ramzlari xalqaro shartnomalarda, davlat idoralarining muhrlarida, xizmat hujjatlari va guvohnomalarida ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ajralmas sifatlari quyidagilardan iborat: O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti uning butun hududi da amalda bo‘lishi, o‘z ichki va tashqi siyosatini mustaqil belgilashi, butun hududda ustunlikka ega konstitutsiya va qonunlarni qabul qilishi, o‘z hududining yaxlitligi va daxlsizligini ta‘minlash huquqini bildiradi.

Davlat mustaqilligini shartli ravishda belgilovchi tashqi belgi, nishon yoki timsollar davlat ramzlari deb ataladi. Har bir O‘zbekistonlik uchun muqaddas bo‘lgan davlat ramzlari Konstitutsiyaning 5-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan. Bular — davlat bayrog‘i, davlat gerbi va davlat madhiyasi. Davlat ramzlari o‘zbek xalqining tuyg‘ularini, uning erk va ozodlikka, baxt-saodatga intilishini tarannum etadi. Shuning uchun ham siz yoshlar har kuni o‘qishni davlat madhiyasini ijro etish bilan boshlaysizlar. Bu odat o‘tmishga hurmat va kelajakka bo‘lgan ishonch tuyg‘ularimizni mustahkamlaydi. Respublikamizda davlat ramzlari qonun bilan muhofaza qilinadi. 1994-yilning 22-sentyabrida tasdiqlangan va 1995-yil 1-apreldan kuchga kiritilgan Jinoyat Kodeksining 215-moddasiga ko‘ra davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish boshqaruv tartibiga qarshi jinoyat deb ta‘riflanib, unga jazo belgilangan.

Jahondagi demokratik davlatlarning konstitusiyalari «butun hokimiyat xalqqa tegishli» yoki «butun hokimiyat xalq tomonidan amalga oshiriladi» degan formulani o‘zida mujassamlashtirgan. Mustaqillik Konstitutsiyasida ham xalq hokimiyatchiligi asosiy prinsiplardan biri hisoblanadi. **Xalq, xalq hokimiyati g‘oyasi butun Konstitutsiyaga singib, uning mohiyatini tashkil etadi.** Konstitutsiyaning 2-bobida «xalq hokimiyatchiligi» atamasi «hokimiyat manbai» degan atama bilan uzviy bog‘langan. Asosiy Qonunimizning 7-moddasida xalq hokimiyatchiligi prinsipini ifoda etuvchi qoida mustahkamlangan. Ya‘ni, bu qoidaga ko‘ra, O‘zbekistonda davlat ho-

kimiyatining birdan-bir manbai xalq bo'lib, davlat xalq irodasini ifodalaydi, uning manfaatlariga xizmat qiladi.

Xalq hokimiyatchiligi prinsipi demokratik jamiyat bunyod etishning huquqiy asosini tashkil etadi. Shu bois demokratiya bugun yer yuzida inson hayotining uzviy shartiga aylandi. *Demokratiyaning asl mohiyati xalqning o'z-o'zini boshqarishi, o'z hayotini o'z xohishidan kelib chiqib qurishi va buning oqibati uchun mas'uliyatni ham o'ziga olishdir.*

Konstitutsiyaning 3-bobida huquqiy davlatning muhim belgisi bo'lgan Konstitutsiya va qonunning ustuvorligini ta'minlash prinsipi mustahkamlangan. Bu **birinchidan**, barcha joriy qonunlar va huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishini, **ikkinchidan**, qonun oldida hammaning barobarligini, **uchinchidan**, hayotning barcha sohalarida qonunning hukmronligini anglatadi. Biror bir fuqaro, davlat idorasi, jamoat tashkiloti, mansabdor shaxsning qonunga bo'ysunish majburiyatidan holi bo'lishi mumkin emas. Jamiyatdagi barcha munosabatlar qonun bilan tartibga solinadi. Shu munosabatlarni belgilovchi normalarni buzganlar hech bir istisnosiz javobgar bo'ladi.

Jamiyat hayotida qonun ustuvorligini ta'minlash huquqiy davlat bunyod etishning zarur shartidir. Buning ma'nosi shuki, Konstitutsiya va qonunlar hamma narsadan ustun turmog'i va hamma uchun majburiy bo'lmog'idir. Demak, huquqiy davlat barcha fuqarolarning qonunga bo'ysinib va qat'iy amal qilib yashashini talab etadi. Faqat qonun ustuvor bo'lgan jamiyatdagina rivojlanish va taraqqiyot hukm suradi.

Shuni aytish kerakki, Konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz rioya qilib yashashni turmushimizning ajralmas qismiga aylantirish uchun har birimiz qonun harfi va ruhiga, ulardagi insonparvar qoidalarga o'zimizda hurmat bilan qarash tuyg'umizni tarbiyalab borishimiz kerak. Chunki unda Sizing va hammamizning ezgu-intilishlarimiz jo bo'lgan.

Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari sirasiga tashqi siyosat masalasi ham kiritilgan. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy qoidalari Konstitutsiyaning 17-moddasida bayon etilgan. **Asosiy qoidalar:** *davlatlarning suveren tengli-*

gi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlar ichki ishlariga aralashmaslik. Bu qoidalar xalqaro huquqning tan olingan qoidalari talablari zaminiga qurilgan. Tashqi siyosatning asosiy prinsiplari mohiyati: mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar tashqi munosabatda oshkoralik, teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik, o'zaro manfaatli aloqalarda to'la ishonch, ikki tomonlama va ko'p tomonlama tashqi aloqalar o'rnatish va rivojlantirishga asoslanadi. Bu prinsiplar tinchliksevar davlatlar bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash imkonini

Konstitutsiya va xalqaro huquq

berdi va keng tashqi aloqalar yo'lga qo'yildi.

Konstitutsiyadagi qoidalar xalqaro huquq qoidalari va talblariga to'la monand keladi. Ya'ni, O'zbekiston xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga sodiqligini Konstitutsiyada to'la ifoda etdi. Bu esa o'z navbatida davlatimizning xalqaro tashkilotlarga to'la huquqli a'zo bo'lishiga va xalqaro aloqalarning faol ishtirokchilaridan biriga aylanishiga zamin yaratib berdi. **Konstitutsiyada xalqaro huquqning quyidagi ustuvor prinsiplari va me'yorlari mujassam bo'lgan, ya'ni yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, inson huquqlariga sodiqlik, demokratik g'oyalarga sadoqat, fuqarolar tinchligi, milliy va millatlararo totuvlik, barcha davlatlarning suverenitetini tan olish, ularning chegaralari buzilmasligini so'zsiz e'tirof etish, kuch ishlatmaslik va ichki ishlarga aralashmaslik** va boshqalar.


Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytadigan bo'lsak, Konstitutsiya eng ilg'or g'oyalarni jamuljam etgan hamda demokratik an'analar va umuminsoniy huquqiy qadriyatlar asosida yaratilgan hujjatdir. U siyosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga molik hujjat sifatida iqtisodiyotda, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar va ma'naviy hayotda chuqur islohotlarni o'tkazish uchun huquqiy poydevor bo'lib qoladi.

Konstitutsiya haqida xorijliklar ham o'z baholarini berganlar. Fransuz professori O. Shmidt O'zbekiston va Fransiya Respublikalari Konstitutsiyalarini qiyosiy tahlil qilib, shunday degan edi: «O'zbekiston Konstitutsiyasi mutlaqo mustaqil va aynan xalqingiz va jamiyatingiz talablari-

ga hamda an'analariga javob beradi... Konstitutsiyangiz davlat hamda fuqaro jamiyati Konstitutsiyasi hisoblanadi, chunki ana shu ikki muhim huquqiy sohani tartibga soladi».

Konstitutsiya va qonunlarga amal qilgan holda Vatan manfaati bilan yashash va uning ravnaqi uchun mehnat qilish, Vatan oldidagi o'z majburiyatlarimizni vijdonan bajarishimiz zarur. Vatan manfaati yo'lida birdamlik va hamjihatlik bo'lishini Konstitutsiya o'z mazmunida mujassam etadi. Konstitutsiya xalqimiz ongida O'zbekiston yagona Vatan degan tuyg'uni shakllantiradi va uning istiqboli bilan hamnafas yashashga har birimizni undaydi.

1-§ bo'yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash uchun topshiriqlar.



Davlat mustaqilligi va inson erkinligi Qomusi	Konstitutsiya mazmun-mohiyatini belgilovchi g'oyalar	Konstitutsiya tuzilishi va normalari

Qiyosiy tahlil →

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi qoidalari mazmunini solishtiring.
- 2) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari bilan xalqaro huquq tan olgan normalarni qiyoslang.
- 3) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan boshqa davlatlar Konstitutsiyalari o'rtasidagi farqli jihatlarni ko'rsatib o'ting.
- 4) O'zbekiston Respublikasi qaysi jihatlari bilan jahondagi davlatlar konstitutsiyaviy tajribalaridan farqlanadi?

Qaysi gazeta va jurnallarda:

Ommaviy axborot materiallari

- ⇒
- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga tegishli materiallar ko'proq chop etiladi?
 - 2) Ularda Konstitutsiyaning amaliyotdagi tadbiqining qaysi jihatlari ko'proq yoritiladi?
 - 3) Radio-televideniya Konstitutsiyaning qaysi qirralarini ko'proq yoritilishini maqbul deb bilasiz?
 - 4) Konstitutsiya, qonun, huquqiy davlat to'g'risida o'z fikringiz asosida material matnini tayyorlab, uni o'rtoq'laringiz bilan dars jarayonida muhokama qiling.


Mulohaza yuriting

- ⇒ 1997 yil 9 avgustda «Xalq so'zi» gazetasida chop etilgan «Kecha va bugun» maqolasidan:

Ilgari	Hozir
<p>Dunyo xaritasida O'zbekiston degan davlat yo'q edi. U faqat SSSR xaritasidagina mavjud edi xolos. Biroq, xorijdagi ko'pgina davlatlar va ularning xalqlari SSSR degan davlatni ham bilmas, uni Rossiya deb atardi. Binobarin, xorijliklar uchun SSSR hududidagi barcha xalqlar rus hisoblanardi. Ikkinchi jahon urushida jon olib jon bergan, qurbon bo'lgan o'zbeklar ham Rossiya fuqarosi, go'yo rus kishisi hisoblangan... Konstitutsiyamiz, bayrog'imiz, gerbimiz, madhiyamiz bor edi-yu biz ularning birortasini ham his qilmas edik. Chunki ularning barchasi nomigagina mavjud edi...</p>	<p>Bayrog'imiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti peshtoqida hilpirab turibdi. Bu — O'zbekiston dunyodagi barcha davlatlar safida o'zining munosib o'rniga ega, degan gap. O'zbekiston o'z Prezidenti siyomosida Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan ham, boshqa juda ko'p nufuzli xalqaro anjumanlarda ham olamshumul masalalarni ko'tarib chiqmoq-da, jahonning ko'pgina nuqtalarida delegatsiyalarimiz sharafiga bayrog'imiz ko'tarilib, madhiyamiz yangrayapti. Konstitutsiyamizga qat'iy rioya qilgan holda demokratik jamiyat qurayapmiz.</p>

Xulosa bering va umumlashtiring

O'rgangan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan tushuncha va bilimlaringizni ko'rsatib bering



2-§. O'ZBEKISTONDA SHAXS VA DAVLAT MUNOSABATI

Shaxs va davlatning o'zaro munosabati tushunchasi

Fuqarolar bilan davlat o'zaro huquqlar va burchlar orqali uzviy bog'liqdir. Bu bog'liqlik shaxs va davlat munosabati tushunchasi mohiyatidir. Shaxs bilan davlat o'rtasidagi huquqiy aloqa fuqarolikni anglatadi. *Shaxs, jamiyat va davlat* — bu uchchala asosiy qadriyat Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan. Ular o'rtasida hayotda turli sohalarida yuzaga keladigan barcha munosabatlarning huquqiy tartibi Konstitutsiya qoidalarida o'z ifodasini topgan. *Shaxs* — fuqarolik jamiyatining erkin, ongli, mustaqil tarkibiy qismidir. Fuqarolik jamiyati esa, o'z-o'zini tashkillashtirgan xalq — har qanday hokimiyatning haqiqiy manbai va yetakchisidir. Fuqarolik jamiyati insonning o'z-o'zini kamol toptirishga yordam beradi hamda shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklari ro'yobga chiqishiga ko'mak-

bilan birga bu qoidada davlatning ijtimoiy ahamiyatiga e'tibor qaratilib, uning mohiyati xalq manfaatlarini asosiga qurilgan. Konstitutsiyaning bu normasi Respublikadagi barcha mansabdor shaxslarning mas'ulligini va davlat taraqqiyotidagi vazifalarini ham belgilaydi. Mansabdor shaxslarning mas'ulligi va ularning javobgarligini oshirish davlatni mustahkamlaydi va jamiyat hayotida huquq ustuvorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Davlatning mas'ulligi prinsipi O'zbekistonning konstitutsiyaviy rivojlanish tarixida ilk marotaba mustahkamlab qo'yildi. Fuqarolar oldida davlat mas'ulligi belgilab qo'yilishi huquqiy davlatga xos prinsipdir. Bu prinsip fuqarolik jamiyati uchun ahamiyatga ega bo'lib, mansabdor shaxslarning tajovuzlaridan himoya qilishning huquqiy kafolati bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga jamiyat ishlarini boshqarish hamda shaxsni boshqa shaxslar, organlar va tashkilotlar o'zboshimchaligidan himoya qilishda davlatning o'rnini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir jihati alohida diqqatga sazovorki, unda davlat faoliyatini amalga oshirishning mezonlari belgilangan. O'zbekiston Konstitutsiyasi 14-moddasidagi qoidaga asosan **«Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi»**. Bu qoidadagi ijtimoiy adolat va qonuniylik mezoni davlatning ikki qanotidir. Ularni hayotda to'la qaror toptirish nafaqat davlat faoliyatini mukammallashtiradi, balki shaxs hayotining farovon bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 19-moddasidagi qoidada **«O'zbekiston Respublikasining fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas»**, deyiladi. Shu bilan davlat fuqarolarning konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi. Har bir fuqaroga o'zining huquq va erkinliklarini sud yo'li bilan himoya etishi kafolatlanadi. Shuni aytish kerakki, davlat fuqarolarga huquqni in'om etmaydi, balki fuqaro erkinlik tufayli o'ziga

tegishli ajralmas huquqlar majmuidan ongli ravishda va mas'uliyat bilan foydalanadi. Bu degani huquq va erkinliklar inson tabiatining o'zidan kelib chiqadi, ular insonga tabiiy xosdir.

O'zbekiston davlati xalq manfaatlarini o'zining islohotchilik faoliyatida ayniqsa himoya qilmoqda. Bozor munosabatlariga o'tish davrida iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy jarayonlarni boshqarishda beboshlikka yo'l qo'ymaslik, aholining ijtimoiy jihatidan himoyalangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash davlat tomonidan keng ko'lamda amalga oshirilmoqda.

Shaxs va davlatning o'zaro munosabatida shaxsning o'rnini alohida ko'rsatib o'tish zarur. O'zbekiston Konstitutsiyasining 20-moddasidagi qoidaga ko'ra, **«Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasligi shart»**. Bu qoida bevosita shaxsning jamiyat va davlat oldidagi javobgarligini belgilaydi. *Bu qoida shaxsning konstitutsiyada belgilangan majburiyatlari mohiyatining o'zagini tashkil qiladi.* Shaxs o'zining konstitutsiyaviy huquq va erkinligini amalga oshirish jarayonida boshqa shaxslarning huquqlarini ustuvor deb bilib, ularni hurmat qilishlari zarur. Chunki, fuqarolar o'rtasida teng huquqlilik qonunda belgilab qo'yilgan. Teng huquqlilik — bu barcha uchun barobar huquqiy imkoniyatdir. Agarda shaxs o'z manfaatini ustun qo'yib, boshqalarning huquqlarini kamsitsa yoki konstitutsiyaviy qoidalarga zid ravishda noqonuniy ishlar orqali o'z shaxsiy manfaatiga erishish yo'lida turli xil harakatlar qilsa, javobgarlikka tortiladi.

Shaxs shu bilan birgalikda davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklariga ham putur yetkazmasligi zarur. Bu Konstitutsiyaning shaxs oldiga qo'ygan talabidir. Agar biz shu talabning mazmuniga yanada chuqurroq kirib borsak, shu talabning mohiyati yanada oydinlashadi. Mohiyat esa, shaxs o'z manfaatini davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg'un va aloqadorlikda deb bilishi lozimligini ko'rsatadi. Ya'ni, davlat va jamiyat huquqi amalga oshirilishida shaxsning faol qatnashuvini anglatadi. Davlatimiz maqsadi mazmunida barcha fuqarolar va jami-

yat manfaatlari mujassam bo'lib, ularni amalga oshirishda ishtirok etish shaxs manfaatining ro'yobga chiqishini ham ta'minlaydi. Shunday ekan, ***davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklarini hurmat qilishni har birimiz yuksak majburiyat sifatida e'tirof etib, buni chuqur anglab yashash*** hayotiy burchimizga aylanmog'i kerak.

Shaxs huquqi va erkinligi hamda jamiyat huquqiy manfaatlarining ta'minlanishi, qonuniy himoyalaniishi Konstitutsiyada to'la o'zining huquqiy yechimini topgan. Bu masalaning jamiyat hayotida haqiqiy ifodasini toptirish uchun davlatimiz tomonidan amaliy ishlar qilinmoqda. Chunki inson va jamiyat, shaxs va davlatning o'zaro munosabatlari, ularni tabiiy ravishda uyg'unlashtirish huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini bunyod etishning asosiy o'zagini tashkil etadi. Inson erki va shaxs kamolotini ta'minlash muhim vazifa. Mamlakatimiz hayotida 1997-yil — «Inson manfaatlari yili», 1998-yil — «Oila yili», 1999-yil — «Ayollar yili», 2000-yil — «Sog'lom avlod yili», 2001-yil — «Onalar va bolalar yili» deb e'lon qilinishi va bu yo'nalishlarda davlat dasturlarining ishlab chiqilib hayotga tadbiq etilishi shaxsning har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalash hamda Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan shaxsning huquqi va erkinliklarini amalga oshirish uchun huquqiy ma'naviy muhit yaratishga qaratilgan.

Shaxs o'zini naqadar chinakam inson his etishi, o'z mehnatining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishi muhimdir. Shuning uchun jamiyatni isloh qilish va yangilash markazida inson, suveren O'zbekistonning fuqarosi turadi. Islom Karimov bu borada shunday degan edi: «Islohotlarning mazmuni ayni har bir fuqaro o'z qobiliyatini, o'z iste'dodini namoyon etishga, shaxs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishga qaratilgan. Siyosiy va ijtimoiy hayotdagi barcha o'zgarishlar ayni mana shu oliy maqsadga erishishga — har bir kishining hayotini yaxshiroq, munosibroq, ma'naviy jihatdan boyroq qilishga bo'ysindirilgan» (O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. O'zbekiston, 1998-y. 396-b).

2-§ bo'yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash uchun topshiriqlar.




Mavzu bo'yicha egallagan bilimlaringiz asosida quyidagi savollarga javob bering:

- 1) Shaxs va davlat munosabati tushunchasi mohiyatini tushuntiring.
- 2) Shaxs va davlat munosabati haqidagi konstitutsiyaviy qoidalar mazmunini izohlab bering.
- 3) Shaxs va davlatning o'zaro majburiyatlari Konstitutsiyada qanday asosga qurilgan?



O'zbekistonda shaxs va davlat munosabati haqidagi Konstitutsiyaviy qoidalarni o'rganish asosida matn tayyorlang. Matnda asosan o'z fikr va mulohazalaringizdan kelib chiqib yondoshing, hamda turli xil shu masalaga taalluqli adabiyotlardan foydalanib xulosalar chiqaring.



Bu munosabat qaysi Konstitutsiyaviy qoidalarda tartibga solinadi.



O'zbekistonda shaxs va davlatning o'zaro majburiyatini aks ettiruvchi ko'rgazmali materialni quyidagi jadval ko'rinishida tayyorlang va dars jarayonida uni izohlab bering.

SHAXS VA DAVLAT MUNOSABATI



Shaxs majburiyati	Davlat majburiyati

**Huquqiy
meros**



Shaxs va davlat munosabati o'tmishda qanday hujjatlar asosida belgilangan? Bu munosabatlar qanday sharqona fazilatlariga asoslangan?

**Shaxsiy
fikr**



Siz davlat oldidagi konstitutsiyaviy majburiyatlaringizni qanday his qilasiz? Bu majburiyatlarni anglab yashash shaxsning kamoloti uchun ahamiyatini tushuntiring.

II bob. O'zbekiston fuqarolarining asosiy huquqlari

3-§. FUQAROLAR HUQUQLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

**Inson va fuqarolarning
asosiy huquq va
erkinliklari haqidagi
konstitutsiyaviy qoidalar**

Hayotimizning asosiy qonuni bo'lgan O'zbekiston Konstitutsiyasining xalqimiz, jamiyatimiz va davlatimiz hayotida tutgan o'rnini va ahamiyati beqiyosdir.

Konstitutsiyada davlatimizning demokratik mohiyatidan kelib chiqqan holda asosiy inson huquqlari va erkinliklari huquqiy kafolatlab qo'yilgan.

Konstitutsiya O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati, ya'ni xalqning o'zi bevosita boshqariladigan jamiyat va demokratik huquqiy davlat qurishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Unda «jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i — inson» ekanligi yorqin mujassamlashtirilgan. Insonni ulug'lash, uni muhofaza qilish va har tomonlama kamol toptirish Konstitutsiyamizning asosiy g'oyasiga aylantirilgan. Zero, Konstitutsiyamizning eng katta va muhim qismi «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» deb nomlangan II bo'limidir. Konstitutsiyamizda faqat fuqarolarning huquqlarigina belgilab qo'yilmasdan, xorijiy davlatlarning va fuqaroligi bo'lmagan insonlarning asosiy huquqlari, erkinliklari haqidagi qoidalar ham mustahkamlangan. Ushbu qoidalar, tamoyillar fuqarolar o'z huquq va erkinliklaridan to'g'ri foydala-

nishlari va zimmalariga yuklatilgan burchlarini halol, vijdonan bajarishlari shartligini hamda davlat organlari, mansabdor shaxslar fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli va samarali tadbiri qilishida mas'ul ekanliklarini bayon etadi. Bu qoidalar qonuniylik, fuqarolarning umumiy tengligi, fuqaro va davlatning bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqligi, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarining uyg'unlashganligidan iborat.

Qonuniylik — barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan amaldagi qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlarining aniq va og'ishmay bajarilishidir.

Qonuniylikning asosiy talabi mamlakatning ijtimoiy va davlat tuzumini mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun mulkning turli shakllariga yo'l ochish va ularni qo'riqlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini mustahkamlashdir.

Qonuniylikning talablariga rioya qilish inson huquq va erkinliklarini to'la ta'minlanishiga yo'l ochadi, insonlarda qonunlarga ishonch va hurmat hislarini uyg'otadi. Ikkinchi tomondan esa, davlatimiz xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlaydi.

Siz yoshlar Konstitutsiya va boshqa qonunlarning mazmun-mohiyatini chuqur o'qib va o'rganib ularga kundalik hayotingizda amal qilishga odatlanib borishingiz lozim. Shu bilan birga oila, litsey, kollej, kelajakda esa o'z ish joyingizdagi ichki tartib-intizomga vijdonan, muntazam amal qilib borsangiz, hayotingiz xavfsiz, barqaror va farovon bo'ladi. Sizni komil inson bo'lib hayotda o'z o'rningizni topishingizga yo'l ochiladi. Eng asosiysi inson huquqlari ustuvorligi va qonuniylik tamoyili buzilmaydi. Bu esa jamiyat va shaxsning taraqqiyot garovidir.

Ijtimoiy adolat Konstitutsiyaning asosiy prinsiplaridan biridir. Konstitutsiyada davlat inson va jamiyat farovonligini ko'zlab ijtimoiy adolat va huquqiylik prinsiplari asosida o'z faoliyatini amalga oshirishi belgilab qo'yilgan. Shu bois ham insonga munosib hayotni va uning rivojlanishini ta'minlash umumdavlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

O'zbekiston ijtimoiy adolatga asoslangan davlatdir. Shuning uchun u fuqarolarni, ayniqsa aholining eng nochor

qatlamlari bo'lmish nogironlarni, ko'p bolali oilalarni, yetim-esirlarni ijtimoiy jihatdan har taraflama qo'llab-quvvatlamogda.

Konstitutsiyamizning 18-moddasida shunday deyiladi: «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqe'idan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart». Bu fuqarolarning umumiy tengligi qoidasi bo'lib, u hamma fuqarolar huquqlari va burchlarining tengligini bildiradi. Bu tenglikning asosiy talabi qonunning hamma uchun bir xil kuchga ega bo'lishidir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining teng huquqliligi mustaqilligimizning buyuk yutuqlaridan biridir. Teng huquqlilik — turli millat va elatlarning teng huquqliligini, barcha fuqarolarning qonun va sud oldidagi teng huquqliligini, kasb tanlashda, bilim olishda, umuman shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlardan foydalanishdagi teng huquqlilikni o'z ichiga oladi.

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 1-moddasida «Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar», deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'kidlanganidek, «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar». Ularga ilm olishda, kasb-hunar o'rganishda, mehnat qilishda, mehnat uchun haq to'lashda, davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishda, saylash va saylanishda erkaklar bilan teng imkoniyatlar yaratib berilgandir. Bugungi kunda ayollar rahbar lavozimlarda, tadbirkorlik ishlarida faol qatnashmoqdalar. Davlat hokimiyatining vakillik organlarida ko'pgina ayollar deputat sifatida faoliyat yuritmoqdalar.

O'zbekiston davlati fuqarolarning huquq va erkinliklarini Konstitutsiyaviy huquq normalari hamda boshqa huquq tarmoqlari, ya'ni nikoh, mehnat, ma'muriy, oila qonunlari normalari bilan himoya qiladi. Davlat organlari orqali esa, jamiyat a'zolarining huquq va erkinliklarining bajarilishini adolatli kafolatlaydi. O'z navbatida

fuqarolar ham Konstitusiyada belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, ijtimoiy va shaxsiy mafaatlarni uyg'unlashtirib qo'shib olib borish, fuqarolarning yuksak ongliligini taqozo etadi.

Fuqarolarning jamiyat oldida o'z mas'uliyati, xalqning baxt-saodati uchun doimiy ravishda harakat qilish, o'z Vatanini himoya qilish, Konstitutsiyasi va qonunlarga rioya qilish, o'z oilasi e'tiqodiga sodiqlik, kasb mahorati bilan bog'liq yuksak vatanparvarlik burchini tushunish siyosiy va huquqiy madaniyatning ajralmas qismidir.

Konstitutsiyamizning 20-moddasida: «Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart» deb yozib qo'yilgan. Bu qoidaning mazmuni shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarining uyg'unlashganligida ifodalanadi. Har bir fuqaro o'z huquq va erkinliklarini, burchlarini yaxshi bilishi, anglashi — uning boshqa kimsalar tomonidan poymol etilishiga yo'l qo'ymasligidir. Juda ko'p hollarda fuqarolar o'z huquqlarini davlat organlarining aralashuvisiz amalga oshiradilar, lekin fuqarolarning huquqi buzilsa, u sud tomonidan himoya qilinadi. Chunki shaxsiy manfaatlarga to'sqinlik qilish oqibat natijada ijtimoiy manfaatga to'sqinlik qilishga olib keladi. Fuqarolar qanchalik o'z huquq va erkinliklaridan keng foydalansalar, ular shunchalik jamiyatdagi mavjud bo'lgan illatlarga qarshi keskin kurasha oladilar. Hech kim fuqarolar ustidan tazyiq o'tkaza olmaydi. Bu esa butun jamiyat hayotining yanada demokratiyalashishiga yordam beradi. Lekin har bir fuqaro o'z huquq va erkinliklarini, o'z maqsadlarini amalga oshirish yo'lida ijtimoiy muhitni va boshqa kishilarning huquqlarini pisand qilmaslikka, davlat, jamiyat va fuqarolarning qonuniy manfaatlariga, huquq va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart. Shuning uchun har bir fuqaroning manfaati ijtimoiy manfaatlar bilan uyg'unlashib borishi lozim. Eng muhimi, jamiyat manfaati, Vatan manfaati shaxsiy manfaatdan ustun bo'lsagina, oldimizga qo'ygan orzu-maqsadlarimizga erishishimiz mumkin.

21—23-moddalari «Fuqarolik» deb atalib, ushbu moddalarda O'zbekiston Respublikasida fuqarolikka oid qoidalar bayon etilgan. Fuqarolik masalasi siyosiy masaladir. Ibtidoiy jamiyatda fuqarolik tushunchasi bo'lmagan, chunki unda davlat singari tashkilot ham bo'lmagan. Fuqarolik tartiblari davlat va huquq kabi ijtimoiy hodisalar paydo bo'lishi natijasida shakllanib, unda davlat qonunlar vositasida, odamlarni o'z fuqarolari sifatida tan olish asoslarini belgilay boshlagan. Shaxs va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabat fuqarolik tartiblari bilan belgilanadi.

Fuqarolik — bu shaxsning muayyan davlatga mansubligini bildiruvchi, shaxs bilan davlat o'rtasidagi barqaror, doimiy siyosiy, huquqiy aloqalarini aniqlovchi tushunchadir. Bu aloqalar davlat va shaxsning o'zaro huquq va burchlarini aniqlashda namoyon bo'ladi. Ya'ni, davlat shaxsni o'zining fuqarosi deb tan olar ekan, uning Konstitutsiyada ko'rsatilgan fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilaydi, uning huquqlari va erkinliklarini ushbu davlat ichida hamda tashqarisida muhofaza qiladi. Shaxs ham jamiyat va davlat oldidagi burchlarini bajarishga majbur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida 1992-yil 2-iyulda «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilingan. Ushbu huquqiy hujjatlarda O'zbekistonda fuqarolik masalalari, insonning fuqarolikka ega bo'lishi asoslari, fuqarolikni tasdiqlovchi hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtalishi, ota-onaning fuqaroligi o'zgarganda va farzandlikka olinganda bolalarning fuqaroligi, fuqarolik to'g'risidagi ishlarni yurituvchi O'zbekiston Respublikasining davlat idoralari va ularning vakolatlari, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqish, fuqarolikka oid qarorlarning ijrosi, mansabdor shaxslarning fuqarolik masalalariga oid g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish, xalqaro shartnomalarning qo'llanilishi kabi eng muhim masalalar bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasi hamda «Fuqarolik to'g'risida»gi qonunning 1—2-moddalariga binoan O'zbekiston hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlovchi asosiy hujjat pasportdir. Pasport olingunga qadar esa tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma yoki shaxsning fuqaroligiga doir ma'lumotlar bo'lgan hujjat uning fuqaroligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 26-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida pasport tizimi to'g'risidagi Nizomi bilan belgilanadi.

Ushbu Nizomga asosan O'zbekiston Respublikasining 16 yoshga to'lgan barcha fuqarolariga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti berilishi shart, deb ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi pasporti xorijga jo'nab ketish chog'ida ham amal qiladi. Pasport Respublika Ichki Ishlar organlari tomonidan beriladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti butun O'zbekiston Respublikasida yagona namunada o'zbek, rus, ingliz tillarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun esa qoraqalpoq, o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlanadi va u 32 betdan iboratdir.

Har bir shaxs o'zini fuqaro sifatida tasdiqlovchi hujjat hisoblangan O'zbekiston Respublikasi pasportini avaylab asrashi, pasport tizimi qoidalariga rioya qilishi shart. Fuqarolar pasport tizimi qoidalarini buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda javob beradilar.

O'zbekiston Respublikasida yashovchi har bir kishi fuqaro bo'lish huquqiga ega. «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi qonunning 12-moddasiga binoan, O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'lish quyidagi asoslar bo'yicha amalga oshiriladi:

1. O'zbekiston fuqarolaridan tug'ilgan bolalar ular mam-lakat hududida yoki xorijda tug'ilsa ham O'zbekiston

fuqarosi hisoblanadi. Agar ota-onalardan bittasi O'zbekiston fuqarosi, ikkinchisi chet el fuqarosi bo'lsa, tug'ilgan bola O'zbekistonda tug'lsa, O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Agar shunday ota-onalardan bola mamlakatimiz tashqarisida tug'lsa, uning fuqaroligi ota-onaning kelishuviga binoan belgilanadi. Ota-onasi fuqarolikka ega emas shaxslardan tug'ilgan bolalar O'zbekistonda tug'lsa, O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Ota-onalardan bittasi O'zbekiston fuqarosi, ikkinchisi O'zbekiston fuqarosi hisoblanmasa, u qayerda tug'lsa ham O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Otasi noma'lum, onasi ma'lum bo'lib, O'zbekistonda tug'ilgan bola O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

2. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z istaklari bilan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun ular quyidagi shartlarni bajarishi shart:

a) chet el fuqaroligidan voz kechganda: bunda chet el fuqarolarini O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror qabul qiladi. Chet el fuqarosi esa o'z fuqaroligini o'zgartirilishi haqida mazkur davlatning munosabatini ko'rsatuvchi hujjatni taqdim etishi shart;

b) chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston hududida kamida besh yil yashagan bo'lsa, ya'ni so'nggi besh yil davomida O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganligi va qonuniy yashash manbalar mavjudligi tasdiqlangan holda;

v) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olsa va bajarsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi oldida buyuk xizmatlari yoki fan, texnika va madaniyat sohasida katta yutuqlari bo'lgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasini qiziqtiradigan kasb yoxud malakaga ega bo'lgan ayrim shaxslarga nisbatan ushbu moddaning 1, 2 va 3-bandlaridagi talablar hisobga olinmasligi mumkin. Lekin ular ham albatta O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini tan olishi va bajarishi shart.

Agar shaxs:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik ishlatib o'zgartirishini yoqlab chiqayotgan bo'lsa;

Faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitsiyaviy prinsiplariga zid bo'lgan partiyalar va o'zga tashkilotlarga a'zo bo'lsa;

O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq jazolanadigan xatti-harakatlari uchun ozodlikdan mahrum etilgan va o'sha jazoni o'tayotgan bo'lsa, uni O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi iltimosnomasi rad etiladi.

Fuqarolik to'g'risidagi qonunning 19—21-moddalarida: O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining tugatilishi va yo'qotilishi asoslari belgilangan.

Shaxsning iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqarilishi mumkin. Agar shu shaxslarning O'zbekiston davlati oldida burchlari, qarzlari bo'lsa, jinoyat sodir etgan bo'lsa ruxsat berilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish, fuqarolikni qayta tiklash, fuqarolikdan chiqish va uni yo'qotish masalalari O'zbekiston Prezidenti farmoni bilan rasmiylashtiriladi.

Qanday hollarda shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan mahrum qilinadi?

- Vatanga xiyonat qilsa;
- Shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, politsiya, armiya idoralariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa idoralariga ishga kirganligi natijasida;
- Agar chet elda doimiy 5 yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobida turmagan bo'lsa;
- Agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg'on ma'lumotlar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish orqali olingan bo'lsa;
- Xalqaro shartnomalar asosida;
- Ushbu qonunda ko'zda tutilgan boshqa asoslarga binoan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqqan kundan boshlab O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi yo'qotiladi.

Masalan, xorijda ishlayotgan ota-onalarning farzandlari

o‘z ota-onasidan ajrab qolsa, o‘sha bolalarni chet elliklar boqib olsa, ular 14 yoshga kirganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini o‘z-o‘zidan yo‘qotadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risidagi ishlarni yurituvchi O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti;
- O‘zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari (elchixonalar) va konsullik muassasalari.

Biz fuqarolik masalalarini o‘rganar ekanmiz, O‘zbekistonda O‘zbekiston fuqarolaridan tashqari chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ham huquqiy holatini bilishimiz zarur.

Konstitutsiyamizning 23-moddasida belgilanishicha, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta‘minlanadi. Ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar.

Chet el fuqarolari — O‘zbekiston hududida yashayotgan, boshqa xorijiy mamlakatlarning fuqaroligiga ega bo‘lgan shaxslar. Ularning O‘zbekistonda bo‘lishlariga turli sabablar mavjud. Masalan, shartnomalar asosida O‘zbekistonda ishlash, o‘qish, chet ellarning diplomatik va konsullik idoralarida ishlash, sayyohlik yo‘llanmasi bilan kelishi va hokazolar.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmagan va o‘zining chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlovchi dalillari (fuqarolik pasporti yoki ularning o‘rmini bosuvchi boshqa hujjati) bo‘lgan shaxslar chet el fuqarolari deb tan olinadi.

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning huquqiy ta‘rifi «O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida»gi Qonun-

ning 11-moddasida berilgan: «O‘zbekiston Respublikasi hududida yashab turgan holda O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan va chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo‘lmagan shaxslar fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar deb hisoblanadi».

Chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan huquq va erkinliklardan, xususan shaxsiy, mulkiy, oilaviy va boshqa huquqlardan foydalanadilar, shuningdek, o‘zlarini himoya qilishlari uchun sud organlariga murojaat qila oladilar.

Ayni paytda, ular O‘zbekiston fuqarolari bilan bir xil majburiyatlarni o‘taydilar. Respublikamizda doimiy istiqomat qiluvchi chet ellik shaxslarning huquq va majburiyatlarining huquqiy maqomi, ko‘lami muvaqqat istiqomat qiluvchilarga nisbatan kengroqdir. Doimiy istiqomat qiluvchilar O‘zbekistonda ishchi va xizmatchi bo‘lib ishlashlari yoki boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin. Ular dam olish, sog‘liqni saqlash, nafaqa olish, uy-joydan foydalanish, shaxsiy mulk sifatida uy-joyli bo‘lish, ilm olish huquqiga egadirlar. Ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan nikohda bo‘lishlari va uni bekor qilishlari mumkin. O‘zbekistonda doimiy yashovchi chet elliklar toifasiga ichki ishlar organlari tomonidan beriladigan maxsus ruxsatnoma yoki yashash uchun guvohnoma olgan kishilar kiradi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston hududida qilgan jinoiy, ma‘muriy va boshqa huquqbuzarlik ishlari uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan bir xil asosda javob beradilar. Ular O‘zbekiston hududida jinoyat qilsalar, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan javobgarlikka tortiladilar.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ayrim huquqlari cheklab qo‘yiladi. Jumladan, ular respublikadagi vakillik organlari saylovlarida ishtirok eta olmaydilar, deputat bo‘lib saylana olmaydilar, umumxalq ovoz berish (referendum) da qatnashish huquqiga ega emaslar. Ular O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida, Milliy xavfsizlik xizmatida, ichki ishlar organlarida ishlashlari mumkin emas.

Chet el fuqarolarining alohida toifasini chet el davlatlarining O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik va konsullik vakolatxonalarini va xalqaro tashkilotlar xizmatchilari tashkil etadi. Ular ham O'zbekiston Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa huquqiy normalarni hurmat qilishi va ularga itoat etishi kerak. Lekin ular diplomatik va konsullik imtiyozlaridan va shaxsiy daxlsizlik huquqidan foydalanadilar.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarining asosiy turlari

Fuqarolarning huquq va erkinliklari deyilganda, O'zbekiston davlati tomonidan o'rnatilib, Konstitutsiyasida belgilangan,

har bir fuqaroga berilgan imtiyozlardan shaxsiy hayotda va jamoat ishlarida qatnashish uchun foydalanish imkoniyati tushuniladi.

O'zbekiston fuqarolarining asosiy huquq va erkinliklari bajarilish sohalari bo'yicha uch turga bo'linadi.

O'zbekiston fuqarolarining asosiy huquq va erkinliklari ilmiy asoslangan tartibda tavsiflash O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topgan. Unga asosan, O'zbekistonda inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari quyidagicha tavsiflangan:

Shaxsiy huquq va erkinliklar

(VII bob, 24-31-moddalar);

Siyosiy huquqlar *(VIII bob, 32-35-moddalar);*

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar

(IX bob, 36-42-moddalar).

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, o'zining davlat tuzilishi, faoliyati va hayotini umuminsoniy qadriyatlar asosida olib borishni maqsad qilib qo'ydi. Bunda shaxsning manfaati, uning sha'ni, qadr-qimmatini hamma narsadan yuqori turadi. Inson huquqlari ichida uning tabiiy va ajralmas huquqlari ayniqsa muhimdir. Inson

huquqlarini himoya qilish hozirgi dunyoning eng jiddiy muammolaridan hisoblanadi. Inson huquqlari — bu insoniyat tarixiy taraqqiyotining umumiy yutug'idir. Insoniyatga azob-uqubat, kulfatlar keltiruvchi urush ofatlaridan kelgusi avlodlarni xalos etish, inson huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilinishini ta'minlash BMT faoliyatining asosiy maqsadiga aylandi. Bu maqsadlar BMTning inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro ahamiyatga molik hujjatlarida o'z ifodasini topgan.

Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarning o'rni shu bilan belgilanadiki, unda umumjahon manfaatlariga xizmat qiladigan huquqiy me'yorlar mujassamlashgan. Bu huquqiy me'yorlar inson huquqlariga, demokratik g'oyalarga sadoqat, fuqarolar tengligi, milliy va millatlararo totuvlik, davlatlararo nizolarni tinch yo'l bilan hal etish tamoyiliga asoslanadi.

Inson huquqlari to'g'risidagi asosiy huquqiy hujjatlar: «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi», «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt» va «Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt» hamda so'nggi hujjatga ilova qilingan Fakultativ Protokoldan iborat bo'lib, ular «Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill», deb yuritiladi. Xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekistonning qonunchiligi, mustaqil O'zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi ham xalqaro huquqning aynan ushbu hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Inson huquqlari va erkinliklari masalasi BMTning 70 dan ortiq asosiy huquqiy hujjatlarida ifodalangan.

BMTning inson huquqlariga doir qabul qilingan xalqaro hujjatlari mantiqan bir-birini to'ldiradi va mazmunan boyitadi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1959-yilda qabul qilingan «Bola huquqlari haqidagi Deklaratsiya», 1965-yilda qabul qilingan «Irqiy kamsitishning hamma shakllarini tugatish haqidagi Konvensiya»larda inson shaxsi, uning huquq va erkinliklari har bir mamlakatda huquqiy jihatdan kafolatlanishi qayd etilgan. «Bola huquqlari haqidagi Deklaratsiya»da onalik va bolalikni himoya qilish, bolalarning mehnati, salomatligi, tarbiyasini huquqiy jihatdan muhofaza etish, ularning irqiy kamsitilishiga yo'l

qoʻymaslik singari huquqlar har bir mamlakatda qonun asosida himoyalaniş zarurligi taʼkidlangan.

Ushbu hujjatlarga imzo chekkan davlatlar insoniyatning butun tarixi mobaynida qayd etilgan jamiki huquqlarini tan olishlari va ularga rioya etishlari shart. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi davlatlar uchun tavsiya sifatidagi hujjat boʻlib, ixtiyoriy ravishda bajariladi. Xalqaro Paktlar va Konvensiyalar ularga qoʻshilgan davlatlar uchun majburiydir.

BMTning 1945-yil 26-iyunda AQShning San-Fransisko taʼsis konferensiyasi qatnashchisi boʻlgan davlatlar tomonidan qabul qilingan va shu yili 24-oktyabrda kuchga kirgan bu hujjat jahondagi davlatlarning yagona maksad sari hamjihatlikda intilishini jamuljam qilib, inson huquqlari sohasidagi hamkorlikning huquqiy asoslarini oʻzida namoyon etadi. Ushbu dunyoviy tashkilotga bugungi kunda 190 ga yaqin davlatlar aʼzo boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi ushbu nufuzli xalqaro tashkilotga 1992-yil 2-martda qabul qilindi. 1993-yil 24-oktyabrda Toshkent shahrida BMTning vakolatxonasi ochildi.

Hozirgi kunda BMT inson taqdiri bilan bogʻliq boʻlgan quyidagi muammolarni:

- xalqlar va inson huquqlariga qarshi harbiy kuch qoʻllash va tahdid qilishni tugatish;
- asosiy inson huquq va erkinliklariga hurmat ustuvorligini taʼminlash;
- barcha uchun umumiy boʻlgan atrof-muhitni muhofaza qilish va kelajak avlod uchun avaylab-asrab saqlash;
- insoniyat oʻzining bir butunligini anglashini taʼminlash kabi masalalarni hal qilmoqda.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi 30 moddadan iborat boʻlib, ushbu xalqaro huquqiy hujjatda inson huquqlarining tartibini va qoidasini belgilovchi huquqiy meʼyorlar mujassamlashgan. Deklaratsiya muqaddimasida uning maqsadi — insoniyat oilasi aʼzolariga xos boʻlgan maʼnaviyat, qadr-qimmat, urf-odatlarini, ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish ekanligi koʻrsatilgan. Inson manfaatining ustunligi Deklaratsiyaning umumiy tamoyillarida toʻla namoyon boʻladi.

Bular :

- inson huquqlarini hurmat qilish;
- inson huquqlarining tengligi;
- inson erkinligi;
- inson huquqlarini amalga oshirishning demokratik jarayoni;
- inson huquqlarini ta'minlashning adolat tamoyilidir.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktlarning moddalarida insonning huquqlari aniq bayon etilgan:

- yashash huquqi insonning ajralmas huquqidir;
- hech kim o'zboshimchalik bilan insonni huquqidan mahrum qila olmaydi;
- hech kim azob-uqubatga solinmasligi, unga nisbatan shafqatsiz, noqonuniy yoki qadr-qimmatini xo'rllovchi muomala qilinmasligi yoki jazolanmasligi kerak;
- har bir inson ozodlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega; hech kim o'zboshimchalik bilan hibsga olinishi yoki hibsdan saqlanishi mumkin emas;
- biror bir davlat hududida qonuniy ravishda bo'lgan har bir kishi ushbu hudud doirasida erkin ko'chib yurish va yashash joyini tanlash huquqiga ega;
- har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega.

Bu huquqlar insonga berilgan tabiiy huquqdir. Inson qaysi davlat fuqarosi bo'lishidan qat'iy nazar, dunyoga kelishi bilan tabiiy huquqlarga ega bo'lishi shart. Davlat o'z fuqarolariga faqat qo'shimcha ravishda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohadagi ayrim huquqlarni beradi. Bunday huquqlarni davlatlar o'z Konstitutsiyalarida ko'rsatib qo'yadilar.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 30-sentyabrda inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasini rasmiy tan oldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, inson huquqlariga bag'ishlangan 70 ta xalqaro hujjatlardan 35 tasini ratifikatsiya qildi. O'zbekiston Respublikasi Parlamenti 1995-yil 31-avgustda qabul qilgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktga fakultativ protokoll, irqiy kamsitishning hamma shakllarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, qiynoq hamda muomala va

jazolashning qattiq, shavqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya va boshqa xalqaro hujjatlar shular jumlasidandir. Ratifikatsiya qilingan bu hujjatlardagi qoidalar yuqorida ta'kidlanganidek, respublika qonunchiligida, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan.

3-§ bo'yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash yuzasidan topshiriqlar.

E'TIBOR BERING!

Inson jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida davlat qonunlarida mustahkamlangan o'z huquqi erkinligi va burchlarini amalga oshirish bilan qatnashadi. Jamiyat va davlat insonning huquqi va erkinligi, uning sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e'tirof etadi. Inson huquqi va erkinligi doirasini kengaytirish, shuningdek, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro huquqiy hujjatlarni hisobga olish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ham xosdir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi insonning asosiy huquqlari, erkinliklarini tartibga solishda ijtimoiy adolat, fuqarolarning umumiy tengligi, fuqaro va davlatning o'zaro javobgarligi g'oyasiga hamda xalqaro huquq talablariga asoslanadi.

Quyidagi Konstitutsiyaviy qoidalarga izoh bering:

18-modda:

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

19-modda:

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

Asosiy huquq va erkinliklar:

Topshiriq

1. *Asosiy huquq va erkinliklarning o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?*
2. *O'zbekiston fuqarolarining asosiy huquq va erkinliklari boshqa huquq va burchlari paydo bo'lishi asoslaridan nimasi bilan farq qiladi?*
3. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari qanday xususiyatli belgilariga ko'ra va qaysi xalqaro hujjatga muvofiq guruhlariga ajratilgan?*

Bilimingizni sinab ko'ring

1. BMT hozirda inson taqdiri bilan bog'liq bo'lgan qanday muammolarni hal qilmoqda?
2. Xalqaro huquqiy hujjatlarda insonning qanday tabiiy huquqlari belgilangan?
3. O'zbekiston hududida inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar haqida tushuncha bering.
4. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida mustahkamlangan inson manfaatlarini aks ettiruvchi tamoyillarni izohlab bering.

XULOSA

Konstitutsiya alohida kishilar uchun ham, davlat va jamiyat uchun ham hayotiy zarur, hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan huquq va erkinliklarni o'zida mujassamlashtirgan.

Ular erkin shaxsga xos bo'lgan g'urur va qadr-qimmatni, o'zi yashab turgan jamiyat qurilishi va uni boshqarishga oid masalalarni hal etishda, hayotiy moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishda zarur bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratishda qatnashish huquqini ta'minlash uchun nihoyatda zarur.

Erkin mehnat qilish, erkin tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini ta'minlamasdan, jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotini tasavvur etish mumkin emas.

Fuqarolarning saylov huquqini amalga oshirmasdan esa jamiyatni demokratik asosda boshqarish tizimini yuzaga keltirib bo'lmaydi. Shu sababli, huquq va erkinliklar davlat tomonidan tan olinibgina qolmay, ular davlat faoliyatining muhim sharti sifatida muhofaza etiladi.

4-§. SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR

Shaxsiy huquq va erkinliklar — insonning ajralmas huquqi

Shaxsiy huquq va erkinliklar insonning tabiiy, asosiy ajralmas huquqlaridir. Ular tabiiy yashash huquqidan va erkinlik-

lardan kelib chiqqan, har bir kishi tug'ilgandayoq shunday

huquqlarga ega bo'ladi. Ular kishining shaxsiy erkinligiga kafolat beradi, davlatning va boshqa kishilarning o'zboshimchaligidan himoya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari tizimining asosini tashkil qiluvchi fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VII bobida mustahkamlangan bo'lib, ular xalqaro huquqning barcha hujjatlari talablariga mos keladi.

Shaxsni himoya qilish, shuningdek uning hayotini ijtimoiy xavfli tajovuzdan muhofaza qilish har bir demokratik davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Shaxsiy huquq va erkinliklarning boshqa turdagi huquqlardan muhim farqi shundaki, ular kishining individual hayotiy ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularning o'zlari tomonidan mustaqil amalga oshiriladi. Ular o'z mohiyati bilan inson, ya'ni har bir shaxsning huquqlari hisoblanib, ular qaysi davlatning fuqaroligiga mansub ekanligiga bog'liq bo'lmaydi. Shaxsning mazkur huquqlari daxlsiz va har bir shaxs ularga tug'ilishi bilan ega bo'ladi.

Inson huquqlari ichida eng ulug'i va muqaddasi uning yashash huquqidir. Konstitutsiyamizning 24-moddasida ko'rsatilganidek, «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir».

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 3-moddasida: «Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir» deb, Fuqaro huquqlari va siyosiy huquqlari to'g'risidagi Paktning 6-moddasida esa, «Har bir insonning yashash huquqi uning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonunlar bilan muhofaza etiladi. Hech kim o'zboshimchalik bilan insonni yashash huquqidan mahrum qila olmaydi» deb belgilangan.

Xalqaro huquqning insonparvarlik qoidalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi insonning yashash huquqini uzviy va ajralmas deb e'lon qiladi hamda kafolatlaydi. Bizda insonning yashash huquqi qonunlardagina e'lon qilinib qolmasdan, balki juda ko'p vositalar bilan ta'minlanadi.

Birinchiidan. O'zbekiston va uning hukumati tomonidan olib borilayotgan barqarorlik va tinchlikni saqlash siyosati, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik insonning yashash huquqini ta'minlovchi eng muhim garovdir.

Ikkinchiidan. O'zbekistonda yashash huquqining muhim kafolatlaridan yana biri inson umrini uzaytirish, o'limni kamaytirish, qulay va munosib turmush sharoitini vujudga keltirish kabi maqsadlarni nazarda tutuvchi kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish hisoblanadi.

Uchinchiidan. O'zbekistonda insonning yashash huquqi turli qonunlar bilan muhofaza qilinadi. Bular ichida, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi muhim o'rin tutadi. Unda inson hayotiga suiqasd qilish, hayotga qarshi jinoyatlar eng og'ir jinoyat sifatida qaralib, buning uchun qattiq jazo choralari belgilangan.

JKning 97-moddasiga ko'ra, qasddan odam o'ldirganlik uchun 15 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi bilan jazolanadi. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi qaratilgan jinoyatlar, ya'ni urushni targ'ib qilish (JKning 150-moddasi), agressiya (JKning 151-moddasi), ya'ni bosqinchilik urushini rejalashtirish, boshlash hamda olib borish uchun 15 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi qo'llaniladi. Chunki bunday jinoyatlarning barchasi insonning yashash huquqiga tajovuz qiladi.

Insonning yashash huquqini kafolatlaridan yana biri, Jinoyat Kodeksining 51-moddasiga muvofiq, o'lim jazosi ayolga va 18 yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan tayinlanishi mumkin emas. Bundan tashqari O'zbekistonda o'lim jazosiga mahkum qilinganlar Respublika Prezidentiga avf etilishini so'rab murojaat etish huquqiga egadir.

Shunday qilib, har qanday demokratik va adolatli davlatda jumladan O'zbekiston Respublikasida ham insonlarning yashash huquqi kafolatlangan tabiiy va muqaddas huquq bo'lib, unga nisbatan har qanday tajovuz eng og'ir jinoyat hisoblanadi.

Insonga qarshi jinoyatlar deb, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bilan ta'qiqlangan, ijtimoiy xavfli qilmishlar (harakat yoki harakatsizlik), ya'ni inson hayotiga,

sog'lig'iga, shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyatlarga aytiladi.

Shaxsga qarshi jinoyatlar Jinoyat Kodeksi bo'yicha quyidagi turlarga ajratilgan:

- hayotga qarshi jinoyatlar;
- sog'liqqa qarshi jinoyatlar;
- hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar;
- nomusga qarshi qaratilgan jinoyatlar;
- oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar;
- shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi

jinoyatlar;

— fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida: «Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shavqatsizlik yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas»ligi mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining eng muhim vazifalardan biri fuqarolarning sog'ligi va jismoniy daxlsizligini jinoyatkorona tajovuzlardan muhofaza qilishdir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 101—111-moddalarida sog'liqqa qarshi jinoyatlar va ularga qarshi jazo belgilab qo'yilgan.

Har qanday kishining hayoti qonunchilik bilan himoya qilinadi va qo'riqlanadi. Shaxs huquq va erkinliklarini turli tajovuz soladigan xavfdan himoya qilish davlat organlari tizimlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Jamiyatda jinoyatchilikning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik shu jamiyat a'zolarining inson haq-huquqlarini poymol etuvchi illatlarga birgalikda kurash olib borishiga bog'liqdir. Shu bilan bir qatorda fuqarolar ham o'z huquqlariga qarshi qaratilgan xavfdan o'zini himoya qila olishi kerak. Inson huquq va erkinliklariga rahna soladigan jinoyatlarga qarshi kurashda va jinoyatlarning oldini olishda har birimiz faol ishtirok etishimiz lozim.

**Sud orqali himoyalani-
sh huquqi**

Har bir fuqaro o'zining bu-
zilgan huquqlarini sud orqali
himoya qilish huquqiga ega.

Fuqarolarning bu huquqini ta'minlash uchun davlat sud hokimiyati tizimini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'z huquqlarini har tomonlama tajovuzlardan himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqini amalga oshirishning barcha huquqiy shart-sharoitlari yaratilgan.

Fuqarolarni sud tomonidan himoyalani-
sh huquqining mazmuni O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar usti-
dan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi 1995-yil 30-avgust Qonunida bayon etilgan. Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi fuqarolarinigina emas, balki chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ham O'zbekiston Respublikasi sud organlariga murojaat qilish huquqini kafa-
latlaydi.

Ushbu mavzu matnlaridan shunday xulosalar chiqarishimiz mumkinki, Prezidentimiz, doimo ta'kidlaganidek insonning yashash huquqi «insonning eng ustivor muqaddas huquqi»dir.

Sizlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyatini o'qib o'rganar ekansizlar, mamlakatimizda inson huquqi, uning hayoti, sog'lig'i bebaho, buyuk ne'mat ekanligini anglaysiz. Kelajakda bu sohada olgan huquqiy bilim, malaka va ko'nikmalaringiz orqali avvalo o'z haq-huquqlaringiz va burchlaringizni adolat tarozisida amalga oshishini ta'minlashingiz zarurdir. Ikkinchidan esa Sizlar boshqa insonlarning yashash huquqini, hayoti va sog'liqlarini himoya qilishlaringiz shartligi, shaxsga qarshi jinoyatlar eng og'ir jinoyatlar ekanligi hamda unga qarshi jazolar muqarrar ekanligi haqida xulosalar chiqarasizlar.

**Fikrlash, so'z, e'tiqod va
vijdon erkinligi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida:

«Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot

va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin» deyiladi.

Fikr yuritish bu — insonning o'z bilimi va ishonchiga asoslanib, hayot, jamiyat, davlat hayoti va ijtimoiy-siyosiy muammolarga doir mulohaza va qarashlarini erkin bayon qilish huquqidir. Inson va fuqarolarning bu huquqi Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi 1994-yil 6-may qonuni bilan kafolatlanadi. Ushbu Qonunda fuqarolarning davlat organlariga, jamoat birlashmalariga, mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga murojaat qilish huquqini ifoda etuvchi asosiy qoidalarni, shuningdek fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi va muddatlari belgilangan.

So'z erkinligi bu fuqarolarning og'zaki ravishda fikr bildirish huquqidir. Fuqarolar so'z erkinligi orqali o'zining siyosiy huquqlaridan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi, Ya'ni ular qonun loyihalarini himoya qilishda, referendumlar o'tkazishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylashda, Oliy Majlis va mahalliy tashkilotlarni saylashda o'zining mulohazalarini bayon qilish va qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega. Lekin ushbu axborotlar konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan bo'lsa, tinchlik va xavfsizlikka qarshi, demokratiya va jamiyatning manfaatlariga qarshi, davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining davlat sirlari:

- davlat siri;
- harbiy sir;
- xizmat siriga bo'linadi;

Davlat siri — oshkor etilishi Respublika harbiy-iqtisodiy salohiyatining sifat holatiga salbiy ta'sir etishi yoki O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi, iqtisodiy va siyosiy manfaatlar uchun boshqa og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar.

Harbiy sir — oshkor qilinishi O'zbekiston Res-

publikasi mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi va Qurolli Kuchlari uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan harbiy yo'sindagi ma'lumotlar.

Xizmat siri — oshkor qilinishi O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan fan, texnika, ishlab chiqarish va boshqaruv sohalariga doir ma'lumotlar.

Davlat sirlari — davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan cheklab qo'yilgan o'ta muhim, mutlaq maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa ma'lumotlardir.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida»gi qonuni va Jinoyat kodeksining 162,163-moddalariga binoan O'zbekiston Respublikasiga qarshi davlat sirlarini oshkor qilish yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotish harakatlari jinoyat hisoblanadi hamda ularga qarshi javobgarlik belgilangan.

Vijdon erkinligi — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi».

O'zbekistonning mustaqilligi inson va fuqarolarning ham, u yashayotgan jamiyatning ham ma'naviy jihatdan boyib borishi uchun keng yo'l ochdi. Davlatimizdagi vijdon erkinligi masalasi bilan bog'liq munosabatlari o'zgardi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq diyorimizning barcha fuqarolari haqiqiy e'tiqod erkinligini his eta boshladilar. Davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 1 mayda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi (yangi tahrirdagi) Qonuni bilan tartibga solinadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda turli din vakillarining hech qanday to'siqlarsiz o'z dinlariga e'tiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Sobiq sho'ro davrida respublikamizda bor-yo'g'i 89 ta masjid va ikkita madrasa faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozir O'zbekiston musulmonlari idorasi boshqaruvi ostida Adliya vazirligidan rasmiy ro'yxatdan o'tgan 1700 dan ortiq masjid, 10 ta madrasa faoliyat ko'rsatib turibdi. Ular uchun barcha qulayliklar yaratilgan.

Shuningdek, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat vakillari ham o'zlari e'tiqod qilayotgan dinlariga erkin ibodat qilmoqdalar. Bugun Respublikamizda 15 turdagi 170dan ziyod noislomiy diniy konfessiyalar (tashkilotlar) rasman faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikamizda to'rtta diniy markaz — Movarounnahr Musulmonlari Boshqarmasi, O'rta Osiyo Rus pravoslav cherkovi boshqarmasi, O'rta Osiyo Injil Nasroniylar — Baptistlari markazi va O'rta Osiyo Yettinchi kun Adventistlari Cherkovi konfessiyalari yagona huquqiy tizim va maqom asosida ish olib bormoqda.

1999-yil 7-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning Farmoyishiga asosan Toshkent islom universiteti tashkil etildi. Har yili mazkur oliygoh islom tarixi va falsafasi, diniy qonunchilik, iqtisod va tabiiy fanlar fakultetlariga talabalarni qabul qiladi. Universitet qoshida Islomshunoslik ilmiy tadqiqot markazi, manbalar xazinasi hamda akademik litsey faoliyat ko'rsatmoqda. Xalqimizning vijdon erkinligi huquqining kafolatlanganligi, bu sohada erishayotgan yutuqlarimizning asosi Konstitutsiyamiz va qonunlarimizning insonparvarlik, demokratik tamoyillarga asoslanganligidadir.

Sobiq mustabid sho'ro tuzumi davrida dinni jamiyat hayotidan siqib chiqarishga urinishlar bo'ldi. Natijada ma'naviyat va ma'rifat o'rnini ma'lum darajada jaholat egallab, yurtdoshlarimiz fiqh, tafsir, hadis, tasavvuf ilmlari haqida hatto umumiy tushunchaga ham ega bo'lmay qoldilar. Hatto islom dini nima degan savollarga to'liq javob bera oladiganlarning soni ham ozchilikni tashkil etdi. Movarounnahr diyori azaldan dinu diyonat o'chog'i, fuzalo ulamolar yurti ekanligini unutilib qo'ydik.

Ana shunday sharoitda mintaqamizda xususan O'zbekistonda ba'zi kuchlar din niqobi ostida g'arazli maqsadlar bilan siyosiy hokimiyatni egallashga intildilar. Alloh, islom kabi so'zlar bilan nomlangan partiya, tashkilotlar («islom uyg'onish partiyasi», «hizbulloh», «Hizbut tahrir al islomiy» va boshqalar) tuzib, mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlab, yaxlit jo'g'rofiy hududda islom davlati qurish, xalifalikni qayta o'rnatishga harakat qildilar. Xalifalikni qayta tiklash g'oyasi islom dini ta'limotiga ziddir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga binoan: «Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish ta'qiqlanadi». Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatimizdagi tinchlik, barqarorlikni ko'rolmayotgan, yoshlarimizni endigina shakllanayotgan pok, beg'ubor ongini buzishga intilayotgan yuqorida tilga olingan ekstremistik oqimlarning g'oyaviy qarashlari Konstitutsiya va qonunlarimizga mos kelmaydi.

Diniy ekstremizm — ma'lum siyosiy maqsadlar yo'lida va din niqobi ostida mutaassiblar yoki ularning irodasiga ko'ra ish ko'ruvchi guruhlar tomonidan olib boriladigan o'ta ashaddiy harakat va qarashlar majmuini anglatadi.

Diniy aqidaparastlik esa — siyosiy maqsadlar yo'lida mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, ya'ni mazkur din paydo bo'lgan paytdagi arkonlar asosida hal etmoq niyatidagi harakat va qarashlardan iborat.

Islom aqidaparastlarining asosiy g'oyasi — «sof islom» qat'iyatlariga (prinsiplariga) qaytish, maqsadi esa — islomiy davlat va taraqqiyot yo'lini joriy etishdan iborat.

Vahobiylar hukumatni qo'lga olishda ochiq kurash, ekstremistik, terror yo'lini tutsalar, «xizbutchilar» g'oyaviy, mafkuraviy kurash uslubini qo'llaydilar, ular yoshlar tarbiyasidagi ma'naviy bo'shliqdan foydalanib, ularning ongni zaharlashga urinadilar.

Diniy oqimlarning nomlari turlicha bo'lsa-da, aslida ularning maqsadlari va g'oyalari bitta — dinni niqob qilib, hokimiyatga intilish, tinch-osoyshta xalq orasida nifoq va ixtilof chiqarish. Eng achinarlisi shundaki, bu oqimlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, ulardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida jumladan shunday deydi:

«Bizda din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashishi uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki, bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz».

4-§ bo'yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash yuzasidan topshiriqlar.



Konstitutsiyaning quyida keltirilgan moddasida qanday milliy qadriyatlar singdirilgan?

24-modda:

Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.



A. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida inson hayotiga qarshi jinoyatlardan qasddan odam o'ldirganlik uchun qanday jazo choralari belgilangan?

B. Inson hayoti va sog'ligi uchun xavfli bo'lgan jinoyat turlarini sanab bering.



Quyida keltirilgan huquq va erkinliklar orasidan O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan shaxsiy huquq va erkinliklarni aniqlang, ularni davom ettiring va quyidagi jadvalga joylashtiring:

- erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi;
- xususiy mulkka ega bo'lish huquqi;
- fikr va so'z erkinligi huquqi;
- turar joy daxlsizligi huquqi;
- sog'likni saqlash huquqi;
- dam olish huquqi;
- vijdon erkinligi huquqi;
- bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurish huquqi;
- mehnat qilish huquqi;
- saylash va saylanish huquqi;
- shaxsning aybi aniqlanmaguncha uning aybdor hisoblanmaslik huquqi.

	<i>Shaxsiy huquqlar</i>	<i>Boshqa turdagi huquqlar</i>
1		
2		
3		
4		
..		
..		

Qiyosiy tahlil qiling!



1948-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan «Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi»ning 11-moddasi bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi o'rtasida qanday farq va umumiy o'xshashlik bor?

11-modda:

Jinoyat sodir etishda ayblanayotgan har bir inson unga himoya uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilib, sud majlisida oshkora tartibda qonuniy yo'l bilan uning aybdorligi aniqlanmaguncha, beayb deb hisoblanish huquqiga egadir.

26-modda:
(1-bandi)

Jinoyat sodir etishda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi.

Huquqiy manbalar asosida matn tayyorlang



Fikr yuritish, uni ifodalash erkinligi hamda axborot olish va uni tarqatish huquqi qaysi hollarda taqiqlanadi?

**BU TUSHUNCHALARNI
XOTIRADA SAQLANG!**

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

Mamlakatimizda diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lib, ular qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi.

5-§. SIYOSIY HUQUQLAR

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining sakkinchi bobi siyosiy huquqlarga bag'ishlangan bo'lib, bu huquqlarni kafolatlaydi. Bu huquqlar quyidagilardan iborat: jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqi (32-modda); ijtimoiy faollikni mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqi (33-modda); kasaba uyushmalariga uyushish; ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi (33-modda); bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi (35-modda).

Siyosiy huquqlar — bu odatda, faqat shu davlat fuqarolarining huquqlaridir. Ular davlat hayotida, davlat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqlarini beradi va tabiiyki, bunday huquqlarga mamlakat hududida yashayotgan yoki hozir bo'lgan barcha odamlar da'vo qilishi mumkin emas. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tegishli moddalarida belgilangan qoidalardan kelib chiqadi.

Deylik, «shaxsiy huquq va erkinliklar»ga doir VII-bobdagi 24-moddada **«yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir»**, — deb aytiladi. 26, 27, 29-moddalar ham **«har bir shaxs»**, **«har kim»** uchun shaxsiy daxlsizlik, adolatli sudlov, fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqlarini kafolatlaydi, 31-modda ham vijdon erkinligini **«hamma uchun»** ta'minlaydi. Bularning hammasi shundan dalolat beradiki, shaxsiy huquqlar mamlakatda yashovchi hamma insonlarga tegishlidir.

Ulardan farqli o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «siyosiy huquqlar»ga bag'ishlangan VIII bobidagi 32, 33 va 34-moddalar O'zbekiston Respublikasi fuqarolarigagina tegishlidir. **«Jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish»**, **«o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish»**, **«kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish»** huquqlari faqat

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarigagina taalluqli bo'ladi. Siyosiy huquqlarning o'ziga xosligi ham shundadir.

Bunday holat xalqaro huquqiy andozalarga ham mos keladi. Masalan, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar haqidagi xalqaro Paktning 9-moddasida: «**Har bir inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir**», — deyiladi, 10-moddada: «**ozodlikdan mahrum qilingan barcha shaxslar insoniy munosabat va qadr-qimmatini e'zozlash huquqiga ega**», — deyiladi, 14-moddada: «**barcha shaxslar sudlar va tribunal-lar oldida tengdir**», — deyiladi, 19-modda o'z fikrini daxlsiz e'tirof etishni «**har bir inson**» uchun kafolatlaydi. Bu moddalardan farqli ravishda 25-moddada: «**har bir fuqaro hech bir kamsitishsiz: a) davlat ishlarini yuritishda qat-nashish..; b) saylash va saylanish..; v) o'z mamlakatida umumiy tenglik asosida davlat xizmatiga kirish... huquqi va imkoniga ega bo'lishi shart**», — deyilgan. Ko'rinib turibdiki, xalqaro huquq ham siyosiy huquqlarni hammaga, har kimga emas, fuqarolargagina beradi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov aytganiday: «**odil va oqil hokimiyat xalq kayfiyatini, uning irodasini albatta hisobga oladi**». Shu joyda AQSh Prezidenti Avraam Linkolnning so'zlarini keltirish o'rinli; «**Hech bir inson boshqalarni ularning roziligisiz boshqaradigan darajada komil emas**». Xalqni uning roziligi bilan boshqarish, xususan, erkin saylovlarni bildiradi. O'zbekiston Prezidentining muqobillik asosida umumiy yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanishi ham respublikada demokratiya o'rnatilishining bir isboti bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi — muhim siyosiy huquqlardan biri hisoblanadi. Chunki bu jamoat birlashmalari va ommaviy harakatlarning asosiy maqsadi fuqarolarning siyosiy sohadagi huquqlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 2 mingdan ziyod nomdagi jamoat birlashmalari mavjud bo'lib, fuqarolarning turli xil sohadagi huquq va erkinliklarini amalga oshirish imkonini yaratmoqda.

Jamoat birlashmalari tizimida siyosiy partiyalar muhim

5-§. SIYOSIY HUQUQLAR

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining sakkinchi bobi siyosiy huquqlarga bag'ishlangan bo'lib, bu huquqlarni kafolatlaydi. Bu huquqlar quyidagilardan iborat: jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqi (32-modda); ijtimoiy faollikni mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqi (33-modda); kasaba uyushmalariga uyushish; ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi (33-modda); bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi (35-modda).

Siyosiy huquqlar — bu odatda, faqat shu davlat fuqarolarining huquqlaridir. Ular davlat hayotida, davlat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqlarini beradi va tabiiyki, bunday huquqlarga mamlakat hududida yashayotgan yoki hozir bo'lgan barcha odamlar da'vo qilishi mumkin emas. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tegishli moddalarida belgilangan qoidalardan kelib chiqadi.

Deylik, «shaxsiy huquq va erkinliklar»ga doir VII-bobdagi 24-moddada **«yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir»**, — deb aytiladi. 26, 27, 29-moddalar ham **«har bir shaxs»**, **«har kim»** uchun shaxsiy daxlsizlik, adolatli sudlov, fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqlarini kafolatlaydi, 31-modda ham vijdon erkinligini **«hamma uchun»** ta'minlaydi. Bularning hammasi shundan dalolat beradiki, shaxsiy huquqlar mamlakatda yashovchi hamma insonlarga tegishlidir.

Ulardan farqli o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «siyosiy huquqlar»ga bag'ishlangan VIII bobidagi 32, 33 va 34-moddalar O'zbekiston Respublikasi fuqarolarigagina tegishlidir. **«Jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish»**, **«o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish»**, **«kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish»** huquqlari faqat

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarigagina taalluqli bo'ladi. Siyosiy huquqlarning o'ziga xosligi ham shundadir.

Bunday holat xalqaro huquqiy andozalarga ham mos keladi. Masalan, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar haqidagi xalqaro Paktning 9-moddasida: «**Har bir inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir**», — deyiladi, 10-moddada: «**ozodlikdan mahrum qilingan barcha shaxslar insoniy munosabat va qadr-qimmatini e'zozlash huquqiga ega**», — deyiladi, 14-moddada: «**barcha shaxslar sudlar va tribunal-lar oldida tengdir**», — deyiladi, 19-modda o'z fikrini daxlsiz e'tirof etishni «**har bir inson**» uchun kafolatlaydi. Bu moddalardan farqli ravishda 25-moddada: «**har bir fuqaro hech bir kamsitishsiz: a) davlat ishlarini yuritishda qat-nashish..; b) saylash va saylanish..; v) o'z mamlakatida umumiy tenglik asosida davlat xizmatiga kirish... huquqi va imkoniga ega bo'lishi shart**», — deyilgan. Ko'rinib turibdiki, xalqaro huquq ham siyosiy huquqlarni hammaga, har kimga emas, fuqarolargagina beradi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov aytganiday: «**odil va oqil hokimiyat xalq kayfiyatini, uning irodasini albatta hisobga oladi**». Shu joyda AQSh Prezidenti Avraam Linkolnning so'zlarini keltirish o'rinli; «**Hech bir inson boshqalarni ularning roziligisiz boshqaradigan darajada komil emas**». Xalqni uning roziligi bilan boshqarish, xususan, erkin saylovlarni bildiradi. O'zbekiston Prezidentining muqobillik asosida umumiy yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanishi ham respublikada demokratiya o'rnatilishining bir isboti bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi — muhim siyosiy huquqlardan biri hisoblanadi. Chunki bu jamoat birlashmalari va ommaviy harakatlarning asosiy maqsadi fuqarolarning siyosiy sohadagi huquqlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 2 mingdan ziyod nomdagi jamoat birlashmalari mavjud bo'lib, fuqarolarning turli xil sohadagi huquq va erkinliklarini amalga oshirish imkonini yaratmoqda.

Jamoat birlashmalari tizimida siyosiy partiyalar muhim

o‘rin tutadi. Chunki siyosiy partiyalarda jamiyatimizning eng ilg‘or, siyosiy barkamol fuqarolari birlashib, davlat va jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanish yo‘nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda faol qatnashadi. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari borishimizga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 4 ta siyosiy partiya, 2 ta ijtimoiy harakat mavjud. Jumladan, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi (XDP) 1991-yil 1-noyabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan ta‘sis qurultoyida tuzilgan. Bu partiya mamlakatda adolatli jamiyat qurish, uning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, O‘zbekiston xalqlari o‘rtasida tinchlik, osoyishtalik, fuqarolar totuvligini ta‘minlash, har bir mehnatkashning moddiy va ma‘naviy turmushini yaxshilash, fuqarolarning teng konstitutsiyaviy haq-huquqlarini himoya qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. XDPning «O‘zbekiston ovozi», «Golos O‘zbekistana» gazetalari va «Muloqot» jurnali mavjud.

Istiqlol yillarida siyosiy kuch sifatida shakllangan partiyalardan yana biri «Vatan taraqqiyoti» partiyasi (VTP)dir. U 1992-yil 24-mayda Toshkentda bo‘lib o‘tgan ta‘sis qurultoyida tuzildi.

Partiyalardan biri O‘zbekiston «Adolat» sotsial demokratik partiyasidir. U 1995-yil 18-fevralda Toshkentda bo‘lib o‘tgan I ta‘sis Qurultoyida tuzildi. Partiyaning asosiy maqsadi mustaqil O‘zbekiston Respublikasida barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yetuk, demokratiya tamoyillariga asoslangan adolatli, fuqarolik jamiyat qurishda faol ishtirok etishdir.

O‘zbekistonda shakllanayotgan partiyalardan biri - O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasidir (MTDP). U 1995-yil-3 iyuda Toshkentda bo‘lib o‘tgan ta‘sis Qurultoyida tashkil etildi. Partiya o‘z oldiga milliy yakkilikni ta‘minlash, huquqiy davlatni barpo etish va O‘zbekistonni jahonning yetakchi davlatlari safiga olib kirish uchun xalqni safarbar qilish, fuqarolarda Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish, bozor munosabatlariga asoslangan yangi jamiyat qurish, milliy meros va an‘analarni ro‘yobga chiqarish, millatning ilmiy, texnikaviy

salohiyatini yuksaltirishni maqsad qilib qo'yadi. O'zbekiston MTDPsining «Milliy tiklanish» haftalik gazetasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan partiyalardan biri «Fidokor» milliy demokratik partiyasidir. Mazkur partiya 1998-yil 28-dekabrda bo'lib o'tgan I-ta'sis Qurultoyda tuzildi. Partiya ko'p ukladli iqtisodiyotga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan fuqarolik jamiyatini qurish jarayoniga hamda unga xizmat qiladigan demokratik-huquqiy davlatni barpo etish ishiga amaliy hissa qo'shishni muhim vazifa deb biladi.

2000-yil 9-yanvar kuni bo'lib o'tgan saylovlarda Islom Abdug'anievich Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodi ham aynan «Fidokor» milliy demokratik partiyasidan ko'rsatildi. Muqobilik asosida o'tkazilgan mazkur saylovda Fidokorlar partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi muhim tarixiy voqea bo'ldi.

2000-yil 14-aprelda «Vatan taraqqiyoti partiyasi» va Fidokorlar milliy-demokratik partiyasining qo'shma Qurultoyi bo'ldi. Unda har ikki partiya harakati, faoliyat dasturi yakdilligi muhokama qilindi va ular birlashib Vatan taraqqiyoti yo'lida xizmat qilishga qaror qilindi.

Mamlakatda «Xalq birligi» harakati 1995-yil iyundan boshlab faoliyat ko'rsatmoqda. Harakatning maqsadi ko'p millatli mamlakatda xalqlar birligini yanada mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan barcha fuqarolarning huquq va kafolatlarini to'la amalga oshirish va fuqarolarda vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston «Xalq birligi» harakatining «Birlik» va «Yedinstvo» haftalik gazetaları mavjud.

Istiqlol tufayli O'zbekistonda turli jamoat tashkilotlari uchun ham keng imkoniyat yaratildi. Jumladan, shu kunlarda O'zbekiston kasaba uyushmalari turli kasb egalari bo'lgan mehnatkashlarni jinsi, diniy e'tiqodlari, irqiy va milliy mansubliklaridan qat'iy nazar ixtiyoriy birlashtiruvchi mustaqil ommaviy jamoat tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. Kasaba uyushmasining tashkiliy tuzilishi va faoliyati mazmuni o'zgardi. Uning asosini jahon kasaba uyushmalari amaliyoti andozalariga mos keladigan federalizm, demok-

ratiya, mustaqillik va ixtiyoriylik tamoyillari tashkil eta boshladi. Kasaba uyushmalarining har bir a'zosi saylash va saylanish, yig'ilishlar, matbuot va boshqa vositalar orqali kasaba uyushmalari hamda ma'muriy organlar faoliyatiga taalluqli masalalarni qo'yishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi ayollarni, ko'p bolali onalarni har tomonlama muhofaza qilishni yanada kuchaytirish, mehnatkash va ijodkor ayollarni bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishda faol qatnashishga keng safarbar etish, ilm-fan sohasidagi ayollarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish yo'lida faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'mita jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, ularning manfaatlarini himoya qilish, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish va shu kabi vazifalarni bajarmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashkil etildi. Mazkur harakat o'z dasturi va Nizomiga ega. «Harakatning asosiy vazifasi, - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz, — yoshlarni birlashtirish, sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rin egallashiga ko'maklashishdan, ularning manfaatlarini har tomonlama himoya qilishdan iborat bo'lishi darkor»¹.

Darhaqiqat, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati yoshlar harakatining muhim jihatlariga e'tibor berishi kerak:

Birinchidan, bu harakat hayotda uchrab turishi tabiiy bo'lgan turli to'siqlar, muammo va qiyinchiliklar tufayli yoshlar kayfiyatining, yoshlar dunyoqarashining salbiy tomonga o'zgarishiga, ularning tushkunlikka berilishiga, noma'qul yo'llarga kirib ketishiga yo'l qo'ymaydigan, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan o'smirlar huquq, erkinliklarini himoya qiladigan tashkilot bo'lishi kerak;

ikkinchidan, yoshlarni orzu-umidlariga erishish, ezgu maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan siyosiy-huquqiy ijtimoiy harakatga aylanishi kerak;

uchinchidan, tabiatan yetakchi bo'lib tug'ilgan yoshlarni kuchi, salohiyati, qobiliyatlarini kamol toptirib, ular o'z eli, yurti, Vatani uchun faol arboblar, rahbarlar bo'lib tanilishiga imkon yaratish zarur;

¹ K a r i m o v I. A. «Kamolot» yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin. «Xalq so'zi» gazetasi, 2001-yil 25-yanvar.

to'rtinchidan, yoshlarga hayotda o'z o'rnini topishga, mustaqil fikrlashga, kasb-hunarga yo'naltirishga yordam berishi kerak;

beshinchidan, bu tashkilot yoshlarni ichki va tashqi yot mafkuraviy tajovuzlardan muhofaza qilishga, ishsizlik muammolarini hal qilish, yoshlarni xorijga, ishga yuborish imkoniyatlariga ham ega bo'lishi kerak;

oltinchidan, bu harakat yoshlarni oila qurishdagi qiyinchiliklariga barham berishda yordam bera oladigan tashkilot bo'lishi kerak;

ettinchidan, harakat yosh mutaxassislarni xizmat pog'onalaridan ko'tarilishiga, o'sishiga imkon yaratadigan hayot maktabiga aylanishi kerak;

sakkizinchidan, bu harakat milliy istiqlol mafkurasi g'oyalari yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirishi, uni eng oliy, eng ustuvor maqsadga aylantirishga xizmat qilishi kerak.

Mazkur harakat «davlat va yoshlar o'rtasida bamisoli bir ko'prik bo'lishi, davlatimizning yoshlar siyosatini ularga, yoshlarimizning o'y-tashvishlarini, orzu-intilishlari va muammolarini esa davlat tashkilotlariga yetkazib turishi, ularning haqiqiy himoyachisi bo'lishi zarur».¹

5-§ bo'yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash yuzasidan topshiriqlar.

?



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasini o'qing. Ushbu Konstitutsiyaviy qoidada qo'llanilgan «bevosita ishtirok etish» hamda «o'z vakillari orqali ishtirok etish» huquqi kabi tushunchalarning farqlarini izohlab bering.

Xalqaro huquqiy hujjatlar bilan tanishing!



«Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi» hamda «Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi Xalqaro Paktning siyosiy huquqlarga bag'ishlangan moddalari mazmuni bilan tanishib chiqing.

¹ K a r i m o v I. A. «Kamolot» yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin. «Xalq so'zi» gazetasi, 2001-yil 25-yanvar.

- 20-modda:**
1. Har bir inson osoyishta yig'ilishlar va uyushmalar o'tkazish (tuzish) huquqiga egadir.
 2. Hech kim biror bir uyushmaga majburan kiritilishi mumkin emas.

(Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi)

- 21-modda:**
1. Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasi orqali o'z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega.
 2. Har bir inson o'z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega.
 3. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi lozim; bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqida, yashirin ovoz berish yo'li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o'tkaziladigan saylovlarda o'z aksini topishi lozim.

(Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi)

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Paktdan:

- 21-modda:**
- Tinch yig'inlarga huquqlar tan olinadi. Bu huquqlar foydalanishga hech bir cheklash qo'yilmaydi. Qonunga muvofiq qo'yilgan va demokratik jamiyatda davlat va jamiyat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholi salomatligi va axloqi yoki boshqa shaxslar huquqlari va erkinligi manfaatlar uchun zarur bo'lgan cheklanishlar bundan mustasno.

(1966-yil 19-dekabr)

- 22-modda:**
- Har bir inson boshqalarni assotsiatsiyalar tuzish, jumladan kasaba uyushmalar tashkil etish erkinligi va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun shunday uyushmalarga kirish huquqiga ega.

Huquqiy adabiyotlar asosida javob bering:



A. Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasida saylov to'g'risida qanday qonunlar qabul qilingan?

B. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va saylov to'g'risidagi qonunlarga binoan fuqaroga necha yoshdan saylash huquqi beriladi?

C. Kimlar saylovda qatnasha olmaydilar?

D. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga va vakillik organlariga bo'ladigan saylovlar qanday prinsiplarga tayanadi?

Mustaqil bajarish uchun vazifa:



1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida siyosiy huquqlar buzilishiga doir qoidalar belgilanganmi? Agar belgilangan bo'lsa, ularga nisbatan qanday jazo choralari qo'llanilishi ko'zda tutilgan?

Fikringizni tegishli qonunlar va hayotiy misollar asosida tushuntiring.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining quyidagi moddasiga izoh bering.

35-modda:

Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif, shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart.

Siyosiy bilimingizni sinab ko'ring



A. O'zbekistonda qanday ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar mavjud?

B. Siyosiy partiyalarning oliy organlari haqida nimalarni bilasiz?

C. Mamlakatimizda qanday jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatmoqda? Mazkur jamoat birlashmalari tizimini jadval tuzib, unga joylashtiring.

D. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining muhim jihatlarini aytib bering.

Xulosa.

Fuqarolarning siyosiy huquqlardan foydalanishidagi erkinligi jamiyatdagi amaldagi qonunlar doirasida bo'lishi, Konstitutsiya me'yorlaridan chiqib ketmasligiga asoslanadi.

Fuqarolar siyosiy huquqlardan foydalanish asosida o'zlarining ongillik darajasini oshirib boradilar.

Siyosiy huquqlar orqali fuqarolarning jamiyat siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlaridagi faolligi kuchayib boradi.

Fuqarolar mamlakatning ichki va tashqi siyosatidan tobora ko'proq xabardor bo'lib boradilar.

6-§. IQTISODIY VA IJTIMOY HUQUQLAR

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tizimi

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar fuqarolarning normal turmush kechirishini ta'minlovchi, yashash uchun ma'lum darajada o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondiruvchi huquqlardir.

Fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bob, 36—42-moddalarida ko'rsatilgan bo'lib, ular:

- shaxslarning mulkdor bo'lish huquqi;
- mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqi;
- adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, ishsizlikdan himoyalaniş huquqi;
- dam olish huquqi;
- qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda iqtisodiy ta'minot olish huquqi;
- malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi;
- bilim olish huquqi;
- ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlaridan iborat.

Davlatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar, bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlikka keng yo'l ochish, mulkchilikning turli xil shakllarini muhofaza qilish natijasida davlatimiz bu huquqlarning amalga oshirishini tobora kengroq kafolatlab bormoqda.

Mulkdor bo'lish huquqi — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasiga ko'ra: Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi. Mulkdor bo'lish huquqi, mulk bilan bog'liq shaxsiy va tadbirkorlikka oid bo'lgan munosabatlarning barchasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining birinchi qismi 1995-yil 11-dekabrda va 1996-yil 29-avgustda ushbu Kodeksning ikkinchi qismi tasdiqlandi va 1997-yilning 1-mart kundan boshlab kuchga kirdi.

Mulk huquqi — shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zi-

ning mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzilishini bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir.

Fuqarolik Kodeksida — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga amal qilgan holda, mulkning o'tmishda sobiq ittifoq davrida mulkchilikka bo'lgan davlat monopoliyasiga barham berildi.

FKning 167-moddasiga binoan mulk shakllari xususiy mulk va ommaviy mulkka bo'linadi. Sobiq ittifoq davridagi qonunlarda fuqarolar faqat shaxsiy mulklar - uy-ro'zg'or buyumlari, shaxsiy iste'mol mollari, yordamchi xo'jalik asbob-uskunalari, turar joy, mehnat jamg'armasi bo'lishi mumkin edi. Ishbilarmonlik bilan shug'ullanishga va xususiy mulk egasi bo'lishga yo'l qo'yilmas edi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi Qonuni fuqarolarning xususiy mulkka ega bo'lish huquqini mustahkamlaydi.

Konstitutsiyaning VII bobi «Jamiyatning iqtisodiy negizlari» deb nomlanib, unda bozor iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi hamda mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi deb belgilangan. Lekin asosiy Qonunimizga binoan, mulkdor o'z mulkidan foydalanishda ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasiga binoan har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga egaligi, dam olish huquqi (38-modda), ijtimoiy ta'minot olish (39-modda), malakali tibbiy xizmatdan foydalanish (40-modda) huquqlari belgilangan va kafolatlangan.

Inson va fuqarolarning bu huquqlari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'tiladigan «Davlat va huquq asoslari» fanining huquq sohalarida keng va atroflicha o'rganiladi

Bilim olish huquqi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida, «Har kim bilim olish huquqiga

ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir» deb belgilab qo'yilgan.

Bilim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan hisoblanib, ushbu huquqni aniq va to'liq amalda bajari-lishiga 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonunlari huquqiy kafolat bo'lib xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyadagi bilim olish huquqining muhim qoidalarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida»gi farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvar 4-sonli «Uzluksiz ta'lim tizimini darsliklar va o'quv adabiyotlar bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori, 1998-yil 5-yanvar 5-sonli «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi Qarori alohida ahamiyat kasb etadi.

«O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlari»

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktyabrdagi 400-sonli Qarori bilan «O'rta maxsus,

kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari» tasdiqlandi va bugungi kunda ta'lim muassasalarida qo'llanilmoqda.

Davlat ta'lim standartlari ta'limga davlat tomonidan qo'yiladigan talablarni bildiradi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat standartlari — akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha majburiy o'quv yuklamasi hajmini, bitiruvchilar saviyasiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

O'MKHT standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- O'MKHTning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohot-

larni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;
- O'MKHTning demokratlashuvi, insonparvarligi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlar darajasini, shuningdek ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;
- sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini, baholash mezonlarining tartibini belgilash;
- O'MKHT jarayonini va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash va shu kabilardan iborat.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

- O'MKHT sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- O'MKHT va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasini vaqti-vaqti bilan baholash va nazorat qilish talablarini belgilovchi me'yoriy negizini yaratish;
- xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- O'MKHT o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

O'MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy talablar:

- fundamental fanlar va aniq fanlar bo'yicha bilimlar, kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish;
- kasbiy mohirlik va tafakkur doirasining shakllanganligi;
- tashkilotchilik va tadbirkorlik xislatlarining shakllangan bo'lishi;
- davlatning tuzilishi, uning ijtimoiy va siyosiy rivojlanishi haqida aniq bilimlarga ega bo'lish, xalqaro voqea, hodisa va muammolarni tushuna olish;
- mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrlarini yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalari shakllangan bo'lishi;
- turli vaziyatlarni tanqidiy baholash, yangiliklarga doimo intilish;
- o'zbek tilini mukammal bilish, davlat tilida yozma va og'zaki ravishda erkin muloqotda bo'lish;
- umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish;
- kompyuterlar va boshqa telekommunikatsiya vositalaridan foydalana olish;
- rus tilini yaxshi o'zlashtirgan holda boshqa chet tilini mukammal bilish;
- o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga boshlang'ich kasbiy ko'nikmalarni kundalik hayotga, turmushga tadbiq eta olish;
- jismoniy baquvvat, sog'lom bo'lish, harbiy xizmatga va tezkor tibbiy yordam ko'rsatishga layoqatli bo'lish;
- ma'naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan o'zini-o'zi doimo takomillashtirish xislatlariga ega bo'lish;
- bilimlarni doimo oshirib, yangilab borishga intilish, o'quv va mehnat faoliyatiga ijodiy, mustaqil yondashish sifatlariga ega bo'lish;
- huquqiy bilimlar asoslariga ega bo'lish;
- iqtisodiy bilimlar asoslariga ega bo'lish;
- zamonaviy axborot vositalari bilan ishlashning amaliy ko'nikmalarini mustahkam egallash;
- ma'naviy-axloqiy madaniyatga ega bo'lish;

- siyosiy madaniyatga egalik, fuqarolik burch va mas'uliyat xislari shakllangan bo'lishi;
- ekologik madaniyatga egalik — kasbiy faoliyatda mas'uliyatni his qilish, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega bo'lish;
- o'quv fanlari bo'yicha oliy ta'lim muassasasida tahsil olish uchun zarur bo'lgan bilimlar majmuiga ega bo'lish.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini bitiruvchilariga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi, unda:

- akademik litseylar uchun — fanlar bo'yicha o'qitilgan soha;
- kasb-hunar kollejlari uchun — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi (O'MKHTTYKIUT)ga muvofiq kasblar va ixtisosliklar bo'yicha berilgan malaka ko'rsatiladi.

Diplomlarga o'zlashtirilgan umumta'lim va maxsus (kasb-hunar) fanlar (kurslar), soatlar hajmi va ular bo'yicha baholar (reytinglar), shuningdek, bitiruvchining umumiy reytingi va yakuniy davlat attestatsiyasining natijalari ko'rsatilgan qo'shimcha varaqa ilova qilinadi. Akademik litseyi tugatganlik to'g'risidagi diplom oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish hamda olingan bilimlarni mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarish huquqini beradi.

Kasb-hunar kollejini tugatganlik to'g'risidagi diplom olingan mutaxassislikka muvofiq mehnat faoliyatini amalga oshirish hamda oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish huquqini beradi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar, ularning ilm olishini qo'llab quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi jamoat tashkilotlari

Iqtidor so'zining lug'aviy ma'nosi, kuch-qudrat, qodirlik degan ma'nolarni anglatadi. Iste'dod so'zi ham arab tilidan olingan bo'lib, ijodiy qobiliyat, layoqat, talant demakdir.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar deyilganda — qobiliyatli, layoqatli, talantli hamda kuch-qudratli, mahoratli tashkilotchi o'quvchi yoshlar tushuniladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadla-

ridan biri ham iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, dasturda alohida «4.5-bandi Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar» deb ataladi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va o'qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunda bolalar va yoshlarga oid ma'lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi. Maxsus o'quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqarish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi. O'quv tarbiya jarayonida ularning faol ishtiroki ta'minlanadi. Fan va texnikani, siyosat va iqtisodiyotni, madaniyat va san'atni o'rgatish markazlari qabilidagi hamda milliy (elita) ta'lim muasasalari tashkil etiladi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy va kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobitqadam faoliyat amalga oshiriladi. Akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda iqtidorli bolalarni hamda iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi bir necha jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Ulug'bek» jamg'armasi, «Umid» jamg'armasi hamda UNESCO, SOROS kabi xalqaro jamg'armalarni olishimiz mumkin.

«Umid» jamg'armasi Prezidentimiz tashabbusi bilan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 13-yanvar qaroriga muvofiq tashkil qilingan.

Mamlakatimizda tarixiy tub o'zgarishlarni muvaffaqiyatli o'tkazish, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun jahon andozalari darajasida bilim olgan iste'dodli, ruhan barkamol yosh milliy kadrlar zarur. Ular Vatan baxt-saodati yo'lida, uning qudratini mustahkamlash borasida fidokorona mehnat qiladilar, mustaqillik g'oyalariga sadoqatli bo'ladilar. «Umid» jamg'armasi o'z oldiga ana shunday iqtidorli va iste'dodli, o'z

Vataniga shon-shuhrat keltira oladigan yosh yigit-qizlarni aniqlash, jahonning yetakchi mamlakatlaridagi obro‘li oliy o‘quv yurtlarida ularning bilim olishini tashkil etish, xalq xo‘jaligining nufuzli tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash kabi vazifalarni asosiy maqsad qilib qo‘yadi.

«Umid» jamg‘armasiga ariza bergan har bir yosh yigit va qiz maxsus tanlov bosqichlarida ko‘rik imtihonlaridan o‘tadi. Mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarining II—III kurs talabalari ta‘limning bakalavr bosqichi bo‘yicha tanlov saralashlarida, bitirayotgan kurslarning talabalari, oliy ma‘lumotli yosh xodimlar magistrlik bosqichi tanlovlarida qatnashishlari mumkin. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, ta‘lim masalalari bilan shug‘ullanuvchi chet el tashkilotlari xorijiy tillar bo‘yicha tanlov da‘vogarlarining bilimlarini test yo‘li bilan sinovdan o‘tkazadilar. Bu ishga ta‘lim va til o‘rganish bo‘yicha AKSELS (AQSh), Britaniya kengashi (Buyuk Britaniya), Akademiya almashuvning nemis xizmati (Germaniya) singari xalqaro tashkilotlar, shuningdek mamlakatimizdagi Fransiya, Italiya va Yaponiya elchixonalarining vakillari ham jalb qilingan. Bundan tashqari da‘vogarlar kompyuter testlarida tanlagan mutaxassisliklari bo‘yicha suhbatdan o‘tkaziladi. Shuningdek, ularning O‘zbekiston iqtisodiyoti va siyosiy mustaqilligini mustahkamlashga dahldor bo‘lgan dunyoqarashlari, ma‘naviyat va tarix bo‘yicha bilimlari ham tekshirib ko‘riladi. Barcha sinovlardan muvafaqqiyatli o‘tgan yoshlarga xorijiy o‘quv yurtlarida bilim olishi uchun *Prezident granti* topshiriladi.

Bugun tanlovning 200 nafar g‘oliblarining 75%i respublikamizning turli chekkalaridan, o‘lis qishloqlaridan kelgan yoshlar bo‘lib (1998-yilda), AQSh oliy o‘quv yurtlariga 99 nafar, Buyuk Britaniyaga 35 nafar, Germaniyaga 9 nafar, Fransiya 5 nafar va Yaponiyaga 9 nafar talaba o‘qishga yuborildi. Hozirgi vaqtda o‘zbekistonlik talabalar o‘z tanlagan mutaxassisliklari bo‘yicha AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiyaning jahonga mashhur oliy o‘quv yurtlarida muvafaqqiyat bilan shug‘ullanmoqda.

Demak, «Umid» jamg‘armasining hamda boshqa yoshlarni qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotlarning faoliyati xalqimizning ayniqsa iqtidorli va iste‘dodli yoshlarimizning

ilmiy-intellektual (aqliy) imkoniyatlarini mustahkamlashga, ularning xalqaro obro‘-e‘tiborini ko‘tarishga qaratilgandir.

Umid qilamizki, ta‘lim islohotlari natijasida yangidan tashkil etilgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilari yuqoridagi ko‘riktanlovlarda faol ishtirok etib O‘zbek ta‘limini rivoj-lantirishda, Vatanimiz buyukligini jahonga yoyishda o‘z iqtidor va iste‘dodlarini namoyish etadilar.

6-§ bo‘yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash yuzasidan topshiriqlar.

Munosabat bildiring



Mehnat huquqi qanday ma‘nolarda ishlatiladi?

Diqqat qiling!

1. Ma‘lum munosabatlarni (mehnat munosabatlarini) tartibga solib turuvchi huquqiy me‘yorlar yig‘indisi bo‘lib, huquqning alohida bir tarmog‘i hisoblanadi.
2. Shaxsning mehnat qilish huquqini bildiradi. Unga asosan har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqiga ega bo‘ladi.

Shaxsiy fikringiz!

Ushbu jadvalni to‘ldiring:

Moddalar	Iqtisodiy huquqlaringiz	Moddalar	Ijtimoiy huquqlaringiz
.....			
.....			

?



- A. O‘zbekiston Respublikasida ta‘limning qanday turlari joriy qilingan?
 B. O‘MKHT muassasalari bitiruvchilariga qanday umumiy talablar qo‘yiladi?

Erkin fikr yuriting!

O'zbekiston bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tayotgan hozirgi sharoitda mehnat qilish, ijtimoiy ta'minot olish, bilim olish huquqlarining qanday ahamiyati bor deb o'ylaysiz?

Mustaqil bajarish uchun vazifa:

Fuqarolar qariganlarida, mehnat layoqatini yo'qotganlarida, boquvchisidan mahrum bo'lganlarida ijtimoiy ta'minotning qanday turlarini olishga haqli bo'ladilar?

Javobingizni tegishli joriy qonunlardan foydalangan holda hayotiy misollar yordamida yozma shaklda bayon qiling.

Xotirada saqlang!

- O'zbekistonning demokratik huquqiy davlat qurish yo'liga o'tishi ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga yangicha yondoshish, eski andozalardan voz kechish, hamda jahon tajribasini hisobga olishni talab qilmoqda.
- Ko'pchilik ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar: mulkka egalik huquqi; ish-sizlikdan himoyalash huquqi; mehnatning oqilona shart-sharoitlariga ega bo'lish huquqi; madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi va boshqalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlandi.
- Bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda mulkchilik munosabatlarini shakllantirishni taqozo qiladi.
- Mulq egasi fuqarolarning qonunda belgilangan boshqa huquqlarini buzmasligi lozim.
- Biror kishining xohishiga qarshi holda u mehnatga jalb qilinishi mumkin emas va bu holat aybdor shaxsning qonun oldida javobgarlikka tortilishiga asos bo'lishi mumkin.
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan majburiy mehnatning taqiqlanishi siyosiy va fuqarolik huquqlari hamda xalqaro bitim talablariga, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT)ning 1930-yildagi 29-sonli, 1957-yildagi 105-sonli, «Majburiy mehnatni bekor qilish to'g'risida»gi Qarorlariga mos keladi.

III b o b. O‘zbekiston fuqarolarining asosiy burchlari

7-§. FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY BURCHLARI

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi alohida bobining 47—52-moddalarida fuqarolarning burchlariga oid konstitutsiyaviy qoidalar berilgan.

Fuqarolarning burchi deganda qonun hujjatlarida belgilangan fuqarolar bajarishi shart bo‘lgan talablar tushuniladi. Burchlarni o‘z ahamiyatiga ko‘ra *konstitutsiyaviy burchlarga, joriy qonun hujjatlarida belgilangan burchlarga* ajratish mumkin.

O‘zbekiston fuqarolarining „Konstitutsiyada belgilangan burchlariga:

- Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish;
- boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish;
- O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash;
- madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish;
- atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;
- qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lash;
- O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish;
- qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tash kabilar kiradi.

Har bir fuqaro o‘z burchlarini halol va vijdonan bajarsa, yurtimiz tinch, osoyishta, xavfsiz, farovon bo‘lishiga zamin yaratiladi.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida bajarilishi shart bo‘lgan talablar aniq

ko‘rsatilgan. Ushbu talablarning o‘z vaqtida, halol va vijdonan bajarilishi Vatan tinchligi, millatlar totuvligi, xavfsizligi, osoyishtaligi, taraqqiyoti uchun g‘oyat zarurdir. Mana shu burchlarning bajarilishi O‘zbekistonda qonuniylik va huquqiy tartiblarni ta’minlash imkonini beradi.

O'zbekiston hududida yashayotgan har bir fuqaro tomonidan Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan burchlarning bajarilishi Vatanimizning istiqbolini belgilab beradi. *«Demokratik jamiyat qurish uchun, demokratik tamoyillarni to'la qaror toptirish uchun, eng avvalo mo'tabar zaminda tavallud va tarbiya topgan shaxs, o'zini aynan shu yurt farzandi deb biluvchi inson o'z davlati, o'z xalqi oldidagi, uni katta umidlar bilan tarbiya qilgan, voyaga yetkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etishi kerak... Har qaysi fuqaro, har birimiz: «Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?» deb emas, balki «Men o'zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim?» — deb o'ylashimiz va shu aqida bilan yashashimiz kerak»¹*, deya ta'kidlagan edi Prezidentimiz.

Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan burchlarni bajarishi fuqarolarni shu davlat Konstitutsiyasi va qonunlarini tan olganligini anglatadi. Mazkur konstitutsiyaviy talab zamirida mamlakatimizda qat'iy qonuniylik tartibini ta'minlash imkonini beradi.

Qonuniylik — davlatda, jamiyatda mustahkam huquqiy tartib, barqarorlik tinchlik va osoyishtalikning asosidir. Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish burchi huquqiy munosabatlarning barcha sub'ektlari uchun umumiy talabdir. Uning ma'nosi shuki, har bir fuqaro hayot faoliyatining barcha sohalarida Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq xatti-harakat qilishdek e'tiqodga ega bo'lishi zarur.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish faqat ularning qoidalarini buzmaslik emas, fuqarolar o'z faoliyati, hayotini Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan tamoyil va asoslarni, qonun me'yorlarini real voqelikka aylantirishga yordam berish ham demakdir.

Konstitutsiya va qonunlarda jamiyat va davlatning ijtimoiy-siyosiy asoslari, mamlakatdagi huquqiy tartibot, ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi o'z ifodasini topgan.

Shu sababli, ularga har bir fuqaro qat'iy rioya etishga majbur. Bu qoidalarni buzish avvalambor fuqaroning o'ziga, davlatga, jamiyatga zarar yetkazadi. *«Fuqarolar boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadriyatini hurmat qilishga majburdirlar...»*

¹ K a r i m o v I. A. «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati» T.: «Sharq» 1993, 27-bet.

**Tarixiy, ma'naviy va
madaniy merosni
avaylab-asrash**

O'zbek xalqi boy tarixiy, ma'naviy va madaniy meros sohibidir. Shu boisdan Konstitutsiyada, «Fuqarolar O'zbekiston

xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdir» — deb belgilangan. O'zbek xalqi o'zi yaratgan tarixiy, ma'naviy, madaniy boyliklarini to'la saqlash va asrash imkoniyatiga ayrim davrlarda ega bo'lmagan. Ayniqsa, sobiq sho'rolar davrida xalqimizning juda ko'p tarixiy, ma'naviy va madaniy boyliklari talon-taroj qilingan, xorijiy davlatlarga olib ketilgan, o'zaro va bosqinchilik urushlarida yakson qilingan. Asrlar bo'yi shakllangan o'zbek davlatchiligi, huquqiy madaniy meros namunalari sobiq sho'rolar davrida e'tiborsiz qoldirilgan.

Bugungi kunda xorijiy davlatlarga olib ketilgan va xalqimizning bebaho boyliklarini qaytarish masalalari bilan maxsus komissiya shug'ullanmoqda.

O'zbekistonning har bir fuqarosi xalqimizning tarixiy, madaniy, huquqiy boyliklar xazinasini ko'z qorachig'iday asrashi, uni kelgusi avlodlarga yetkazib berishni o'zi uchun farz, ham qarz deb his qilishi zarur.

**Atrof tabiiy muhitga
ehtiyotkorona
munosabatda bo'lish**

O'zbekistonda inson va fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburligi Konstitutsiyaning 50-moddasida mustah-

kamlangan. Inson tabiatning eng muqaddas boyligidir. Inson salomatligi, uning taqdiri, hayoti uchun tabiiy muhit nihoyatda zarurdir. Shu boisdan bu muqaddas burchni bajarish har bir fuqarodan aql, zakovat va tabiatga mehr, muruvvat talab qiladi. Tabiiy muhit qanchalik sog'lom bo'lsa insonlar, ayniqsa yoshlar jismonan sog'lom, baquvvat, kuchli, shijoatli bo'lib kamol topadi.

Fan va texnikaning taraqqiyoti avj olgan hozirgi kunda insoniyatning hayot kechirish maskani bo'lmish tabiiy muhit alohida muhofazaga muhtoj. Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, asrash «Ekosan», «Orolni qutqarish» jamoat birlashmalari va davlatning maxsus organlari tizimi tomonidan tashkil qilinadi. Har bir fuqaro o'zi yoki mana shu kabi jamoat tashkilotlarining

faoliyatlarida, davlatning tabiatni muhofaza qilish organlari faoliyatida faol qatnashib, o'zining Konstitutsiyaviy burchini ado etishi zarur. Konstitutsiyada belgilangan bu qoidani amalga oshirish, bu burchning mazmunini ochib berish uchun muhim joriy qonunlar ham qabul qilingan.

Mustaqillik yillarida «O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «Yer to'g'risida»gi, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi, «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi, «Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi, «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi muhim qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlar fuqarolarning tabiat bilan bo'ladigan muloqotdagi majburiyatlarini belgilaydi. Tabiatga oid qonunlarda belgilangan burchlarni bajarish, ularning buzilishini oldini olish har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

Tabiatni qanchalik yaxshi asrasak, yashash huquqimizni, sog'liqni saqlash huquqlarimizni ta'minlash imkoni kuchayadi. Tabiiy muhit sog'lom bo'lsa insonlarning umri uzayadi, salomatligi mustahkamlanadi.

**Soliq va mahalliy
yig'implarni to'lash burchi**

Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlaridan yana biri ularning qonun yo'li bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburligidir (51-modda). Soliqlar yuridik shaxslar va fuqarolarning davlatga to'laydigan majburiy to'lovlari bo'lib, uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati shu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tizimi, davlatning tabiati va vazifalariga ko'ra belgilanadi.

Fuqarolar to'laydigan soliqlar davlat rivojlanishining turli davrlarida respublika hal qiladigan masalalarga qarab o'zgarib boradi. Hozirgi davrda fuqarolardan olinadigan soliqlarning turlari qonunlarda ko'rsatilgan. Masalan, «O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida»gi 1991-yil 15-fevral qonuni va unga kiritilgan qator o'zgartirish va qo'shimchalar bilan hamda shu qonun asosida 1993-yil 16-fevral qonuni va unga kiritilgan qator o'zgartirish va qo'shimchalar bilan hamda ana shu qonun asosida 1993-yil 21-mayda qabul qilingan Nizomda ko'rsatilgan qoidalardagi huquq va majburiyatlar

O'zbekistonning doimiy istiqomat joyiga ega bo'lgan va ega bo'lmagan fuqarolar, ajnabiy fuqaro va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tegishlidir.

Soliq to'lash manbai shaxslarning pul yoki natura tarzida olgan daromadlari hisoblanadi. Bu soliqlar ish haqi to'lovlari, mukofotlar va boshqa daromadlardan; fuqarolarning dehqon xo'jaligini yuritishdan olinadigan daromadlaridan; O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lmagan shaxslarning O'zbekistondagi manbalardan oladigan daromadlaridan tashkil topadi. Bu soliq va yig'implarni undirishni davlat idoralari tomonidan O'zbekiston Davlat soliq qo'mitasi, moliya vazirligi organlarining o'zini o'zi boshqarish idoralari amalga oshiradi.

Soliqlarni o'z vaqtida to'lamagan, to'lashdan bo'yin tovlagan, daromadini yashirgan va soliq to'g'risidagi qonunlarni buzgan shaxslar uchun moddiy (jarima to'lash, yashirgan yoki kamaytirib ko'rsatgan daromadni undirish), ma'muriy (jarima to'lash) va qonunda ko'rsatilgan hollarda jinoiy javobgarlik ham belgilangan. Shuni qayd etish kerakki, fuqarolardan undirilgan soliqlar va to'lovlar fuqarolarning ehtiyojlari uchun xalq ta'limiga, sog'liqni saqlashga, ijtimoiy yordamning boshqa turlariga sarf etiladi.

Soliqlar va yig'implar davlatning eng muhim atributlaridan biri bo'lib, u davlat mahkamalarini saqlash, hokimiyatni mustahkamlash, mudofaa va ijtimoiy sohalar: maktablar, shifoxonalar xodimlarini maosh bilan ta'minlash uchun zarurdir.

7-§ bo'yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash yuzasidan topshiriqlar.

O'qing!

Quyidagi konstitutsiyaviy qoida zamirida qanday maqsad yotibdi?

48-modda:

Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar.

E'tibor bering!

«Qonuniylik va huquq-tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklari, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va mas'uliyat ustuvor bo'lmasa, qonunlar va an'analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur etib bo'lmaydi».

(I.A.Karimov)

Erkin fikr bildiring!



1. Burch deganda nimani tushunasiz?
2. Jamiyat va davlat oldidagi burchingizni bilasizmi?
3. Agar Konstitutsiyada belgilangan burchlarni bajarmasangiz, bu qanday oqibatlariga olib kelishini tasavvur qila olasizmi?
4. Fuqarolar majburiyatlarining Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishining boisi nimada deb o'ylaysiz?

Bilimingizni mustahkamlang!



Ushbu mavzu bo'yicha egallagan bilimlaringizni quyidagi jadvalda qayd eting va uni izohlab bering.

№	Atrof-muhit muhofazasiga doir qonunlar	№	Soliq va mahalliy yig'implarni to'lash majburiyatiga doir qonunlar	№	Fuqarolar sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyatiga doir qonunlar
1		1		1	
2		2		2	
3		3		3	
4		4		4	
..		

8-§. VATANNI HIMOYA QILISH VA HARBIY XIZMATNI O'TASH BURCHLARI

O'zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir fuqaroning Konstitutsiyada belgilangan asosiy burchidir. O'zbekiston Respublikasini o'zining Vatani deb hisoblagan har bir inson uni himoya qilishi nihoyatda zarur va muqaddas tabiiy talabdir. Mazkur burchning mazmuni:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini himoya qilish;

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasini hududiy yaxlitligini himoya qilish;

Uchinchidan, respublikaning barcha sohalar bo‘yicha manfaatlarini himoya qilishni;

To‘rtinchidan, O‘zbekiston aholisining tinch va osoyish-ta, xavfsiz va farovon hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, harbiy tadbirlarida faol qatnashish kabi talablarni o‘z ichiga oladi.

Vatanni himoya qilishdan maqsad O‘zbekiston Respublikasiga qarshi chetdan qilinadigan hujumning oldini olish va har qanday tajovuz qilingan sharoitda qurolli kuchlar yordamida himoya qilishni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Vatanni himoya qilish burchining mazmun va mohiyati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va unga asoslanib qabul qilingan «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonundan kelib chiqadi. «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonun:

- O‘zbekiston Respublikasi mudofaasi asoslarini;
- mudofaani tashkil etish qoidalarini;
- mudofaa to‘g‘risidagi qonunlarni;
- mudofaa bo‘yicha Oliy Majlis vakolatlarini;
- mudofaa bo‘yicha Prezident vakolatlarini;
- mudofaa bo‘yicha Vazirlik va idoralarning vakolatlarini;
- mahalliy hokimiyat va ijroiya organlarining vakolatlarini;
- Qurolli Kuchlar haqidagi qoidalarini;
- urush holati;
- harbiy holat;
- safarbarlik;
- hududiy mudofaa;
- fuqaro va mansabdor shaxslarning mudofaa to‘g‘risidagi qonunlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik tartiblarini belgilab beradi.

Fuqarolarning bu asosiy burchi boshqa davlatlarning doimiy yoki vaqtincha O‘zbekistonda yashab turgan fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan insonlarga taalluqli emas. Chunki ular O‘zbekiston Respublikasida harbiy xizmatga yoki harbiy tayyorgarlikka jalb qilinmaydi

Vatanini himoya qilish burchini bajarmaslik O'zbekiston qonunlariga muvofiq huquqiy javobgarlikka asos bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 157-moddasida Vatanga xoinlik qilish, 158-moddada O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish, 159-moddada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish, 161-moddada qo'poruvchilik, 162-moddada davlat sirlarini oshkor qilish O'zbekiston davlatiga qarshi qaratilgan og'ir jinoyatlar ekanligi belgilangan.

Harbiy xizmatni o'tash burchi

Harbiy xizmatni o'tash har bir O'zbekiston fuqarosining muqaddas burchidir. Bu burchning mazmuni «Umumiy harbiy

majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi, hamda «Muqobil xizmat to'g'risida»gi O'zbekiston qonunlarida aniq belgilangan. **Umumiy harbiy xizmatni o'tash burchi:**

birinchidan, o'z Vatanini qurolli himoya qilish uchun majburiy harbiy tayyorgarlikdan o'tish;

ikkinchidan, O'zbekiston qurolli kuchlarini harbiy xizmatchilar bilan ta'minlash va harbiy xizmatchilar zaxirasini yaratish;

uchinchidan, fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash;

to'rtinchidan, chaqiruv uchastkalarida qayd etilish, zahirada xizmat qilish;

beshinchidan, harbiy ro'yxatdan o'tish qoidalariga rioya qilish;

oltinchidan, umumiy harbiy ta'lim olishni o'z ichiga oladi.

Harbiy xizmat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa harbiy tuzilmalarida umumiy harbiy majburiyatni bajarishlari hamda bitimga binoan xizmat qilishlari borasidagi davlat xizmatining alohida turidir.

Harbiy xizmatning:

— Muddatli harbiy xizmat;

askar, dengizchi; serjant va starshina, shuningdek praporshchik va michman lavozimlarida bitimga binoan harbiy xizmat;

— xotin-qizlar bitimga binoan o'taydigan praporshchik va michman, shuningdek askar va serjant lavozimlaridagi harbiy xizmat;

— harbiy o'quv yurtlarining kursanti (tinglovchisi) sifatida o'taladigan harbiy xizmat;

— ofitserlar lavozimlarida o'taladigan harbiy xizmatdan iborat turlari joriy etilgan.

Tinchlik vaqtida zaxiradagi xizmat-o'quv mashqlari yig'inida qatnashish, urush vaqtida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga safarbar etilganida harbiy xizmatga majburlardan harbiylar ro'yxatida qayd etilgan ixtisoslari bo'yicha talab qilinadigan bilim, ko'nikma va mahoratni saqlab qolish hamda takomillashtirishdan iboratdir.

Harbiy xizmatga birinchi marta chaqirilgan yoki ixtiyoriy ravishda harbiy xizmatga kirgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari O'zbekiston Respublikasining xalqiga va Prezidentiga sodiq ekanliklari to'g'risida Harbiy qasamyod qabul qiladilar.

Muqaddam Harbiy qasamyod qabul qilmagan harbiy xizmatga majburlar yig'inga yoki safarbarlikka chaqirilgan vaqtda Harbiy qasamyod qabul qiladilar. Muqobil xizmat O'zbekiston Respublikasining «Muqobil (mehnat) xizmat to'g'risida»gi Qonuni bilan tartibga solib boriladi.

Muqobil xizmat — O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'taydigan davlat xizmatining alohida turidir. Bu xizmat fuqaroning korxonalaridagi, muasasalardagi, xalq xo'jaligi tashkilotlaridagi, yuqori malaka talab etilmaydigan (yordamchi) ishlarni yoki o'z malakasiga mos ishlarni, shu jumladan falokat, fojia, tabiiy ofat va boshqa favqulodda holatlarning oqibatlarini bartaraf etishga oid ishlarni bajarish bilan bog'liqdir. Muqobil xizmat fuqarolarni harbiy ishga o'rgatishni hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun zahiradagi jangchilar tayyorlashni ko'zda tutadi.

Muqobil xizmatni o'tash huquqi quyidagilarga beriladi:

O'zbekiston Respublikasining 18 yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan, harbiy hisobda turadigan, muddatli harbiy xizmatga chaqirilishi lozim bo'lgan fuqarolari, basharti ular:

— xizmatga chaqirilayotgan shaxsdan tashqari 16 yoshga to'lmagan to'rt va undan ortiq bolali oiladan bo'lsalar;

— harbiy xizmatni o'tash davrida nogiron bo'lib qolgan ota-onasi yoki aka-uka (opa-singil) lari bo'lsa;

diniy e'tiqodi qurol ishlatishga va Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga yo'l qo'ymaydigan ro'yxatdan o'tgan diniy tashkilotlarning a'zosi bo'lsalar, muqobil xizmatni o'tash huquqiga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muqobil xizmatni o'tash huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning o'zga to'falarini ham belgilashi mumkin:

muqobil xizmatni o'tayotgan shaxslar muqobil xizmat xizmatchilari deb ataladilar.

Harbiy xizmatni o'tash burchini jinoyatkorona buzgan fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XXI, XXII, XXIII boblarida ko'rsatilgan jinoiy javobgarlik belgilanadi.

Shunday qilib fuqarolarning burchlari xalq manfaati, har bir fuqaro huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida halol va vijdonan bajarilishi kerak. Fuqarolar o'z burchlarini ongli ravishda amalga oshirsalar, bu ularning yuksak huquqiy madaniyatga ega ekanligini, o'z xalqi va davlatini yuksak qadrlashini ko'rsatadi.

8-§ bo'yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash yuzasidan topshiriqlar.

1. Vatanni himoya qilish burchining mazmuni qanday talablarni o'z ichiga oladi?
2. Umumiy harbiy majburiyatning maqsadi nimadan iborat?
3. Umumiy harbiy majburiy xizmatning mazmunini nima tashkil etadi?
4. Kimlar muddatli harbiy xizmatga chaqiriladi?
5. Agar fuqaro harbiy xizmatdan bo'yin tovlagan taqdirda qaysi qonunlar asosida javobgarlikka tortiladi?

?



Qiyosiy tahlil:

Harbiy xizmat va muqobil xizmat o'rtasidagi farqni tushuntirib bering.

Siz bilasizmi?

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 52-moddasi asosida qanday qonun qabul qilingan?

Javob bering?

1. Qanday hollarda fuqaro harbiy xizmatga yaroqsiz deb topiladi?

2. Qonunda belgilangan qanday talablar asosida fuqaro muqobil xizmatni o'tash huquqiga ega bo'ladi?

**Matn
tayyorlang**

«Vatanni sevmiq iymondandur», degan hikmatli so'zning mohiyatini ochib beruvchi matn tayyorlang. Tegishli adabiyotlardan foydalanib, xulosalar chiqaring.

IV b o b. Huquq va erkinliklarning konstitutsiyaviy kafolatlari

9-§. INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINING TA'MINLANISHI

**Huquq va erkinliklar
kafolatlari tushunchasi**

Davlat mustaqilligini qo'lga kiritib, O'zbekiston rivojlangan huquqiy demokratik davlatni barpo qilish va adolatli fuqarolik jamiyatni shakllantirish yo'lini tanladi.

Demokratik fuqarolik jamiyatni qurishni maqsad qilib qo'ygan har qanday davlatning demokratlashuviga xos xususiyatlarni ko'rsatuvchi shartlaridan biri—inson huquq va erkinliklarining qonunlarda to'liq belgilanishi hamda ularning ta'minlanishi uchun shart-sharoitlarning yaratilishi bilan belgilanadi. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlatni qurishdan asosiy maqsad — ushbu davlatda yashovchi har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini to'la ta'minlashdan iboratdir.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, inson huquq va erkinliklarini Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlanishi muhim ahamiyatga egadir, ammo ularni amalga oshirishning kafolatlangan, himoyalangan imkoniyatlari bo'lmasa, ular quruq gapligicha qolib ketadi. Bunga yorqin misol totalitar tuzum hukmronlik qilgan sobiq ittifoq qonunlarida ham fuqarolarning ko'plab huquq, erkinliklari juda chiroyli qilib yozib qo'yilgan edi. Biroq ular hayotda amalga oshmay qoldi. Chunki kommunistik mafkura ko'p jihatdan sinflar, davlat to'g'risida qayg'urib, «inson»ni esdan chiqargan edi.

O‘z istiqlol va erkin taraqqiyot yo‘lini tanlab olgan O‘zbekistonda qisqa davr ichida insonning huquq va erkinliklarini to‘la amalga oshirish yo‘lida diqqatga sazovor ishlar qilindi. Inson manfaatlarini ta‘minlash davlatimizning eng ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Mamlakatimizda insonning huquq va erkinliklari to‘g‘risida 100 dan ortiq qonunlar, 200 dan ortiq qonun osti aktlari qabul qilindi.

Inson huquqlarini himoya qilish Konstitutsiyaning bosh g‘oyasi va maqsadi hisoblanadi.

Inson huquq va erkinliklari kafolatlarining mazmun mohiyatini to‘la tushunish uchun avvalo kafolat tushunchasiga to‘xtalmoq zarurdir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida bayon etilishicha: «Kafolat» so‘zi bu — mas‘uliyatni, javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan holda, ishontirish, kafillik, ta‘minlash» ma‘nosini bildiradi.

Kafolat — bu fuqarolarga qonunda belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklarni amalga oshirilishini ta‘minlashga yordam beradigan vositalar, usullar va shart-sharoitlardir.

Inson huquq va erkinliklarining huquqiy kafolatlari deyilganda shaxslarning Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklarini amalda haqiqiy bajarish uchun zarur sharoit va barcha imkoniyatlarni yaratish tushuniladi.

Kafolat, kafolatlash bu — Konstitutsiya, qonunlarda ko‘rsatilgan imkoniyatlarni hayotda amalga oshirish, huquq va erkinliklarga ega bo‘lish demakdir. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash Konstitutsiyada ko‘rsatilgan huquq va erkinliklarga egalik qilish bilangina cheklanmasdan, ulardan to‘liq foydalanish va ularni har qanday noqonuniy buzilishdan muhofaza qilish hamdir.

Konstitutsiyamizning mohiyati insonga munosib hayot sharoitlarini yaratish, uni baxtli qilishdan iborat. U jamiyat va uning a‘zolari oldiga buyuk maqsadlar qo‘yadi. Ana shu ezgu maqsadga erishishning yo‘llarini o‘zida mujassam etadi. Shu o‘rinda davlat, oila va jamiyat manfaatleri, sodda qilib aytsak, davlat va inson manfaatleri uyg‘unlashib borgan sari jamiyat rivojlanib, olg‘a siljib boradi.

Konstitutsiyaning asosiy huquqiy hujjat sifatidagi qimmati shundaki, u jamiyat a‘zolarining tengligini qayd etadi, unga kafolatlar beradi. Huquqiy kafolatning mohiyati

davlat, uning organlari va mansabdor shaxslar fuqarolarning huquqlarini va erkinliklarini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish, ularni amalga oshirish uchun doimiy ravishda zarur vositalar bilan ta'minlanishda ifodalangan burchida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi insonlarga ma'lum huquq va erkinliklarini mustahkamlab berish bilan birga ularni to'liq amalga oshirish uchun:

- iqtisodiy;
- siyosiy va huquqiy kafolatlar bilan ta'minlaydi.

Iqtisodiy sohadagi kafolatlar shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ko'rsatilgan va jamiyatning iqtisodiy negizini tashkil etuvchi mulk shakllarining xilma-xilligidir. Hamda barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan barobar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Siyosiy huquq va erkinliklarning kafolatlanganligi shundan iboratki, Konstitutsiyaga binoan xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekanligi; davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanganligi; O'zbekistonda ijtimoiy hayotning siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi; hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligidir.

**Huquq va erkinliklar
kafolatlarining o'ziga
xos xususiyatlari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan huquq va erkinliklar kafolatlarining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

Birinchiidan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini belgilashda va kafolatlashda Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi va xalqaro huquqning g'oyalari asos qilib olindi. Ushbu xalqaro hujjatlarga asosan fuqarolarning ko'plab huquqlari, ayniqsa tabiiy-shaxsiy huquqlari hech kim (davlat, monarx, prezident va boshqalar) tomonidan berilmaydi. Kafolat ushbu huquq va erkinliklarning amalga oshirishini, ro'yobga chiqishini ta'minlashdir. Shuning uchun ham Konstitut-

siyamizga murojaat etsak, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari asosiy o'ringa ko'tarilgan hamda ularning kafolatlanishiga alohida e'tibor berilgan.

Ikkinchidan. Bizning Konstitutsiyamiz bo'yicha davlat biron sinf, tabaqa yoki guruhning manfaatlari uchun emas, balki butun xalq manfaati uchun xizmat qiladi.

Uchinchidan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligida belgilangan demokratik va insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan asosiy prinsiplardan biri bu — hokimiyatlar taqsimlanish prinsipidir. Hokimiyatlarning taqsimlanish prinsipi — demokratik davlatga xos xususiyat bo'lib inson va fuqarolar huquqlarini kafolatlashning muhim shartidir.

To'rtinchidan. Mulkchilik, mulkchilikka munosabat masalasida ham fuqarolarning huquqlari xalqaro huquq normalariga mos kafolatlangan.

Sobiq ittifoq Konstitutsiyasiga binoan ishlab chiqarish vositalari, jamiki moddiy boyliklar davlat mulki hisoblanardi. Fuqarolarning xususiy mulkka ega bo'lishi, boylik orttirishi qat'iy man qilib qo'yilgan edi. Demokratik O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida esa «Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli» (37-modda) ekani, O'zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslanishi, uning negizini xilma-xil mulk tashkil etishi, barcha mulk shakllarining teng huquqqa ega ekaniga kafolat beriladi. Mamlakatimizda ishbilarmonlik, tadbirkorlik va tashabbuskorlik harakatiga keng yo'l ochildi va bosqichma-bosqich mulkdorlar sinfi vujudga kelmoqda.

O'zbekiston jahonning taraqqiy etgan va demokratiya yo'lidan borayotgan davlatlar tajribalaridan kelib chiqib, umum e'tirof etilgan xalqaro huquq normalari talablarini tan olib, qonunchilikning bu tarmog'ida aktiv faoliyat olib bormoqda.

Respublikamiz taraqqiyot sari rivojlanib borayotgan mamlakatdir. Uning taraqqiyoti fuqarolarning huquq va erkinliklari hajmining kengayishi, ularni amalga oshirish va samarali himoya qilish kafolatlarining mustahkamlanishi bilan bog'liq holda kechadi.

Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qoidalar

Fuqarolarning huquqlarini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari» deb nomlangan X bobi, 43—46-moddalari muhim ahamiyatga egadir.

Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklarining huquqiy kafolatlari to'g'risidagi konstitutsiyaviy qoidalar mazmunida asosan inson manfaati ustuvor bo'lib, uning qat'iy izchil amalga oshirilishi muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasida: «Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi», deyiladi. Bu konstitutsiyaviy qoidaning ahamiyati shundan iboratki, huquqiy demokratik davlat qurayotgan O'zbekiston davlati o'zining qonun chiqaruvchi organi hisoblangan Respublika Oliy Majlisi orqali inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarining huquqiy kafolati hisoblangan umum e'tirof etilgan xalqaro huquq normalari talablariga mos normativ hujjatlar qabul qiladi.

Konstitutsiyaning 44-moddasida «Har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi», deyilgan. Bu qoidaga ko'ra, fuqarolar Konstitutsiyada belgilangan o'zlarining huquq va erkinliklari buzilgan deb hisoblasalar, o'z huquqlarini sud orqali himoya qilishlari mumkin. Bu fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklovchi eng samarali vosita hisoblanadi. Sudga shikoyat qilish huquqi shaxsning huquq va erkinliklarining kafolati hisoblanib, sud organlarigina Konstitutsiyaga asosan boshqa davlat hokimiyati organlaridan, jamoat birlashmalaridan xoli, mustaqil harakat qiluvchi va faqat qonunga bo'ysunuvchi organdir.

Mamlakatimizda sud tizimi islohotlari sohasida ko'plab ishlar qilinmoqda. Bu haqda Prezidentimiz shunday degan edi: «Xalq sudni faqat odamlarni qoralaydigan, jazolaydigan organ deb emas, aksincha, ularning haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qiladigan organ deb bilishi kerak»¹

¹ K a r i m o v I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. T.: «O'zbekiston», 1996, 186-bet.

«Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va Qaror ustidan shikoyat qilish to'g'risida»gi 1995-yil 30-avgustdagi Qonun esa faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sudga shikoyat qilish huquqini mustahkamlamasdan, balki chet el fuqarolarining hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ham O'zbekiston Respublikasi sud organlariga murojaat qilish huquqini belgilagan.

Konstitutsiyaviy kafolatning yana bir qoidasi Konstitutsiyamizning 45-moddasida belgilangan bo'lib, «Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir», deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi faqat huquqiy davlatgina emas, balki insonparvar demokratik huquqiy davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan. Bu esa jamiyatdagi ayrim toifadagi, himoyaga muhtoj, zaif kishilar davlatning himoyasida bo'lishini taqozo etadi.

Milliy davlatchilikni shakllantirish, demokratik islohotlarni amalga oshirish, jamiyatni bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazish hamda bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy muammolarga alohida e'tibor berish zarur. Jahondagi ko'pgina mamlakatlarning ijtimoiy rivojlanish sohasidagi g'oyat boy tajribasi shundan dalolat beradi.

O'zbekistonning davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining besh tamoyilidan biri — kuchli ijtimoiy himoya hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida yoshlar huquqlarining jinoiy huquqiy kafolatlari belgilangan. JKning oltinchi bo'limi «Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari» deb ataladi. Unga ko'ra turli sabablar bilan voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklar sodir etgan hollarda ularga nisbatan majburiy-tarbiyaviy ta'sir choralarini qo'llash, ya'ni jarima solish, ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish; axloq tuzatish ishlariga yuborish, ozodlikdan mahrum qilish, maxsus o'quv-tarbiya joylariga joylashtirish, hibsga olish faqat sudning hukmiga yoki qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Mehnatga layoqatsizlar, nogironlar va yolg'iz kek-

salarning huquqlari ham davlat tomonidan himoya qilinadi.

Davlatimizda ijtimoiy himoyaning aniq chora-tadbirlari ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Bunda, mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari mavqei oshirilmoqda. 1999-yil 3-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmonning ijrosini ta'minlash uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari orqali quyidagilar amalga oshirildi:

- ishlamaydigan onalarga bolasi ikki yoshga yetguniga qadar uni parvarish qilish bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash;
- o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz nafaqaxo'rlarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash.

Konstitutsiyaning 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar, deyilgan. Ayollar bilan erkaklar teng huquqliligini ta'minlash uchun davlat qo'shimcha keng miqyosdagi tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda O'zbekistonda 12 mln. ga yaqin xotin-qizlar yashaydi. Bu Respublika umumiy aholisining 51 %ini tashkil etadi. Mehnatga qobiliyatli ayollarning 50%i xalq xo'jaligida band. Ayollarning jamiyatdagi mavqegini oshirish bo'yicha ma'lum chora-tadbirlar ishlab chiqildi hamda maxsus Davlat dasturi qabul etildi. Amalda esa uning ijrosi bo'yicha ko'plab ishlar qilindi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda kam ta'minlangan ko'p bolali oilalarga yordam ko'rsatish tizimi tubdan isloh qilindi. Masalan, 1997-yilda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish mahalla qo'mitalari orqali 900 mingga yaqin oilaga 2 milliard 341 million so'm nafaqa to'landi, 52 ming oilaga esa maksimal darajada (eng kam ish haqining 3 baravari miqdorida) moddiy yordam ko'rsatildi. Shuningdek, 16 yoshgacha bolalari bo'lgan (2 mln. 282 ming) oilalarga

davlat byudjetidan 3 milliard 833 million so‘m nafaqa yetkazib berildi.¹

Kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam va ko‘p bolali oilalarga nafaqalar shaklida ajratilgan daromadlar 1999-yili 21 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ni tashkil etdi².

9-§ bo‘yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash yuzasidan topshiriqlar.

E‘tibor bering!

Davlat fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta‘minlaydi.

Mustaqil ishlash uchun vazifa:

O‘zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi qonunining 24 va 25-moddalarining mazmuni bilan tanishib chiqing. Mazkur moddalarda xalq deputatlari Kengashlariga va hokimlarga fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, muho-faza qilish sohasida qanday vazifalar yuklanganligini aniqlang.

O‘qing!

31-modda:

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi.

Mazkur moddada mustahkamlangan fuqarolarning erkinliklarini ta‘minlash chora-tadbirlari qaysi qonunda va qanday tartibda belgilab qo‘yilgan?

Qonunlar bilan tanishib, javob bering

Konstitutsiyaning 37—39 va 117-moddalarida fuqarolarning mustahkamlangan huquqlarining ta‘minlanishi qaysi joriy qonunlarda o‘z ifodasini topgan?

Konstitutsiyaviy qoidani izohlang

45-modda:

Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidir.

Matn tayyorlang

Huquqiy kafolatlar va uning hayotdagi amaliy ifodasi bo‘yicha o‘z fikr-mulohazangiz asosida matn tayyorlang.

Mustaqil bajarish uchun vazifa

Huquqiy kafolatlar tushunchasi va turlariga doir bir necha test savollarini tayyorlang.

¹ «Ishonch» gazetasi. 1998-yil 25-yanvar va 3-fevral sonlari.

² U b a y d u l l a y e va R. «Ayollarning manfaati — himoyada». «Bozor, pul va kredit» jurnali. 1997-yil, 57-bet.

10-§. FUQAROLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMI

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalaridan biri sifatida inson huquqi va erkinliklarini muhofaza qilish va uning kafolatini ta'minlashga muhim e'tiborini qaratib kelmoqda. Binobarin, inson huquqlari va erkinliklarining hamma narsadan ustun qo'yilishi O'zbekiston Konstitutsiyasining asosiy mohiyatini tashkil etadi.

O'zbekistondagi tub islohotlar samarasi inson huquqlarining qay darajada ta'minlanganligiga va amalga oshirilayotganligiga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Konstitutsiyasida davlat qiyofasi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy tizimlari, umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlar va tamoyillarga muvofiqligi hamda inson huquqlari va erkinliklarining himoyalanganligi darajasi ko'zgudagidek aks etgan.

O'zbekistonda fuqarolar huquqlarini himoya qilish tizimining barcha huquqiy asoslari Konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan.

Qat'iy belgilangan konstitutsiyaviy me'yorlar asosida inson huquqlarini himoya qilish va uni amalga oshirishning tashkiliy huquqiy mexanizmini vujudga keltirish bo'yicha O'zbekistonda faoliyat keng rivoj topdi.

Fuqarolar huquqlarining Konstitutsiyaviy kafolatlari ta'minlanishida bevosita inson huquqlarining amalga oshirilishini ro'yobga chiqaruvchi turli yo'nalishdagi faoliyatlar tashkil qilingan. Ular orasida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha milliy markazni aytib o'tish o'rinlidir. Shu bilan bir qatorda fuqarolar huquqlarini himoya qilish tizimida sud, prokuratura, advokatura va boshqa davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari ham muhim rol o'ynaydi.

Inson huquqlarini himoya qilish va unga rioya etishning amaldagi mexanizmini vujudga keltirishda quyidagilar ustuvor etib belgilangan:

1) Respublikada inson huquqlarini himoya qilish unga amal qilishning huquqiy bazalarini shakllantirish va takomillashtirish;

2) inson huquqlarini ta'minlash sohasida sud hokimiyati va ijro hokimiyati idoralari faoliyatining samaradorligini oshirish va inson huquqlari bo'yicha qo'shimcha milliy tuzilmalar barpo etish;

3) inson huquqlariga amal qilish va uni hurmat qilishning zarurligini tushunishga erishish sohasida fuqarolarni aniq maqsadga qaratilgan va bosqichma-bosqich huquqiy tarbiyalash hamda mansabdor shaxslarning huquqiy savodxonligini kuchaytirish yo'li bilan jamoatchilik ongini oshirishga ko'maklashish;

4) inson huquqlari masalalari bo'yicha monitoring sohasida nodavlat tashkilotlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida fuqarolarning jamoatchilik tuzilmalari bilan yanada yaqinroq hamkorlik o'rnatish;

5) inson huquqlarini himoya qilish va unga amal qilishni huquqiy va tashkiliy ta'minlash sohasida xalqaro tajribani o'rganish va qo'llash hamda O'zbekistonning tarixiy an'alarini hisobga olish.

O'zbekistonda Konstitutsiya asosida inson erkinliklari va huquqlarining butun majmuini qonuniy o'rnatadigan, shu bilan birga inson huquqlari va erkinliklarini himoyalashga amal qilish tartibi va mexanizmini belgilaydigan, ushbu soha ustidan davlat va jamoat nazorati turlarini aniqlaydigan barqaror huquqiy baza yaratildi.

Hozirgi vaqtda Konstitutsiya me'yorlariga muvofiq Respublikada fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga bevosita aloqador bo'lgan 200dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingan va hayotga tatbiq etilmoqda.

O'zbekistonda fuqarolarning huquqlarini amalga oshirish va ularning muhofazasini ta'minlovchi davlat idoralarining mavjudligi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish va unga rioya qilishning amaldagi mexanizmining muhim belgilaridan biridir.

Ularni ikki guruhga, ya'ni: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan fuqarolarning huquqlarini ta'minlashga mas'ul davlat idoralari va xalqaro tashkilotlarning tavsiyalariga binoan tuzilgan, inson huquqlarini himoya qilish va unga amal qilishga ko'maklashuvchi, inson huquqlari masalalari bo'yicha qo'shimcha tuzilmalarga bo'lish mumkin.

Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va unga amal qilishni ta'minlashdagi asosiy mas'uliyat qonun bo'yicha sud va ijro hokimiyat idoralari zimmasiga yuklatilgan. Qonunlarda belgilangan tartibga binoan («Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi, «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi qonunlar) O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi davlat idorasi, tashkiloti yoki mansabdor shaxsga yoki sudga o'z huquqlarini tiklash uchun murojaat qilish huquqiga ega.

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish sohasida davlat apparati faoliyatiga ko'maklashish maqsadida inson huquqlari bo'yicha qo'shimcha institutlar vujudga keltirildi. Bular:

— inson huquqlari masalalari bo'yicha qonunchilikning samaradorligi ustidan parlament nazoratini amalga oshiruvchi Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman);

— inson huquqlari sohasida milliy huquq me'yorlarining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlovchi Oliy Majlis huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti;

— inson huquqlariga amal qilish sohasida muvofiqlashtiruvchi, tahlil qiluvchi va maslahat beruvchi idora — Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz;

— respublikada inson huquqlarini ta'minlash muammolarining sotsiologik tadqiqoti va tahlilini o'tkazuvchi «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazidir.

Bu institutlarning hammasi nodavlat tashkilotlar bilan bir qatorda O'zbekistonda inson huquqlari muammolarini hal etishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqda.

Respublikada inson huquqlarini himoyalash va unga amal qilish ustidan jamoat nazoratini amalga oshirishga qodir bo'lgan huquqiy nodavlat idoralar sektori vujudga keltirildi. Bular sud'yalar, advokatlar Assotsiatsiyalari, inson huquqlari va gumanitar huquqni o'rganish Markazi, xususiy advokat va notarial xizmatlar, yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy maslahat xizmatini ko'rsatuvchi turli firmalar, fuqarolar turli qatlamlarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha har xil jamiyatlar va jamg'armalar va

boshqalardir. Natijada yurtimizda jamiyatimiz uchun asosan yangi bo'lgan, inson huquqlarini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi jamoat sektori bunyod bo'ldi. Bu fuqarolarning huquqlarini himoya qilish sohasida nazorat mexanizmining belgilaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha institutlar tizimi shakllantirildi, endigi vazifa — barcha davlat va jamoat tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirishdan va har bir idora va mansabdor shaxs o'z majburiyatlarini bajarishga, fuqarolarning arizalarini o'z vaqtida, odilona va vijdonan ko'rib chiqishda inson huquqini himoya qilish masalalari bo'yicha respublika qonunchiligining buzilmasligiga erishishdan iborat.

Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) faoliyati yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilish sohasida Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ning o'rni mu-

him ahamiyatga ega. 1995-yil 23-fevralda Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili lavozimi ta'sis etildi va 1997 yil 24 aprelda esa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risidagi qonun qabul qilindi.

Mazkur qonunga muvofiq inson huquqlari bo'yicha vakilga «O'zbekiston Respublikasida davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari to'g'risidagi Konstitutsiya va boshqa amaldagi qonunlar hujjatlariga rioya etilishini samaradorligi ustida parlament nazoratini amalga oshirish» vakolati berilgan.

Inson huquqlari bo'yicha vakil faoliyati qonunga binoan, asosan: fuqarolarning shikoyatlari va arizalarini qabul qilish va ko'rib chiqish, ularning huquqlari buzilgan bo'lsa, ularni tiklash bo'yicha chora-tadbirlar qo'llashdan; jamiyatning zaifroq qatlamlari (bolalar, ayollar, nogironlar, keksalar, hibsdagilar va boshqalar)ga nisbatan inson huquqlari masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari va xalqaro konvensiyalarga amal qilinishini o'z tashabbusiga binoan nazoratdan o'tkazishdan; inson

huquqlari haqidagi qonunchilikni takomillashtirishda va uni xalqaro standartlarga muvofiq holga keltirishda ko'maklashish; inson huquqlarini hurmat qilish sohasida jamoatchilik fikrini kuchaytirishga qaratilgan axborot-ma'rifiy va tahliliy ishlarini amalga oshirish; inson huquqlarini vujudga keltirish sohasida chet el tajribasini o'rganish maqsadida xalqaro hamkorlikni kuchaytirishdan iborat.

1998-yilda Ombudsmanning sud va huquqni muhofaza qiluvchi idora bilan o'zaro aloqalari ishlab chiqilib, hayotga tadbiq etilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad inson huquqlari haqidagi qonunchilikning bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirish bo'yicha Ombudsman ishining samarasini oshirish, fuqarolarning huquqlarini amalda tiklanishini ta'minlash, inson huquqlarini himoya qiluvchi davlat idoralari vakolat va imkoniyatlaridan yanada samaraliroq foydalanishga yo'naltirilgan.

Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ning 1995—1999-yillardagi faoliyati mobaynida Ombudsman fuqarolardan kelib tushgan jami 8775 ta ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqqan. 1998-yilning o'zida bu ko'rsatgich 2564 tani tashkil qildi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, mamlakat hayotida fuqarolarning huquqlarini ta'minlashda Ombudsmanning faoliyatiga e'tibor yanada ortayotganligi shubhasiz.

Ombudsman O'zbekiston Respublikasining «Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi qonunning **12-moddasiga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:**

- shikoyatlarni ko'rib chiqish;
- arizachiga o'z huquq, erkinlik va manfaatlarini himoya qilish vositalari va shakllarini ko'rsatish;
- shikoyatni hal qilishga vakolatli bo'lgan tashkilot yoki mansabdor shaxslarga yuborish;
- arizachini uning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlariga daxldor hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishtirish;
- qonun hujjatlariga zid bo'lmagan chora-tadbirlarni ko'rish.

Vakil hujjatlarini ko'rib chiqish, tekshirish chog'ida

qonunning 13-moddasida ko'rsatilgan huquqlardan foydalanadi:

— tashkilot va mansabdor shaxslarga aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni tekshirishga yordam so'rab murojaat qilish;

— shikoyat bo'yicha holatlarni aniqlash uchun tashkilot vakillari va mansabdor shaxslarni taklif etish;

— shikoyatni tekshirish uchun zarur hujjatlarni, material va boshqa ma'lumotlarni so'rash va olish;

— shikoyat bo'yicha mansabdor shaxslardan tushuntirishlar olish;

— tashkilot va mutaxassislariga aniqlanishi zarur holatlar bo'yicha xulosalar tayyorlashni topshirish;

— tashkilot va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor masalalar yuzasidan o'tkazilayotgan tekshiruvlarda qatnashish;

— ushlangan yoxud qamoqda saqlanayotgan shaxs bilan uchrashish va suhbat o'tkazish;

— inson huquqlarini buzish hollari aniqlangan tashkilot yoki mansabdor shaxslarga javobgarligi to'g'risida xat bilan murojaat qilish kabilardan iborat.

Inson huquqlari bo'yicha vakilga murojaat qilayotgan shaxs o'z shikoyatida familiyasi, ismi-sharifi, manzili, shikoyat qilayotgan tashkilotning nomi, mansabdor shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilishi, arizachining fikricha uning huquqlari buzilishiga olib kelgan harakat yoki harakatsizlik mohiyati bayon etilishi zarur. Shikoyatga arizachining talablarini tasdiqlovchi hujjatlar, boshqa ma'lumotlar ilova qilinadi.

Vakil vaziyatni tekshirish natijalariga binoan:

— arizachiga ko'rib chiqish natijalarini ma'lum qilishi;

— harakatlari va harakatsizligida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi aniqlangan tashkilot yoki mansabdor shaxslarga buzilgan huquqlarni tiklash yuzasidan tavsiyalar bayon etilgan o'z xulosasini yuborishi shart.

Bunda vakilning xulosasini olgan tashkilot yoki mansabdor shaxs tomonidan masala oxiriga yetkazilishi va qonun doirasida adolatli hal qilinishi lozim.

**Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi
milliy markazi faoliyati
va uning vazifalari**

Bu markaz respublika Prezidenti farmoni bilan 1996-yil 31-oktyabrda tashkil etildi. Mazkur milliy markaz davlatga qarashli, tahlil, maslahat, idoralararo va muvofiqlashtirish organidir. Markazning faoliyati yo'nalishlari bevosita inson huquqlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, u bir qator yuksak vazifalarni o'z oldiga qo'yadi.

Milliy markazning asosiy vazifalari:

— inson huquqlari, erkinliklarini muhofaza qilishning harakat rejasini ishlab chiqadi;

— inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar hamkorligini rivojlantiradi;

— O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga rioya etilishi va bu huquqlarning muhofaza qilinishi yuzasidan milliy ma'ruzalar tayyorlaydi;

— davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, shuningdek inson huquqlari bo'yicha jamoat birlashmalariga maslahatlar beradi;

— davlat organlarining inson huquqlariga oid ta'lim, tarbiya, targ'ibot, o'quv-uslubiy adabiyotlarini nashr etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

— O'zbekistonda inson huquqlarini amalga oshirish va rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlarning axborot bazasini yaratish;

— inson huquqlarini muhofaza qilish bo'yicha davlat organlarining faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;

— inson huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilish sohasida ilmiy ijtimoiy tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishdir.

O'zbekiston Respublikasida mazkur milliy markazning tashkil etilishi inson huquqlarini muhofaza qilishning muhim kafolatlaridan biri ekanligini hayot ko'rsatib turibdi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz faoliyati to'g'risida ma'lumotlar «O'zbekistonda demokratiyalash va inson huquqlari» maxsus jurnali orqali yoritib borilmoqda.

**Malakali yuridik yordam
olish huquqi**

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish va fuqarolarning malakali huquqiy yordam olish

huquqini amalga oshirishga yordam beruvchi jamoat tashkilotlaridan biri Advokatura hisoblanadi. Bu jamoat birlashmasining huquqiy maqomi «Advokatura to'g'risida»gi Qonunda belgilangan. Mazkur Qonunning 1-moddasiga binoan: «*Advokatura —huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. Advokatura O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi*».

«Advokatura to'g'risida»gi Qonun 17 moddadan iborat bo'lib, bu qonunda advokatura va uning vazifalari, advokatura to'g'risidagi qonun hujjatlari, advokatning huquqiy maqomi, advokatura faoliyatining prinsiplari va tashkiliy shakllari, advokatlik faoliyatining turlari, advokatning huquq va vazifalari, advokat faoliyatining kafolatlari, advokatlarga beriladigan ruxsatnomalar, advokatlarga beriladigan intizomiy jazo choralari, advokatning siri, ijtimoiy huquqlari, advokatlik faoliyatini to'xtatish asoslari belgilangan.

**10-§ bo'yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash
yuzasidan topshiriqlar.**

Javob bering!

Insonning huquq va erkinliklarini sudlardan tashqari qanday idoralar himoya qiladi? Bu idoralarni nomma-nom sanab bering.

Izlaning!

1. Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish mexanizmi tushunchasi?
2. Inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlar?
3. Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish tizimining Konstitutsiyaviy asoslari nimalardan iborat?
4. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ning vazifalarini izohlab bering.

5. Inson huquqlari bo'yicha milliy markazning vakolatlarini tushuntirib bering.
6. Advokatura to'g'risidagi Qonun mazmunini izohlab bering.
7. Fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda davlat organlari faoliyatining ahamiyatini ko'rsatib bering.
8. Fuqarolarning huquqlarini muhofaza qilishda xalqaro aloqalarning o'rni qanday ahamiyat kasb etadi?

V b o b. O'zbekiston Respublikasi davlat shakli va davlat organlari

11-§. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT TUZILISHI VA BOSHQARUV SHAKLI

O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Bu — mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir.

Islom KARIMOV

O'zbekiston: davlatchilikni shakllantirish va rivojlantirish yo'lida

Istiqlol xalqimizga o'z Vatanida o'zini erkin his qilish, chinakam o'z milliy qadriyatlarini tiklash, o'z milliy davlatchiligini

ni shakllantirish imkonini berdi. O'zbekiston milliy davlatchiligi murakkab sharoitda qaror topishiga sabab bo'ldi. Chunki sobiq sho'roning davlatchilik illatlarini tugatish muammolari ko'ndalang turar edi. Sababi sho'ro davridagi Konstitutsiyalarda inson manfaatlaridan davlat manfaatlari ustunligi belgilab qo'yilgan edi. Turkiston ASSRning 1918, 1920-yillarda, Xorazm va Buxoro Respublikalarining 1920—21-yilda, shuningdek, O'zbekiston SSRning 1927, 1937, 1978-yillarda qabul qilingan Konstitutsiyalari mazmun-mohiyatiga ko'ra haqiqiy mustaqil davlatning qonuni emas edi.

Ushbu sho'ro Konstitutsiyalarida inson huquqidan ko'ra davlat huquqi hukmron edi. Shu bilan birga milliy manfaat masalasi ham o'z yechimini topmagan edi.

Respublika hududida 28 ittifoq va 17 respublika ittifo-

qining vazirlik va boshqaruvlari mavjud bo'lib, ular iqtisod va siyosat hamda tarbiyaga oid sohalarni o'zining ta'sir doirasida ushlab turgan. Ular respublika mulki va milliy boyligining asosiy qismiga ega bo'lib, ular ustidan iqtisodiy va siyosiy jihatdan o'z hukmronliklarini o'tkazganlar. Mustaqillikning dastlabki yillarida bu holatga barham berish zarur edi. Jamiyatni tanazzulga yetaklayotgan muammolarni bartaraf etish yo'lida bir qator ishlar amalga oshirildi. Eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va unga mos bo'lgan hokimiyat va boshqaruv organlari barham toptirildi. Siyosiy va iqtisodiy boshqarish hamda tartibga solishning ko'pgina tuzilmalari tugatildi. Chunki ular inson huquqlariga va mustaqillikka rahna soluvchi ma'muriy-buyruqbozlik tizimining ustunlari edi. 1990-yil 24-martda Respublika Oliy Kengashining birinchi sessiyasi muhim tarixiy qaror qabul qilib, O'zbekiston Prezidenti lavozimini ta'asis etdi. O'zbekiston tarixida ilk marotaba joriy etilgan Respublika Prezidenti lavozimi yangi O'zbekiston davlat hokimiyati organlari tizimida markaziy o'rinni egalladi. U siyosiy tizimning o'zagi bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1990-yil 1-noyabrda «Ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish to'g'risida» Qonun qabul qilib, sobiq hukumat — Ministrlar Sovetini tugatib, Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasini vujudga keltirdi. Mazkur tarixiy qadam tufayli prezidentlik hokimiyati bilan avvalgi hukumat timsolidagi ijro-boshqaruv hokimiyati birlashtirildi.

Konstitutsiya suveren davlatni shakllantirishning asosiy poydevori, mustaqil davlatchiligimizning tamal toshi bo'ldi. Konstitutsiyaning 11-moddasiga muvofiq qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslangan tizim yaratildi. Ularning har biri faoliyatida huquqiy asosda avtoritarizm va totalitarizmning xurujlarini istisno etadigan chinakam demokratik me'yorlar va yo'l-yo'riqlar qaror toptirildi. Konstitutsiyada hokimiyat taqsimlanish prinsipi — hokimiyatning uchta tarmog'i: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati o'rtasida muvozanat saqlanishining oqilona tizimi yaratilganligini bildiradi. O'zbekiston Oliy Kengashi O'zbekistonning mus-

taqilligini ta'minlashga qaratilgan yangi qonunchilik tizimini vujudga keltirish yo'ldan bordi. 1990—1994-yillarda Oliy Kengash 200 ga yaqin qonun, 500 dan ziyod qaror qabul qildi. Konstitutsiyaga muvofiq ilk marotaba Respublika Parlamenti — Oliy Majlis tashkil etildi. Davlat hokimiyatining Oliy Majlis va xalq deputatlari mahalliy kengashlaridan iborat vakillik idoralari tarmog'i vujudga keltirildi. Oliy Majlis qonunlarni yaratish va amalga kiritish sohasida samarali ishlab turibdi.

Asosiy Qonunning negizida Respublika sud tizimi mustaqil hokimiyat sifatida qaror toptirildi. Sud hokimiyatining yangi tuzilmalari yuzaga keldi. Sudning huquq doirasi kengaydi.

Mamlakat mudofaasini ta'minlashda yangi tizim barpo etildi. Milliy armiya — O'zbekiston Qurolli Kuchlarining tashkil etilishi milliy davlatchilik qaror topishi yo'lida muhim yutuq bo'ldi.

Tashqi aloqalarni ta'minlaydigan tuzilmalar: Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi (1992-yil 21-fevral), Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki (1991-yil 7-sentyabr) tuzildi va boshqa ixtisoslashgan muassasalarning butun boshli tarmog'i vujudga keltirildi.

O'zbekistonda ijroiya hokimiyati davlat hokimiyatining tarkibiy qismi sifatida mukammallik, yuqoridan pastga tomon mantiqiy davomiyligi huquqiy jihatdan konstitutsiyada mustahkamlangan. Respublikada mahalliy hokimlik tizimining joriy etilishi tufayli joylarda ham mas'uliyat hissi ortdi, davlat tadbirlari, intizom, huquqiy tartib va qonuniylikka rioya qilish samarali bo'lmoqda. Boshqaruv va hokimiyat idoralari o'rtasidagi munosabatlar konstitutsiyaviy asosda tartibga solinib, mansabdor shaxslarning javobgarligi kuchaytirildi. Boshqaruv tizimidagi nuqsonlarga, ayniqsa bir idora funksiyasining boshqa idoralar tomonidan takrorlanishiga barham berildi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish sohasida noyob mexanizm tuzildiki, uning ildizlari tarixan tarkib topgan jamoa munosabatlari — mahallaga borib taqaladi. Shaharlar, qishloqlar, mahallalar fuqarolarning yig'ini fuqarolarga davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini amalga oshirishga yordam beradi. Ular o'z hudu-

didagi ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini hal qilish uchun uyushtiradigan organ sifatida tan olindi.

Shu bilan davlat mohiyati tubdan o'zgardi. Davlat islohotlarning bosh tashabbuskori va yo'naltiruvchisi, ijtimoiy hayotdagi yangi g'oyalarni asosiy amalga oshiruvchi bo'lib qoldi. **Davlatning ichki va tashqi siyosati yo'nalishlari pirovard maqsadi** chinakam mustaqil O'zbekistonni barpo etishdir. **Bosh vazifa** xalqchil adolatli jamiyatni bunyod etishga qaratilgan. Bu maqsad va vazifani amalga oshirish yo'lida islohotlar olib borilib, bu borada bir qator yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. O'zbekistonning jahondagi nufuzi yanada oshib bormoqda.

XX asr oxirlariga kelib, O'zbekistonni suveren davlat sifatida dunyoning 180 mamlakati tan olgani va jahon hamjamiyatining 60 davlati u bilan diplomatik aloqalar o'rnatgani respublikaning ulkan nufuzini ko'rsatadi. 1997-yilga kelib Toshkentda 35 mamlakat elchixonalarining faoliyat ko'rsatishi ham diqqatga sazovor. Shu bilan birga 88 ta chet davlat vakolatxonalarining ro'yxatdan o'tganligi, 24 ta hukumatlararo tashkilot va 13 ta nodavlat tashkilotining ishlab turganligi ahamiyatga molikdir.

1999-yil ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston 130 dan ortiq davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalar o'rnatgan. O'zbekistonda 15 mingdan ortiq eksport-import operatsiyalari o'tkazadigan korxonalar ro'yxatga olingan. 3500 dan ziyod xorijiy investitsiyalar ishtirokida korxonalar tuzilgan. Bular xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining chet el diplomatik vakolatxonalari AQSh, Germaniya, Fransiya, Turkiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Misr va boshqa davlatlarda faoliyat ko'rsatib turibdi.

Dunyoda o'ziga xos boy madaniy va ma'naviy qadriyatlariga ega bo'lgan 1600 dan ortiq etnik guruh yashaydi. Ularning ko'pchiligi o'z milliy davlatchiligiga ega emas. Bugungi kunda dunyo siyosiy xaritasida ikki yuzdan ortiq davlat bor. Ana shu davlatlar orasida O'zbekiston mustaqil davlat sifatida tarix sahnasida o'z o'rniga ega bo'lib, xalqaro miqyosda nufuzi ortib bormoqda.

O'zbek milliy davlatchiligi tarixiy ildizlari qadimiy

bo'lib, hatto dunyoda ilk davlatchilik yuzaga kelgan o'lkalar bilan davlatchilik shakllanish va rivojlanish tarixi bo'yicha bellasha oladi. Chunki biz yashab turgan o'lka qadimiy sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lgan. Davlatchilik 2500 yil muqaddam ilgari shu zaminda qaror topgan. Buyuk Xorazm, Baqtriya davlat birlashmalari o'zbek davlatchiligining ibtidosidir. O'zbekiston zaminida yashayotganligimizdan va shu yurt farzandi ekanligimizdan qalbimiz faxr-iftixorga to'ladi.

Mustaqil O'zbekiston davlati taraqqiyotiga tahdidlar yo'q emas. Bu tahdidlardan Konstitutsiya qudratli kuch sifatida himoya qila oladi. Har qanday tahdidan ogoh bo'lishga undaydi va ularga qarshi kurasha olish yo'lini ko'rsatib beradi. Davlat mustaqilligiga va mamlakatimiz xavfsizligiga rahna soluvchi tahdidlar quyidagilardir: **mintaqaviy mojarolar; diniy ekstremizm va fundamentalizm; buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik; etnik va millatlararo ziddiyatlar; korrupsiya va jinoyatchilik; mahalliychilik va urug'-aymoqchilik; ekologik muammolardir.** Bu tahdidlar jamiyatni tanazzulga yetaklaydi va inson huquqlari buzilishiga olib keladi. Shuning uchun Konstitutsiyada bu tahdidlardan himoyalalanish tizimining barcha huquqiy jihatlarini mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi
--

Sizlar maktabda «Davlat va huquq asoslari» fanini o'qigan vaqtlaringizda davlat shakllari:

davlat tuzilishi va davlat boshqaruvi, davlat siyosiy rejimi tushunchalarining mohiyatini o'rgangansizlar. Davlat tuzilishi shakli uch turda: unitar (oddiy), konfederativ va federativ (murakkab) shakllarda bo'ladi.

O'zbekiston o'zining davlat shaklini aniqlashda respublikamizning o'ziga xos sharoitlari, tarixiy tajriba va an'alarini, milliy mentaliteti, ya'ni xalqimizning fikr yuirtish, jamiyat hayotini anglash va talqin qilish sohasidagi hamda davlat qurilishi borasidagi jahon amaliyoti yutuqlari inobatga olinib, davlat tuzilishining eng mukammal shakli tanlandi. O'zbekiston Respublikasiga davlat tuzilishining unitar shakli xosdir. Biroq, O'zbekiston davlati tuzilishi o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Uning tuzilish tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi ham mavjud. Shu

nuqtai nazardan olib qaraganda federativ davlat tuzilishiga xos ba'zi elementlarni davlatchiligimiz o'z mazmunida mujassam etadi. O'zbekiston yagona hudud, yagona fuqarolik, yagona qonuniylik, yagona Oliy davlat hokimiyatiga ega markazlashgan unitar davlatdir. Unitar davlatlarga Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Fransiya, Italiya va shu kabilar kiradi. Unitar davlatdan federativ davlatning farqi shundan iboratki, federativ davlat bir necha mustaqil davlatlar yoki alohida hududlarning birlashishi natijasida yuzaga keladi. Federativ davlatlarga AQSh, Germaniya, Hindiston, Rossiya misol bo'la oladi. Federativ davlat federal hokimiyat tizimiga, federal qonunchilikka, federatsiya sub'ektlarining tengligiga va ularning o'ziga xos mustaqillik belgilariga ega bo'ladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribalarini asosli yo'sinda aks ettirib, bu jihat milliy davlat va ma'muriy-hududiy birliklar hamda hokimiyat va boshqaruv organlari tuzilishida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 3-moddasida mustahkamlangan qoidaga binoan **«O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatni amalga oshiradi»**. Bu norma O'zbekiston davlat sifatida o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududi tuzilishini o'zi belgilab, mustaqil siyosatini olib borishini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi huquqiy asoslari Konstitutsiyaning 4-bo'limi 68—75-moddalaridagi qoidalarda berilgan. O'zbekiston Respublikasi o'z ichki hududiy tuzilishiga ega. Konstitutsiyaning 68-moddasidagi qoidaga muvofiq **«O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat»** bo'lib, bular O'zbekiston hududining tarkibiy bo'g'inlaridir. Bunday bo'linish **idora etishning davlat organlariga aholining yaqin bo'lishini, ishlab chiqarishni samarali tashkil qilishni** nazarda tutib amalga oshiriladi. 67-moddaga binoan **«Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va**

ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi». O'zbekiston Respublikasi tarkibini: Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat, 163 ta tuman, 119 ta shahar, 115 ta shaharchalar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishining davlatning yaxlitligi, ***davlat organlari tuzilishining yagonaligi*** va shu kabi prinsiplari mavjud. **O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishining o'ziga xos belgilari tizimi quyidagilardan iborat:** *suverenitetning butun hududda amal qilishi, konstitutsiya va qonunlar, davlat hokimiyati organlari, davlat hududi, yagona fuqarolik, davlat tili, yagona qurolli kuchlar, O'zbekiston davlati ramzlari, poytaxti* va shu kabilar.

O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishining muhim belgilari: *hudud, aholi, hokimiyat va suverenitetdir.*

O'zbekiston Respublikasi hududi: 447,4 ming kv. km. ni tashkil qiladi. Davlat hududi chegaralarini va davlat suvereniteti amal qilishini belgilovchi chiziq — *davlat chegarasi deb ataladi.* Davlat chegarasi ma'lum davlatni boshqa davlatlar hududidan yoki xalqaro hududlardan ajratib turadi. O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasini belgilash, o'zgartirish, himoya qilish va qo'riqlash sohasidagi munosabatlar «O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida»gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu Qonunning 3-moddasiga binoan, **O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi O'zbekiston Respublikasi hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo'shlig'ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal sathdan iborat.**

O'zbekiston Respublikasi besh mustaqil davlat — Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston davlatlari bilan chegaradosh. Davlatimiz chegaralarining umumiy uzunligi 6221 kilometrni tashkil etadi. Jumladan, Afg'oniston bilan chegara — 137 km, Qozog'iston — 2203 km, Qirg'iziston — 1099 km, Tojikiston — 1161 km, Turkmaniston bilan 1621 km dan iborat.

Har bir davlat o'z chegaralari doirasida joylashgan

hududiga ega. *Davlat hududi tushunchasi* — yer sharining ma'lum davlat chegaralariga tegishli bo'lgan qismini bildiradi. Chegaradosh davlatlarning hududlari bir-biridan davlat chegaralari bilan ajratiladi. Elchixonalar, konsulliklar va O'zbekiston Respublikasining boshqa xorijiy vakolatxonalari ham mamlakatimizning davlat hududi hisoblanadi. Davlatning hududiy hukmronligi uning o'z hududida to'la va beistisno mustaqilligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi hududi va iqtisodiy qudrati bo'linmas, uning chegaralari esa daxlsiz bo'lib, davlat himoyasidadir. Bu prinsip konstitutsiyada ham belgilab qo'yilgan. *Mamlakat hududining yaxlitligi va chegaralarining daxlsizligi har qanday davlatning muhim belgisi va hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy prinsiplaridandir.*

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasiga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmas bo'lib, uning xalqi o'z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib o'zgartirilishi mumkin emas». Hududning yaxlitligi va daxlsizligi davlat xavfsizligining asosiy elementi bo'lib, ularni himoya qilish va ta'minlash davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

O'zbekiston davlat chegarasini qo'riqlash vazifasini Respublika Milliy xavfsizlik xizmati chegara qo'shinlari amalga oshiradi. O'zbekiston chegarasi bilan bog'liq masalalar chegaradosh davlatlar bilan shartnoma va kelishuvlar asosida hamda umum e'tirof etilgan xalqaro me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Davlat chegarasi masalasida O'zbekiston izchil ravishda hozirgi zamon siyosiy tamoyillariga monand yo'ldan bormoqda.

O'zbekiston xalqi

O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tashkil etadi. Bu konstitutsiyaning 8-moddasida qayd etilgan. O'zbekiston aholisi 23,7 million kishi (1997-yil). O'zbek millati aholining taxminan 78 foizini tashkil etadi. Ayni vaqtda O'zbekiston hududida o'z madaniyatiga va an'analari ega bo'lgan millat vakillari yashaydi. O'zbekiston hududida 130 millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Millat vakillarining tarkibiga agar e'tibor bersak: ruslar,

tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, ozarboyjonlar, uyg'urlar, tatarlar, dunganlar, gruzinlar, moldavanlar, arman, yahudiy va boshqa milliy guruhlar yashab mehnat qilishadi.

Respublikada istiqomat qiluvchi barcha millatlarning milliy madaniyatlari, urf-odatlari, an'analari va tillariga o'zaro hurmatda bo'lish konstitutsiyaviy talablardan biridir. Konstitutsiyaning 4-moddasida bu masala o'z aksini topgan: «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi». Konstitutsiya O'zbekiston fuqarosi deb hisoblangan barcha shaxslarni, ularning millati, tili, urf-odatlari va milliy an'alaridan qat'i nazar, hurmat qilinishini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Shu bois har bir insonning o'zini erkin va teng huquqli deb his qilish imkonini beradigan munosabatlar o'rnatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining joriy yillarida Respublikada 100 ta milliy-madaniy Markaz ta'sis etildi va ular millatlararo hamjihatlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Ularning tashkil topishi bilan millat vakillarida o'z urf-odatlari, an'analari va tilini qayta tiklash uchun imkoniyatlar yaratildi. Milliy-madaniy Markazlar tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar millatlar o'rtasida aloqalarning yanada mustahkamlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dinga e'tiqod erkinligi ham huquqiy jihatdan ta'minlangan. Bugungi kunda mamlakatimizda ko'p millatlilik sharoitida 15 ta diniy konfessiya birlashmalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVII bobida Qoraqalpog'iston Respublikasining maqomi va uning suvereniteti muhofaza etilishi mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning huquqiy asoslari Konstitutsiyaning 70—75-moddalarida keng yoritilgan. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi. Bunday holat O'zbekistonning va Qoraqalpog'istonning umumiy mushtarak manfaatlariga monand keladi. Qoraqalpog'iston suvereniteti

O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza qilinadi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ham majburiydir. O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar va bitimlar bilan tartibga solinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining konstitutsiyaviy belgilari: o'z konstitutsiyasiga egaligi, respublika parlamenti mavjudligi, respublika maqomining O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi tomonidan belgilanishi tashkil etadi. 1993-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu esa o'zbeklar bilan qoraqalpoqlarning abadiy birligi va qon-qardoshligini to'la tasdiqlaydi.

**O'zbekiston Respublikasi
davlat boshqaruvi**

Boshqaruv har qanday jamiyatning ichki ehtiyojidir. Mehnat jarayoni va umuman har qanday faoliyat jarayonini tashkil

etish ehtiyoji boshqaruvni keltirib chiqaradi. **Boshqaruv** — ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Jamiyat maxsus boshqaruv tizimisiz mavjud bo'la olmaydi. Jamiyat hayotidagi tartib jamiyat nomidan ish yurituvchi maxsus davlat boshqaruv tizimi va mustaqil shaxs hamda jamoalarning ijtimoiy o'z-o'zini boshqaruvi tizimi asosiga qurilgandir. Lekin davlatgina jamiyatning yaxlit boshqaruv tizimi bo'lib xizmat qila oladi. Davlat boshqaruvining o'ziga xos tizimi shundaki, u davlat qonunlarining hamma fuqarolar uchun majburiy bo'lgan kuchiga, jamiyatga va uning a'zolariga taalluqli bo'lgan ommaviy hokimiyatga tayanadi. Davlat boshqaruvining samaradorligi uning hokimiyati uyushqoqligi bilan kafolatlanadi. Ijtimoiy boshqaruv tizimida davlat asosiy bo'g'inni tashkil etadi. Buni davlat tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruvni anglatgani uchun «**Davlat boshqaruvi**» deb atash mumkin. **Davlat boshqaruv tizimi** — ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi idoralar tizimi, ya'ni ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tizimidan iborat.

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimi quyidagilardan iborat:

— O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti — respublika ijro hokimiyatining boshlig‘i sifatida;

— O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligidagi Vazirlar Mahkamasi — respublika hukumati;

— O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari;

— O‘zbekiston Respublikasi davlat qo‘mitalari; O‘zbekiston Respublikasi markaziy davlat boshqaruvi idoralari va ularning joylardagi mahalliy organlari;

— viloyat, shahar, tuman hokimliklari hamda ularning bo‘lim va boshqarmalari.

Davlat boshqaruvi tizimining yuqoridagi tarmoq va yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va har bir sohaga tegishli qonun hujjatlariga tayanib ish ko‘radilar.

Davlatning boshqaruv shaklini aniqlashda eng muhim belgilardan biri davlat boshlig‘ining huquqiy maqomi qandayligi, u davlat boshiga qanday yo‘l bilan kelishi hisoblanadi. Hozirgi dunyodagi mamlakatlar boshqaruv tizimi shakl jihatdan turlichadir. Dunyo davlatchiligi taraqqiyotida boshqaruvning asosan ikki shakli — respublika va monarxiya shakli keng tarqalgan.

Respublika xalq hokimiyati demakdir. Respublika tushunchasi huquqiy qadriyat sifatida — *davlat idoralari vakolatlarini aniq belgilab berishni, qonun chiqaruvchi va ijroiya organlarning saylab qo‘yilishini, ovoz beruvchilarning xohish-irodasi hisobga olinishini* bildiradi. Bu jihatlar Respublika tushunchasining ajralmas belgilaridir.

Respublika o‘z navbatida Prezidentlik Respublikasi, Parlamentar Respublika va aralash respublika shaklida bo‘ladi. Prezidentlik Respublikaning Parlamentar respublikadan farqi shundaki, prezident xalq tomonidan saylanadi, u davlat va ijro hokimiyatning boshlig‘i hisoblanadi, hukumat prezident tomonidan tuziladi va unga hisobot beradi.

Parlamentar respublikada esa parlament, ya‘ni Oliy vakillik, qonun chiqaruvchi idora, prezidentni va hukumat tarkibini saylaydi. Parlament saylovlarida g‘alaba qilgan partiya rahbarlari hukumatni tuzadilar. Hukumat boshlig‘i bosh vazir bo‘lib, real hokimiyat uning qo‘lida bo‘ladi. Parlament hukumat qarorlariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Butun hukumat yoki uning ayrim a'zolarini iste'foga jo'natadi. Hukumat parlament oldida hisob beradi. Davlat boshqaruvining parlamentar respublika shakli hozirgi davrda Olmoniya Federativ Respublikasi, Italiya, Hindiston, Avstriya, Polsha, Ruminiya, Turkiya kabi mamlakatlarda o'rnatilgan.

Aralash respublikada prezidentlik va parlamentar respublikaning asosiy xususiyatlari aralashgan holda o'z aksini topadi. Bunda prezident bevosita xalq tomonidan ma'lum muddatga saylanadi. U bevosita hukumatga rahbarlik qilmaydi. Hukumatni bosh vazir boshqaradi. Prezident Konstitutsiyaga binoan parlament yoki uni quyi palatasini tarqatib yuborish huquqiga ega. Qonun bilan belgilangan muddat o'tgandan so'ng, xalq tomonidan saylangan hokimiyat organlarining vakolati tugatiladi va ularga qaytadan saylov o'tkaziladi. Aralash respublika shakli hozirgi davrda Fransiya va Rossiya Federatsiyasi uchun xosdir.

Davlat boshqaruvining prezidentlik respublikasi shakli — davlat boshqaruvining samarali shakli bo'lib, davlatni boshqarish san'ati nazariyoti va amaliyotining taraqqiyoti natijasida tarixiy tajriba asosida tanlab olingan yo'llardan biri. Bu boshqaruv shaklida davlatni boshqarishda Parlamentga nisbatan Prezidentning huquqlari ustuvorligi ta'minlangan bo'ladi.

Prezidentlik respublikasi hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan davlat boshqaruv shakli hisoblanadi. 1995-yilgi ma'lumotga ko'ra BMTga a'zo 186 davlatdan 140 tasida prezident lavozimi mavjud bo'lib, ularning aksariyati prezidentlik respublikasidir. Bular AQSh, Argentina, Braziliya, Meksika, Gonduras, Zambiya, Urugvay va boshqalardir.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, mamlakatda davlatni idora etishning zamonaviy hamda samarali shakli — prezidentlik shakli tizimi qaror toptirildi. Ya'ni, *O'zbekistonda davlat boshqaruvining Prezidentlik Respublikasi shakli o'rnatilgan.* Prezidentlik Respublikasi shakli xalqning ma'naviy qadriyatlari, xohish-istaklari va ruhiga mos keladi. Kuchli Prezidentlik Respublika boshqaruvi — kuchli ijroiya, idora qiluvchi hokimiyatdir. Ya'ni Respublika Parlamenti va xalqi oldida O'zbekiston

kelajagini, fuqarolarning siyosiy erkinligini ta'minlashga qaratilgan kuchli ijroiya hokimiyatidir.

Prezidentlik Respublikasida eng muhimi — hokimiyat bo'linishini adolatli tarzda amalga oshirish imkoni bor. Ya'ni, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati bir-biridan mustaqil holda ish olib boradi. Prezidentlik Respublikasida ijro hokimiyati Prezident qo'lida bo'ladi. O'zbekiston nima uchun davlat boshqaruvining aynan shu usulini tanladi? Buning sabablari bor. **Birinchi**dan — sharqda demokratiyaga keng imkoniyat yaratilishi bilan birga kuchli hokimiyat mavjud bo'lgan. Davlat boshlig'i talabchan, qat'iyatli, tinchlik, adolat va haqiqatga xizmat qilgan. **Ikkinchi**dan — boshqaruvning parlamentar respublika usulida prezident parlament yig'ilishida uning a'zolari tomonidan saylanadi. Prezidentlik Respublikasida esa, u umumxalq saylovi yo'li bilan barcha fuqarolarning ovoz berishi bilan saylanadi. Bunda prezident o'z vakolatini parlamentning sanoqli a'zolaridagina emas, bevosita keng xalq ommasidan oladi. Qolaversa, buning siyosiy, huquqiy, ma'naviy va demokratik mazmuni ham bor. Demak, jamiyatni boshqarishda davlat boshliqlarini saylash tartibi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Prezidentning xalq tomonidan saylanishi, o'z vakolatini xalqdan olishi boshqaruvning samarali amalga oshirilishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun boshqaruvning Prezidentlik Respublika shakli davlat boshqaruvining eng maqbul shaklidir.

Prezidentlik Respublika boshqaruvi Prezidentga qat'iy, dadil va jasurlik bilan faoliyat ko'rsatishi uchun imkon yaratadi. Prezident davlat va ijroiya hokimiyatining boshlig'i sifatida chinakam xalq yo'lboshchisi, tadbirkor va tashkilotchilik sifatlariga ega bo'lishi zarur. Respublika Prezidenti Islom Karimov faoliyatida ana shunday sifatlar yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Prezidentning demokratik qarashlari, qadriyatlarga tayanishi, rivojlanishni oldindan seza bilishi, yuz berayotgan jarayonlarga ilmiy asosda yondoshishi, yechimlarni izlashda ommaga tayanishi, asoslangan rejalarni hayotga tadbiiq etishi, siyosatda tadbirkorlik va oqillik kabi fazilatlarini keltirish o'rinlidir.

Boshqaruvning Prezidentlik Respublikasi shakli mam-

lakatda demokratik siyosiy tuzumni kafolatlaydigan demokratik tashkiliy davlat hokimiyatini ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda «Respublika» tushunchasi «demokratiya» tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini tashkil etish va amalga oshirish usul va vositasi demokratik asosga qurilgan. Bilasizki, davlat siyosiy rejimining demokratik, totalitar, avtoritar turlari mavjud. O'zbekistonda hokimiyatni amalga oshirishda demokratik yo'l maqbul topilgan. Kuchli va ta'sirchan demokratik davlat hokimiyati bilan totalitarizm, avtoritarizm, diktatura o'rtasida hech qanday musharaklik yo'q. Faqat demokratiya ustuvor bo'lgan davlatgina xalqni baxt-saodatga eltib boradi.

Demokratiya bu Konstitutsiya va qonunlar doirasida erkinlik demakdir. Konstitutsiyamizda demokratik respublikaning barcha belgilari bor. Jumladan: **xalq hokimiyatning yagona manbaidir, davlat boshlig'i saylanadi va almashib turadi, vakillik organlari muhim o'rin tutadi, fuqaroning huquq va erkinliklariga asoslangan huquqiy maqomi mavjudligini** aytishimiz mumkin.

Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi uchta mezon bor. **Birinchisi** — xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligi, **ikkinchisi** — hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, **uchinchisi** — oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir.

Xalqni hokimiyatning yagona manbai sifatida tan olish boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan demokratik davlatlarga xos xususiyatdir. Xalq hokimiyatchiligi hokimiyatning davlat tuzilmalari (ijro etuvchi va vakillik organlari) va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari orqali amalga oshiriladi. Xalq hokimiyatchiligining *bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) demokratiya va bivosita, ya'ni vakillik shakli* mavjud. **Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) demokratiya shakliga: referendum (umumxalq ovoz berishi), saylovlar, qonun loyihalarini muhokama qilish, yig'ilishlar, mitinglar va namoyishlar, hokimiyat tuzilmalariga yakka tartibda va jamoa bo'lib murojaat qilish** kabilar kiradi. **Vakillik shakliga esa, butun davlat, vakillik idoralari, siyosiy partiyalar,**

jamoat birlashmalari, ommaviy ijtimoiy harakatlar kiradi. Demokratiyaning asosiy vazifasi — jamiyatdagi kuchlarni murosa asosida birlashtirib, ularni umumrizo qarorga, ya'ni konsensusga olib kelish va mamlakatning taraqqiyoti uchun xizmatga safarbar qilishdan iboratdir. Bugungi kunda O'zbekiston demokratiya tamoyillariga amal qilgan holda rivojlanmoqda.

11-§ bo'yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash uchun topshiriqlar.

Mustaqil fikr bildiring



- 1) Sobiq sho'ro davlatchilik qurilmasining mohiyatini ochib bering.
- 2) Sho'ro davrida qabul qilingan Konstitutsiyalar mazmuniga munosabat bildiring.
- 3) O'zbekistonning milliy davlatchilikni rivojlantirish tajriba va istiqbollari haqida fikr yuriting.
- 4) O'zbek milliy davlatchiligi rivojlanishi boy huquqiy merosga asoslanishini tarixiy dalillarga suyanib izohlang.

Davlat va statistik ma'lumotlar keltiring



Mustaqil O'zbekistonning jahonda xalqaro huquq sub'ekti sifatidagi nufuzining ortib borishi:

- 1) davlatlararo munosabatlar;
- 2) iqtisodiy sohadagi munosabatlar;
- 3) jahon hamjamiyati bilan aloqalar;
- 4) turli yo'nalishdagi o'zaro shartnomalar;
- 5) inson huquqlariga daxldor xalqaro huquqiy hujjatlarning ratifikatsiya qilinishi.

Bilimingizni mustahkamlang



O'zbekistonda davlat tuzilishi va boshqaruv shakli bo'yicha olgan bilimlaringizni jadvalga qayd qilib, uni Konstitutsiyadan kelib chiqqan holda asoslab bering.

O'zbekistonda davlat tuzilishi	O'zbekistonda davlat boshqaruvi

**Qonunlar
bilan tanil-
shing**



O'zbekistonda milliy davlat tuzilishi va boshqaruv shaklini Konstitutsiya asosida qabul qilingan qonunlar asosida izohlab bering.

**Konstitutsiya-
viy qoidalarini
izohlang**



Konstitutsiyaning to'rtinchi bo'limidagi 68—75-moddalardagi qoidalar mazmunini izohlab, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishini yoritib bering.

**Mulohaza
yuriting**



Konstitutsiyaning XVIII bobi Qoraqalpog'iston Respublikasiga bag'ishlanadi.



70-modda: «Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston tarkibiga kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza qilinadi.»

1995-yil «Tafakkur» jurnalining 3/4 sonda chop etilgan To'lepbergen Qaipbergenovning «Xalqingni suy, Turkistonni suy» mavzusidagi savollarga javoblaridan:

Savol: Sizningcha istiqloq ne'matlari qoraqalpoq xalqi taqdiriga qanday mazmun bag'ishladi?

Javob: Xabaringiz bor, mening deyarli barcha asarlarimda qoraqalpoq xalqining millat sifatida shakllanish jarayoni, uning turkiy qardoshlar bilan birlikka talpinib, o'zligini topishga intilish tarixi yoritiladi. Orol fojeasi o'laroq aytish mumkinki, mustamlaka zulmini, mustabid tuzum tazyiqini biz hammadan ham ko'proq tatidik. Shu bois, Vatanimiz mustaqilligidan biz barchadan ortiq quvondik. Istiqloq tufayli qoraqalpoq tili, dini, milliy qadriyatlarini erkin rivojlantirish, milliy maktab-maorifni yo'lga solish, o'z sharoitimizga mos iqtisodiyot yuritib, turmush kechirish imkoniyatiga ega bo'ldik.

U sobiq SSSR davrida nomigagina muxtor jumhuriyat sanalar, aslida oddiy viloyat maqomida edi. Qoraqalpoq xalqi endi haqiqiy qadr-qimmatni topa boshladi.

**Xotirada
saqlang**



Quyidagi tushuncha va so'z birikmalarini esda tuting va dars jarayonida ularga o'z munosabatingizni bildiring:

Davlat shakli, davlat tuzilishi, davlat boshqaruvi, davlat hududi, davlat chegarasi, hudud va chegara daxlsizligi, davlat aholisi, O'zbekiston xalqi, Prezidentlik va Parlamentar Respublika, demokratiya.

12-§. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PARLAMENTI — OLIY MAJLIS

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisining davlat
hokimiyati organlari
tizimida tutgan o'rni**

Parlamentning davlat organlari tizimidagi o'rni va mavqei juda muhim. Parlament so'zi fransuzcha «parler» so'zidan olinib, gapirmoq, so'zlam oq ma'nosi ni anglatadi. Nimaga davlatning oliy organi «so'zlovchi» organ deb atalganini surishtirsak, biz parlamentning ahamiyatini tushunib olamiz. Qadimgi Rim, Gretsiya davlatlarida xalq vakillik organlari mavjud bo'lgani bilan parlamentning vatani Angliya sanaladi. 1215-yili qirol hokimiyatining zo'rvonligidan charchagan aslzodalar qirol hokimiyatiga qarshi chiqishdi va «Erkinliklar Buyuk partiyasini» e'lon qilishdi. Unga ko'ra davlatning asosiy masalalari hududiy birliklardan yuborilgan aslzodalar vakillik organi bilan bamaslahat qabul qilinishi nazarda tutilgan. Shu davrgacha qirol o'z bilganicha insonlar hayotiga, mol-mulkiga hukmronlik qilib kelgan edi. Parlamentning paydo bo'lishi tarixiy zarurat edi. Chunki odil qirol bo'lganida ham, u oddiy fuqaro manfaatini amalga oshirish uchun barcha hudud xalq vakillaridan mavjud muammolarni bilishi kerak bo'lardi. Parlament oddiy kishilar manfaatlarini ko'zlab davlat hokimiyatini amalga oshirish mexanizmini shakllantirib keldi. Aynan parlamentning paydo bo'lishi jamiyatni evolyutsion rivojlanishiga xizmat qildi. Chunki parlament fuqarolar, ularning turli guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlarni mavjud ijtimoiy holatdan kelib chiqqan holda barcha uchun qulayroq yechimini topib, jamiyatda murosa va tinchlikni ta'minlagan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ham parlamentarizm madaniyatining barcha yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgandir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'yicha davlat hokimiyatining tashkil etilishi va faoliyati vakolatlarining taqsimlanishi prinsipi asosida amalga oshiradi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati davlatning uch asosiy tayanchidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ana shu uchta hokimiyat idorasining

uyg'un faoliyatini ta'minlash vositalari, ularni davlat siyosatining umumiy yo'nalishlari bo'yicha murosaga keltirish va bu idoralarning o'zaro bir-birlarini tiyib turish mexanizmini vujudga keltiruvchi qoidalar mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Respublikada qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi oliy davlat vakillik organi hisoblanadi.

1992-yilgi Konstitutsiya qabul qilgunga qadar, Respublika Oliy Kengashi oliy hokimiyat organi hisoblanar edi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi avvalgi Oliy Kengashdan ko'pgina jihatlari bilan ajralib turadi. Respublika Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlisning 1-sessiyasida so'zlagan nutqida bu farqlarni ko'rsatib o'tib, shunday degan edi: «Oliy Majlis sobiq Oliy Kengashdan butun mazmun mohiyati bilan farq qiladi. Uning shakllanishidan tortib, o'z faoliyatini tashkil etish tartiblari va ish usullarigacha buni yaqqol isbotlaydi»¹.

Respublika Oliy Majlisining avvalgi Respublika Oliy Kengashidan *birinchi farqi* shundaki, Oliy Majlis birinchi marta ko'ppartiyaviylik asosida shakllandi.

Har bir partiyaning deputatlari Oliy Majlisda partiya fraksiyalarini tashkil etadi. Shu partiya fraksiyalari orqali siyosiy partiyalar Oliy Majlisning qonun chiqarish faoliyatida faol qatnashib, shu tariqa davlat boshqaruviga munosib hissa qo'shadigan bo'ldilar. Respublika Oliy Majlisining Oliy Kengashdan *ikkinchi farqi* shundaki, Oliy majlis deputatlarini shakllantirish avvalgi Oliy Kengashni sinfiy asosida soni va o'rnini avvaldan ko'rsatib, shakllanishidan butunlay farq qilib, hozirda mavjud partiya vakillaridan iborat nomzodlar orasidan muqobilik asosida saylanadi.

Respublika Oliy Majlisining avvalgi Oliy Kengashdan *uchinchi farqi* shundaki, Oliy Majlis tarkibidagi deputatlarning ma'lum bir qismi Oliy Majlis tuzilmalari va uning qo'mitalarida doimiy ishlash uchun qoldiriladi.

Respublika Oliy Majlisining yana bir farqli jihati shundaki, Oliy Majlis O'zbekistonni mustaqil tashqi siyosat olib borishi tufayli bir qator nufuzli tashkilot-

¹ I. K a r i m o v. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., «O'zbekiston», 1995, 25-bet.

larga a'zo bo'ldi. Shu jumladan: Parlamentlararo Ittifoq (1992-yil), Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotlarining Parlament Assambleyasi. Oliy Majlis O'zbekistonning jahondagi barcha Parlamentlar bilan aloqalarini yanada mustahkamlash maqsadida o'z qoshida maxsus parlamentlararo aloqalar qo'mitasini tashkil qildi. Bundan tashqari Oliy Majlis avvalgi Oliy Kengashdan boshqa xislatlar bilan, ya'ni deputatlar soni va deputatlikka saylanish yoshi bilan ham farqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bir palatali organdir. Oliy Majlisga saylov umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining vakolat muddati tugagach, u yangi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ish boshlaguniga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

Oliy Majlis vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi qonunning 4-moddasi Respublika Oliy Majlisining vakolatlarini belgilagan edi. Respublika Oliy Majlisining mutloq vakolatlari Respublika Konstitutsiyasining 78-moddasida to'liq ko'rsatib berilgan. 1978-yilgi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan, respublikada butun davlat hokimiyatini oliy hokimiyat organi amalga oshirar edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentlik shakliga o'tganligi munosabati bilan Respublikaning yangi Konstitutsiyasi, Oliy Majlis to'g'risidagi qonun Oliy Majlis vakolatlarini, uning asosan qonun chiqaruvchi organ ekanligini belgiladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatini ko'zlab va faqat davlat idoralari tomonidagina amalga oshiriladi. Shuning uchun O'zbekiston Konstitutsiyasida nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zgartirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga zid hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-mod-

dasiga asosan, O'zbekiston Oliy Majlisining qonun chiqarish sohasidagi mutloq vakolatlarini shaklan besh guruhga bo'lish mumkin. Jumladan: 1) davlat qurilishi sohasidagi; 2) xo'jalik sohasidagi; 3) boshqaruv va sud organlarini tuzish sohasidagi; 4) O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi qonunchiligi sohasidagi; 5) xalqaro aloqalar sohasidagi vakolatlardir.

Oliy Majlisning davlat qurilishi sohasidagi qonunchilik vakolatiga quyidagi masalalar kiradi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartishlar va qo'shimlar kiritish; O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tizimini va vakolatlarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq belgilash; O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularni O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqarish haqidagi qarorlarini tasdiqlash; ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, O'zbekiston Respublikasi chegaralarini o'zgartirish; tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, nomini o'zgartirish va ularning chegaralarini o'zgartirish; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va mahalliy vakillik organlariga saylov tayinlash, Markaziy saylov komissiyasini tuzish; vakolati tugashi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylov kunini tayinlash; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisini va uning o'rinbosarlarini saylash; davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish.

Oliy Majlisning xo'jalik sohasidagi qonunchilik vakolatlari quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash va davlat strategik dasturlarini qabul qilish; boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish; Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish.

Oliy Majlisning O'zbekiston Respublikasining boshqaruv va sud organlarini tuzish sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Bosh

vazirini, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlarini, Vazirlar Mahkamasi a'zolarini, Bosh prokuror va uning o'rinbosarlarini tayinlash va lavozimlaridan ozod etish, vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvi organlarini tuzish hamda ularni tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning raisi va a'zolari, Oliy sudning raisi va a'zolari, Oliy xo'jalik sudning raisi va a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi lavozimiga tayinlash. Basharti, lavozimga ko'rsatilgan nomzod Oliy Majlis tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa, mazkur masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining boshqa taklifi muhokama qilinadi.

Oliy Majlisning O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi sohalari bo'yicha vakolatiga respublika huquq tizimining barcha sohasidagi qonunlarni qabul qilish hamda ularga tegishli o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish kiradi.

Oliy Majlisning xalqaro masalalar sohasidagi vakolatlariga xalqaro shartnomalar va bitimlarni ratifikatsiya (tasdiqlash) va denonsatsiya qilish (barvaqt to'xtatish); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning muddatini uzaytirish va to'xtatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o'z faoliyatini uning tarkibiga saylangan deputatlar orqali amalga oshiradi.

Oliy Majlis deputati o'z saylovchilarining, shuningdek uni deputatlikka nomzod etib ko'rsatgan tegishli siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlarining va nomzod qilib ko'targan tashabbuskor guruhlarining vakili hisoblanadi.

Respublika Oliy Majlisining deputatlari o'z huquqlari va burchlarini ijro etishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda 1995-yil 6-mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida xalq deputatlarining maqomi to'g'risida»gi qonunga amal qilgan holda ishlaydilar. Bu qonunda Oliy Majlis deputatining huquqlari, burchlari va faoliyatining shakllari va kafolatlari to'la ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va qonunchilik palatasi to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qonunlarining 8-moddalarida Senat va Qonunchilik palatasining birgalikdagi vakolatlarini belgilab bergan. Mazkur qonunlarning 9-moddalarida Senat va Qonunchilik palatasining vakolatlari belgilab qo'yilgan.

Oliy Majlis faoliyati shakllari
--

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va uning idoralarining faoliyat tartibi Oliy Majlis to-

monidan 1995-yil 5-mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Reglamenti» hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida chiqarilgan boshqa qonunlar asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatining masalalari jamoa bo'lib, erkin muhokama qilib hal etishga, oshkoralikka, Oliy Majlis tuzadigan organlar hamda u saylaydigan va tayinlaydigan mansabdor shaxslarning jamoatchilik fikrini doimo hisobga olishiga asoslanadi.

Oliy Majlis faoliyatining doimiy va samarali bo'lishi uning sessiyalari, Oliy Majlis Kengashi, Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari hamda deputatlarning ishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ishining tashkiliy shakli — sessiya hisoblanadi. Oliy Majlis sessiyasi uning majlislarida ochiladi yoki yopiladi.

Oliy Majlis sessiyasi uning majlislaridan, shuningdek Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalarining, boshqa organlarining sessiya majlisleri oralig'idagi davrda o'tkaziladigan majlislardan iborat bo'ladi.

Oliy Majlis sessiyalari Oliy Majlis Raisi tomonidan zaruratga qarab, bir yilda kamida ikki marta chaqiriladi. Oliy Majlis Raisi sessiyani chaqirish to'g'risidagi masalani Oliy Majlis Kengashi muhokamasiga kiritishga haqlidir. Bunday hollarda sessiya Oliy Majlis Kengashi tomonidan chaqirilib, bu xususda qaror qabul qilinadi. Sessiyani chaqirish to'g'risidagi qaror hamda uning muhokamasiga kiritiladigan masalalar haqidagi axborot Oliy Majlis deputatlariga va aholiga oldindan ma'lum qilinadi.

Oliy Majlis muhokamasiga kiritilayotgan qonunlar, qarorlar va boshqa hujjatlarning loyihalari deputatlarga oldindan, qoida tariqasida, sessiya ochilishidan kamida o'n kun oldin taqdim etiladi.

Oliy Majlis sessiyasiga tayyorgarlik ko'rish uchun ishchi guruhi tuzilishi mumkin. Deputatlar ishchi guruhiga odatda Oliy Majlis Raisining muovinlaridan biri boshchilik qiladi va sessiyaga qo'yilgan masalalar yuzasidan deputatlar bilan katta tayyorgarlik ishlari olib boradilar.

Oliy Majlisning sessiyasi qaerda va qachon o'tkazilishi to'g'risidagi, shuningdek, sessiyaga kelayotgan deputatlar qaerda va qachon ro'yxatga olinishi haqidagi xabar sessiya ochilishidan kamida uch kun oldin respublika va viloyat gazetalarida e'lon qilinadi, televidenie va radio orqali o'qib eshittiriladi.

Oliy Majlisning ishi unda jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirdagina vakolatli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining saylovdan keyingi birinchi majlisi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovdan so'ng ikki oydan kechiktirmay chaqiriladi.

Oliy Majlisning yangi chaqiriq, birinchi sessiyasining birinchi majlisini Markaziy saylov komissiyasining Raisi ochadi va u majlisni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi saylangunga qadar boshqaradi. Oliy Majlis sessiyasida raislik qiluvchi uning majlislarini ochadi va yopadi, ma'ruzalar qilish va nutqlar uchun so'z beradi, qonunlar, qarorlar va boshqa qonun hujjatlari loyihalarini, deputatlarning ko'rilayotgan masalalarga doir takliflarini ovozga qo'yadi hamda ovoz berish natijalarini ma'lum qiladi, Oliy Majlis sessiyasining Kotibiyatiga deputatlardan tushgan so'rovlar, savollar, ma'lumotlar, xabarlar, arizalar va takliflarni o'qib eshittiradi, majlislar zalida tartibni ta'minlaydi.

Zarur hollarda raislik qiluvchi kelishmovchiliklarni bar-taraf etish hamda Oliy Majlisning ishi davomida yuzaga keladigan boshqa masalalarni hal qilish uchun deputatlar guruhlari, fraksiyalar, bloklarning rahbarlari bilan maslahatlashib oladi.

Oliy Majlis har bir sessiyasining majlisleri davrida sessiya Kotibiyati tuziladi. Kotibiyatning vazifasi Oliy Majlis majlislarining stenogrammasi yuritilishini tashkil etish, so'zga chiqish istagini bildirganlarni yozib berish, deputatlar so'rovlari, savollar, ma'lumotlar, xabarlar, arizalar, takliflarni hamda deputatlarning boshqa materiallarini ro'yxat-

ga olish, fuqarolardan Oliy Majlis nomiga kelayotgan murojaatlar va boshqa hujjatlar bilan ishlashni tashkil etishdir.

Oliy Majlis deputatlari, odatda, eng avvalo sessiyaning kun tartibini muhokama etadilar va qabul qiladilar. Kun tartibiga doir takliflar Oliy Majlis Kengashi tomonidan dastlabki tarzda qarab chiqiladi.

Oliy Majlis o'zining birinchi majlisida, o'zi saylaydigan Mandat komissiyasining taqdimiga muvofiq, deputatlarning vakolatlarini to'g'ri deb topish to'g'risida, saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan hollarda esa, ayrim deputatlarning vakolatlarini haqiqiy emas deb topish haqida qaror qabul qiladi.

Oliy Majlisning majlislari ochiq o'tkaziladi. Oliy Majlisning qaroriga muvofiq, ba'zi hollarda yopiq majlis o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining istalgan ochiq va yopiq majlisida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiruvchi shaxslar, Konstitutsiyaviy, Oliy sud, Oliy Xo'jalik sudlarining raislari, Bosh prokuror, Markaziy bank boshqaruvining raisi hozir bo'lishlari mumkin. Bu yerda gap ko'rsatilgan mansabdor shaxslarning Oliy Majlis majlislarida qatnashish huquqi haqida boradi. Oliy Majlisda bunday kishilarning ishtirok etishi hokimiyat barcha shaxobchalarining samarali hamkorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yuqorida ko'rsatilgan mansabdor shaxslar, faqat Oliy Majlis ishida emas, balki Oliy Majlis organlari, jumladan, uning Kengashi, qo'mita va komissiyalarining majlislarida ham qatnashishlari mumkin.

Oliy Majlis reglamentida ko'rsatilishicha (17-modda), Oliy Majlis yig'ilishlarida Oliy Majlisning Kengashi tomonidan taklif etilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, ilmiy muassasalar, matbuot, televidenie, radio vakillari va boshqa shaxslar hozir bo'lishlari mumkin. Taklif etilgan shaxslar Oliy Majlisning ishiga aralashish huquqiga ega emaslar, ma'qullayotganliklari yoki ma'qullamayotganliklarini bildirishdan o'zlarini tiyib turishlari, tartibga rioya qilishlari hamda raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'ysunishlari shart.

Majlislar, Oliy Majlisning qaroriga muvofiq, aholi uchun qulay vaqtda televidenie orqali ko'rsatilishi va radio orqali

eshittirilishi mumkin. Majlislar to'g'risidagi axborot respublika va viloyat gazetalarida bosib chiqariladi, shuningdek, boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Oliy Majlisning reglamentida ko'rsatilishicha, Oliy Majlis ishi davlat tilida olib boriladi va rus tilida hamohang tarjimai ta'minlanadi. Deputat o'zbek va rus tillaridan boshqa tilda so'zga chiqish niyatini Sessiya kotibiyatiga oldindan ma'lum qilib qo'yadi. Barcha nutqlarni o'zbek va rus tillariga tarjima qilish ta'minlanadi.

Oliy Majlis ishiga raislik qiluvchi arizalarning tushish navbati bo'yicha muzokaralarda qatnashish uchun so'z beradi. Oliy Majlis deputati sessiyada aynan bir masala bo'yicha ikki martadan ortiq so'zlashi mumkin emas. So'zga chiqish huquqini boshqa shaxsga berishga yo'l qo'yilmaydi. Ma'ruzachilarga savollar yozma ravishda yuboriladi yoki o'tirgan joydan mikrofon orqali beriladi.

Oliy Majlisda ko'rilayotgan masalalar bo'yicha muzokaralarni to'xtatish sessiyada, hozir bo'lgan jami deputatlarning ko'pchiligi tomonidan ochiq ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Ma'ruzalar to'xtatilgandan keyin ma'ruzachi va qo'shimcha ma'ruza qilgan shaxs yakunlovchi nutq bilan so'zga chiqishga haqlidir.

Oliy Majlisning majlislarida ko'rilayotgan masalalarga doir qarorlar ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda yoki Oliy Majlisning qaroriga muvofiq yashirin ovoz berish o'tkaziladi. Bir masala yuzasidan ovoz berish o'tkazilayotganida, har qaysi deputat bitta ovozga ega bo'ladi hamda taklifni yoqlab yoki unga qarshi ovoz beradi yoxud ovoz berishda betaraf qoladi. Ovozlarni sanab chiqish tamom bo'lganidan keyin raislik qiluvchi ovoz berish natijalarini e'lon qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining navbatdan tashqari sessiyasi Oliy Majlisning Raisi tomonidan uning tashabbusi bilan yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining yoxud Oliy Majlis deputatlari kamida uchdan bir qismining taklifi bilan chaqiriladi.

Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni va 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan Referendumning yakunlari bo'yicha

amalga oshiriladigan qonunchilik ishlarining asosiy yo'nalishlari, 2002-yil 12-dekabrda O'zbekiston Oliy Majlisining Senati va Qonunchilik palatasi to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qonunlarning qabul qilinishi Oliy Majlis faoliyatining shakllariga jiddiy o'zgartirishlar kiritilishiga asos bo'ldi.

Mazkur qonunlarga ko'ra, Oliy Majlis navbatdagi saylov va palatalarni shakllantirish yakunlari asosida yuqori palata (Senat) va quyi palata (qonunchilik palatasi)dan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Senati hududiy vakillik palatasidir.

Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda olti kishidan saylanadi.

Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Senat ishi majlislarga va uning qo'mitalari majlislariga to'planadigan senatorlar faoliyatiga asoslanadi.

Senatda hududiy mansublikka ko'ra hamda siyosiy yoki boshqa asosda guruhlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatasidir. Bu palata saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat bo'ladi.

Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi.

Qonunchilik palatasi faoliyatining tashkiliy shakli uning Qonunchilik palatasi sessiyalari davrida o'tkaziladigan majlislaridir.

Navbatdagi sessiyalar, qoida tariqasida sentyabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi.

Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlislari ochiq va oshkora o'tkaziladi.

ladi. Ushbu bosqichlar konstitutsiyaviy huquq nazariyasida qonun chiqarish jarayoni deb ataladi va qonun loyihasini taklif qilish, muhokama qilish, qabul qilish, hamda qonunni imzolash va e'lon qilishdan iborat bo'ladi.

Qonun chiqarish jarayonining **birinchi bosqichi**. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 82-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida qonunchilik tashabbusi huquqiga ega organlarning ro'yxati keltiriladi. Qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, shuningdek, o'z davlat hokimiyatining oliy organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar.

Oliy Majlisga qonunchilik taklifi bilan murojaat etish huquqi hech kim uchun cheklanmagan. Shunday taklif kiritilgan taqdirda esa, qonun loyihalari qonun chiqarish tashabbusi huquqiga ega bo'lgan yuqorida ko'rsatilgan idoralar va shaxslar orqali O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga kiritilishi mumkin.

Qonun chiqarish jarayonining **ikkinchi bosqichida** Oliy Majlis taqdim etgan loyihalarni qonun chiqarish jarayonining barcha qoidalariga to'la rioya etgan holda ko'rib chiqishi shart. Shuni ham nazarda tutish kerakki, Oliy Majlis shu qonun loyihasini ma'qullash yoki inkor etish huquqiga ega.

Qonun loyihasi yoki qonun chiqarish to'g'risidagi taklif dastlabki tarzda ko'rib chiqish va ishlab chiqish uchun Oliy Majlis Raisi tomonidan Oliy Majlisning tegishli qo'mitalari va ayni bir vaqtda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik va sud-huquq masalalari qo'mitasiga yuboriladi. Bunda xulosa tayyorlash uchun bosh qo'mita yoki komissiya belgilab qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga kiritilgan qonun loyihalarini ko'rib chiqish bir necha o'qishda amalga oshirilishi, shuningdek, joylardagi deputatlar guruhlarini tomonidan dastlabki tarzda muhokama qilinishi mumkin.

Qonun loyihasining birinchi o'qilishida Oliy Majlis

qonun loyihasi tashabbuskorining ma'ruzasini va bosh qo'mita yoki komissiyaning qo'shimcha ma'ruzasini tinglaydi, qonun loyihasining asosiy qoidalarini muhokama qiladi hamda tuzatishlar shaklida taklif va mulohazalar bildiradi, zarur hollarda qonun loyihasini muhokama etish uchun matbuotda e'lon qilish haqidagi takliflarni ko'rib chiqadi.

Muhokama yakunlari bo'yicha Oliy Majlis qonun loyihasining asosiy qoidalarini ma'qullaydi yoki rad etadi.

Qonun loyihasi ma'qullangan taqdirda, Oliy Majlis uni ikkinchi o'qishga taqdim etish muddatini belgilaydi.

Birinchi o'qishda ko'rib chiqilgan qonun loyihasiga doir to'xtam, agar Oliy Majlis deputatlari umumiy sonining ko'pchiligi uni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan hisoblanadi. Bunday to'xtam Oliy Majlisning qarori bilan rasmiylashtiriladi.

Qonun loyihasiga va uning ayrim moddalariga tuzatishlarni deputatlar yozma ravishda Oliy Majlis Kengashi, bosh qo'mita, komissiya yoki qonun loyihasini maromiga yetkazish topshirilgan qo'mitaga qonun loyihasining ikkinchi o'qishdagi muhokamasi boshlanishidan kamida uch kun oldin topshiradilar. Qonun loyihasini maromiga yetkazish topshirilgan qo'mita loyihaga kiritilgan tuzatishlarni qarab chiqadi va uni ikkinchi o'qishdagi muhokamaga tayyorlaydi.

Maromiga yetkazilgan qonun loyihasi, Oliy Majlis Kengashining qaroriga muvofiq, ikkinchi o'qishda muhokamaga kiritiladi.

Qonun loyihasi yuzasidan ikkinchi o'qish chog'ida, loyiha moddama modda, bo'limlar bo'yicha yoki butunlay muhokama qilinadi. Birinchi yoki ikkinchi o'qish natijasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonun loyihasini qabul qiladi yoki rad etadi yoxud maromiga yetkazish uchun qaytaradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga muvofiq, eng muhim qonunlarning loyihalari umumxalq ovozigiga (referendumga) qo'yilishi mumkin.

Qonun chiqarish jarayonining **uchinchi bosqichi**. Ma'lumki, Oliy Majlis vakolatlari amalga oshirilishining huquqiy shakli u qabul qiladigan qonun hujjatlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining qonunlari Oliy Majlis qabul qiladigan asosiy hujjatlardir.

O'zbekiston Respublikasi qonuni o'ziga xos xususiyat-

larga ega. U faqat Oliy Majlis sessiyasida qabul qilinadi va butun O'zbekiston xalqining erkini ifoda etadi. O'zbekiston Respublikasining qonuni o'zida huquqiy qoidalarni mujassam etadi va shuning uchun huquqiy normativ hujjat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan qonunlarning bajarilishi barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolar uchun majburiydir. Davlat organlarining huquqiy normativ aktlari qonunga muvofiq bo'lishi shart. O'zbekiston Respublikasining qonunlari barcha davlat organlari, o'zini-o'zi boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolar faoliyatining huquqiy asosidir. U davlat organlari chiqaradigan barcha huquqiy hujjatlardan ustun turadi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasi va «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunning 9-moddasiga va 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini, konstitutsiyaviy qonunlarini, qarorlar va boshqa hujjatlarni qabul qiladi. Oliy Majlis hamda uning Kengashi, shular bilan bir qatorda murojaatnomalar, deklaratsiyalar va bayonotlar qabul qilishi mumkin.

Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilish va ularga o'zgartishlar kiritishning o'ziga xos tartibi mavjud.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Konstitutsiyani o'zgartiruvchi va to'ldiruvchi qonunlar, shuningdek, boshqa konstitutsiyaviy qonunlar Oliy Majlis jami deputatlarining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Konstitutsiyaga o'zgartishlar hamda tuzatishlar kiritish to'g'risida taklif taqdim etilganidan keyin olti oy mobaynida ushbu takliflarning keng va har taraflama muhokama qilinishini tashkil etib, so'ng qabul qilishi mumkin.

Agar Oliy Majlis Konstitutsiyaga o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, ushbu taklif kamida bir yil o'tgandan keyin qayta kiritilishi mumkin.

Oddiy qonunlar, qarorlar va boshqa hujjatlar Oliy Majlis jami deputatlarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Oliy Majlis va uning Kengashi murojaatnomalar va bayonotlarning loyihalarini, Oliy Majlis yoki uning Kengashi qarorlariga ko'ra, Oliy Majlisning qo'mitalari va

komissiyalariga dastlabki tarzda ko'rib chiqish uchun topshirishi mumkin. Bu hujjatlar ham Oliy Majlis deputatlari yoki Kengash a'zolari ko'pchiligining ovozi bilan qabul qilinadi.

Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, ovoz berish natijalarini hisoblashda qonunni qabul qilish vaqtida hozir bo'lgan deputatlarning emas, balki Oliy Majlisga saylangan barcha deputatlarning umumiy miqdoriga nisbatan ko'pchilik talab etiladi.

Qonun chiqarish jarayonining to'rtinchi bosqichi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 14-bandiga binoan, qonunlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti imzolaydi. Prezidentning e'tirozlari bo'lsa, u holda Prezident bu qonunni takroriy muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun o'z e'tirozlari bilan Oliy Majlisga qaytarib yuborishi mumkin. Agar qonunni Oliy Majlis deputatlarining uchdan ikki qismi tasdiqlasa, Prezident qonunni imzolaydi. Qabul qilingan va Prezident imzolagan matn Oliy Majlisga saqlash va e'lon qilish uchun yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga muvofiq, Oliy Majlis qabul qilgan qonunlarning va boshqa normativ hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ushbu qonunlar qo'llanishining majburiy sharti hisoblanadi.

Oliy Majlisning hamda Oliy Majlis Kengashining qarolarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi imzolaydi, u bo'lmagan hollarda esa bunday hujjatlarni Oliy Majlis Raisining o'rinbosarlaridan biri imzolaydi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari Respublika Prezidenti imzolaganidan keyin uzog'i bilan bir hafta ichida rasman e'lon qilinadi. Agar hujjatlarning o'zida boshqa qoida belgilanmagan bo'lsa, ular rasman e'lon qilinganidan keyin o'n kun o'tgach butun O'zbekiston hududida bir vaqtning o'zida kuchga kiradi.

Qonunlar to'liq matnining «O'zbekiston Oliy Majlisi axborotnomasi», «Xalq so'zi», «Narodnoe slovo» gazetalarida chop etilishi ularning birinchi marta rasman e'lon qilinishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida»gi qonunning 2-moddasiga asosan, qonunlarning va Oliy Majlis qabul qilgan boshqa hujjatlarning ijrosini nazorat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Konstitutsiya,

Oliy Majlis to'g'risidagi va boshqa qonunlarda ko'rsatilgan vakolatlarni samarali amalga oshirish uchun qonuniy tartibda ma'lum organlar tuzadi va ularning ishlariga rahbarlik qiladi.

Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni va 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Referendumining yakunlari bo'yicha amalga oshiriladigan qonunchilik ishlari asosiy yo'nalishlarining qabul qilinishi Oliy Majlisning kelgusi qonunchilik faoliyati uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

2002-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risidagi O'zbekiston Konstitutsiyaviy qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq, Qonunchilik palatasi, Oliy Majlisning quyi palatasi bo'lib, mutlaqo yangi tartibda, ya'ni, doimiy professional asosda ish olib boradi. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat bo'ladi.

Qonun chiqarish faoliyatini amalga oshirishda Oliy Majlisning yuqori palatasi — Senatning faoliyati ham alohida muhim ahamiyatga molik bo'ladi. Senat sessiyalarda to'planib, quyi palata tomonidan tayyorlangan qonunlarni muhokama qiladi va o'z qarorini chiqaradi.

Shunday qilib, Oliy Majlisning ikki palatali bo'lishi qonun chiqarish faoliyatini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

**Oliy Majlis deputatlar
bloklari va partiya
fraksiyalari faoliyati**

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining reglamenti»da Oliy Majlis deputatlarining fraksiyalari, bloklari to'g'risida ham

ma'lumotlar bor. Bu qonunning 36-moddasida ko'rsatilishicha, Oliy Majlisning siyosiy partiyalar va davlat hokimiyati vakillik organlari va saylovchilar tashabbuskor guruhlari tomonidan ko'rsatilgan deputatlari fraksiyalar va bloklarga birlashishlari mumkin.

Oliy Majlis deputati faqat bitta deputatlar birlashmasi (fraksiya, blok)da bo'lishga haqli.

Fraksiyalar, bloklar o'z faoliyatini Oliy Majlis tomonidan ro'yxatga olinganidan keyin amalga oshiradi va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda qonunlari doirasida ish olib boradi. Fraksiya, blok rahbari fraksiyani,

blokni ro'yxatga olish to'g'risidagi iltimos bayon etilgan ariza bilan Oliy Majlisga murojaat etadi. Arizalarni Oliy Majlis sessiyasida qarab chiqish vaqtida fraksiyalarning, bloklarning rahbarlari tuzilgan fraksiyaning, blokning maqsad va vazifalari to'g'risida axborot berishi, boshqa ma'lumotlarni aytishi mumkin.

Oliy Majlis rasmiy fraksiyalarni, bloklarni ro'yxatga olish masalasi yuzasidan qaror qabul qiladi.

Oliy Majlis blok va fraksiyalarining faoliyati to'g'risidagi masala mantiqan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oliy Majlis va unga saylov to'g'risidagi qonunlardan kelib chiqadi. Bu hujjatlarga muvofiq, O'zbekistonda ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi; siyosiy partiyalar xalqimiz turli tabaqa va guruhlarining irodasini ifodalab, deputatlikka saylangan o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda va uning faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etadi. Chunki partiya xalqning, ijtimoiy qatlamning bir qismi bo'lsa, blok va fraksiyalar Oliy Majlis hamda siyosiy partiyaning muayyan bo'lagidir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi 1996-yil 26-dekabrda «Siyosiy partiyalar to'g'risida» alohida qonun qabul qilib, unda siyosiy partiyalarning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi fraksiyalari faoliyatiga alohida modda ajratdi.

Qonunning 13-moddasiga muvofiq, siyosiy partiyalarning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi fraksiyalari siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlarning ta'sis yig'ilishlarida va o'z partiyalarining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun tuziladi.

Siyosiy partiyaning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi fraksiyasi quyidagi huquqlarga ega: sessiya kun tartibini tuzishda ishtirok etish; sessiya kun tartibidagi har bir masala bo'yicha muzokaralarda fraksiya vakiliga kafolatlangan so'z berilishi; tegishli ravishda respublika hukumatiga, vazirlarga, boshqa davlat organlarining rahbarlariga so'rovlar bilan murojaat etish; Oliy Majlis rahbarligiga, qo'mita va komissiyalar raisligiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish; sessiyada muhokama qilinayotgan masala bo'yicha fraksiya fikrini deputatlar orqali bildirish; nazarda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

Siyosiy partiya fraksiyasining va blokning rahbarlari Oliy Majlis Kengashining tarkibiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II chaqiriq I sessiyasida 2000-yil 22-yanvarda Oliy Majlisning deputatlar bloklari va partiya fraksiyalari ro'yxatga olindi. Partiya fraksiyalari bir-biridan farq qiladigan o'z faoliyat dasturlariga ega bo'lib, Oliy Majlisning qonun chiqarish faoliyatida siyosiy murosalar asosida ish olib borib, eng muhim vazifalarni bajarishga ko'maklashmoqdalar.

**Oliy Majlisning Raisi
va uning o'rinbosarlari
faoliyati**

O'zbekiston Konstitutsiyasi-ning 84-moddasi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida»gi qonunning

12-moddasiga muvofiq, Oliy Majlis Raisi va uning o'rinbosarlari Oliy Majlis tomonidan, hududiy deputatlar guruhlari vakillari yig'ilishining taklifiga binoan, deputatlar orasidan yashirin ovoz berish orqali, Oliy Majlis jami deputatlari yarmidan ko'pining ovozi bilan Oliy Majlis vakolati muddatiga teng bo'lgan muddatga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi va uning o'rinbosarlari Oliy Majlisga har yili hisobot berib turadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Raisining o'rinbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston vakili, Oliy Majlisning deputati bo'ladi.

Oliy Majlisning Raisi etib bir shaxsni surunkasiga ikki muddatdan ortiq saylash mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, muddatidan oldin deputatlarning uchdan ikki qismidan ko'prog'i yashirin ovoz berishi orqali qabul qilingan Oliy Majlis qaroriga binoan, chaqirib olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 85-moddasiga muvofiq, Oliy Majlisning Raisi:

— Oliy Majlis muhokamasiga qo'yiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

— Oliy Majlis sessiyalarini chaqiradi, sessiyaning kun tartibiga doir takliflarni qo'mitalar va komissiyalarning raislari bilan birgalikda tayyorlaydi;

— Oliy Majlis va uning Kengashi majlislarida raislik qiladi;

— Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib turadi;

— qonunlarning va Oliy Majlis qarorlarining bajarilishini nazorat qilishni tashkil etadi;

— parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga va xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bogʻliq guruhlar faoliyatiga rahbarlik qiladi;

— Oliy Majlis Kengashi bilan kelishgan holda Oliy Majlis Raisining oʻrinbosarlari, Oliy Majlis qoʻmitalari va komissiyalari raislari etib saylash uchun Oliy Majlisga nomzodlarni taqdim etadi;

— qoʻmitalar va komissiyalar raislarining taklifiga binoan, bu qoʻmitalar va komissiyalar tarkibini oʻzgartirib, Oliy Majlisga kiritadi;

— Oliy Majlis matbuot organlarining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, ularning nizomlarini va tahrir hayʼatlari tarkibini hamda ularning ishlashi uchun zarur xarajalar smetasini tasdiqlaydi;

— Oliy Majlisga qarashli matbuot organlari muharrirlarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi;

— Oliy Majlis deputatlari va devonining ishlashi uchun zarur xarajalar smetasini tasdiqlaydi;

— Oliy Majlis va uning Kengashi qarorlarini imzolaydi.

Oliy Majlisning Raisi oʻz vakolatlarini bajarish yuzasidan farmoyishlar chiqaradi. U oʻz vakolatidagi masalalarni Kengash muhokamasiga kiritishga haqlidir.

Oliy Majlis Raisiga berilgan bunday vakolatlar Oliy Majlis ishini tashkil etishda, qonunchilik faoliyatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Raisining oʻrinbosarlari raisning topshirigʻiga binoan, uning ayrim vazifalarini bajaradilar va u yoʻqligida yoki uning oʻz vazifalarini amalga oshirishi mumkin boʻlmagan hollarda raisning vazifasini bajarib turadilar.

Oliy Majlis Kengashi vakolatlari

Oliy Majlis ishini tashkil etish hamda Oliy Majlis toʻgʻrisidagi qonunda koʻrsatilgan boshqa

vakolatlarni amalga oshirish uchun Oliy Majlisning birinchi sessiyasida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Kengashi tuziladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining tarkibiga Oliy Majlis Raisi, uning oʻrinbosarlari, qoʻmitalarning, mandat komissiyasining raislari, Oliy Majlis rasmiy blok va fraksiyalarining vakillari kiradilar. Oliy Majlis Kengashiga Oliy Majlisning Raisi boshchilik qiladi. Oliy Majlis Kengashining majlislari zaruratiga qarab chaqiriladi

va Kengash umumiy tarkibining yarmidan ortig'i hozir bo'lgan taqdirdagina vakolatli bo'ladi. Oliy Majlis Kengashining qarorlari, uning majlislarida hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Shuningdek, qarorlar Oliy Majlis Kengashi tarkibining a'zolaridan birmabir so'rab chiqish yo'li bilan ham qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Oliy Majlis Kengashining majlislarida katnashish huquqiga ega. Undan tashqari, Oliy Majlis Raisining taklifiga muvofiq, Kengash majlislarida Oliy Majlis deputatlari, shuningdek, davlat organlari, jamoat birlashmalarining vakillari, olimlar va mutaxassislar ham qatnashishlari mumkin.

Oliy Majlis Kengashining vakolatlari «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun bilan belgilanadi. Bu qonunning 17-moddasiga binoan, Oliy Majlis Kengashi Oliy Majlis sessiyasi kun tartibiga va ish tartibiga doir takliflarni tayyorlaydi; Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalarining amalga oshirilayotgan ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda qonunlar va Oliy Majlisning boshqa qarorlarining ijrosi to'g'risidagi axborotlarni eshitadi; qonun loyihalarini tayyorlash ishini rejalashtirishni uyushtiradi; Oliy Majlis Raisining taklifiga binoan, qonun loyihalari va boshqa hujjatlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqadi; Oliy Majlis sessiyasida deputatlar bildirgan taklif va mulohazalarni tahlil etadi, hamda ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qiladi; sessiyalar oralig'idagi davrda qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartiblarda Oliy Majlis deputatlarini javobgarlikka tortishga, shuningdek, ish joyidagi ma'muriyat tashabbusiga ko'ra deputatlarni ishdan bo'shatishga rozilik berish to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqadi; Oliy Majlis ishi va deputatlar o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalarni ko'rib chiqadi.

Oliy Majlis Kengashi o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Bu qarorlar belgilangan tartibda e'lon qilinadi.

Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalarining faoliyati

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining samarali faoliyat ko'rsatishida, uning vakolatlarini amalga oshirishda Oliy

Majlisning muhim organlari hisoblangan qo'mita va komissiyalar alohida o'rin tutadi.

Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalarining vakolatlari, ularni tuzish va faoliyat ko'rsatish tartibi «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining reglamenti», «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qo'mitalari va komissiyalari to'g'risida»gi nizom bilan belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 86-moddasiga muvofiq, Oliy Majlis qonun loyihalari tayyorlash ishlarini olib borish, Oliy Majlis muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, qonunlarning va Oliy Majlis qarorlarining ijrosini nazorat kilib turish maqsadida deputatlar orasidan qo'mitalar va komissiyalarni saylaydi hamda ularning raislarini tasdiqlaydi.

Qo'mita va komissiyalarni tuzish chog'ida deputatlarining kasbiy va boshqa xil qiziqishlari, ularning ishlab chiqarishga oid hayotiy tajribalari, erkin bildirilgan xohish-istaklari inobatga olinadi. Qo'mita va komissiyalar tarkibida fraksiyalar va bloklardan vakil deputatlar bo'lishi ta'minlanadi. Qo'mita va komissiyalar Oliy Majlisning vakolat muddatiga teng muddatga tuziladi.

Qo'mita va komissiyalar ro'yxati va ular a'zolarining miqdori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan belgilanadi. Qo'mita yoki komissiya tarkibiga Oliy Majlis Raisi va uning o'rinbosarlari saylanishlari mumkin emas.

Oliy Majlis deputati Oliy Majlisning faqat bitta qo'mitasi yoki komissiyaga saylanishi mumkin, qo'mita yoki komissiya tarkibiga saylanmagan deputat ularning ishi-da maslahat ovozi bilan ishtirok etishga haqlidir.

Qo'mitalar va komissiyalarning barcha a'zolari teng huquqlardan foydalanadilar. Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari Oliy Majlis oldida mas'ul bo'lib, unga hisob beradilar.

Zarur hollarda Oliy Majlis istalgan vaqtda yangi qo'mitalar va komissiyalar tuzishi, ilgari tuzilganlarni tugatishi yoki qaytadan tashkil etishi mumkin.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida»gi qonunning 23-moddasida ushbu qo'mita va komissiyalarning vakolatlari ko'rsatilgan. Bu qo'mita va komissiyalar:

1) Oliy Majlis, uning Raisi, Oliy Majlis Kengashi top-

shirig'iga binoan yoki o'z tashabbuslari bilan tasarruflaridagi masalalar bo'yicha qonunlarning va Oliy Majlis boshqa qarorlarining loyihalarini ishlab chiqadilar;

2) qonun hujjatlarini takomillashtirish bilan bog'liq masalalarni tayyorlaydilar, Oliy Majlis sessiyasi kun tartibiga doir takliflarni kiritadilar;

3) qo'mita yoki komissiya ishida ishtirok etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari vakillarini, mutaxassislar va olimlarni taklif etadilar;

4) o'zlari ishlab chiqqan qonun loyihalarini ham, qonun chiqarish tashabbusi tariqasida tushgan qonun loyihalarini ham ilmiy ekspertizaga yuboradilar va ularning fikrlarini so'raydilar;

5) o'rganib chiqish uchun o'zlariga berilgan qonun loyihalari yuzasidan o'z xulosalari, takliflari va mulohazalarini yuboradilar;

6) Oliy Majlis yig'ilishlarida o'z tasarruflaridagi masalalar bo'yicha ma'ruzalar va qo'shimcha ma'ruzalar bilan so'zga chiqadilar;

7) yuborilgan respublika byudjeti loyihalarini, uning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni, shuningdek, davlat strategiya dasturlari loyihalarini qarab chiqadilar;

8) o'z tasarruflaridagi masalalar yuzasidan respublika hukumatiga takliflar kiritadilar;

9) o'z tasarruflaridagi masalalar bo'yicha davlat organlari va jamoat birlashmalaridan, mansabdor shaxslardan hujjatlar, yozma xulosalar, hisobotlar va boshqa ma'lumotlarni talab qiladilar;

10) qonunlarning va respublika Oliy Majlisi boshqa qarorlarining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

11) vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar rahbarlarining, Qoraqalpog'iston Respublika Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining qonunlarni, Oliy Majlisning boshqa hujjatlarini va qo'mitalar, komissiyalar tavsiyalarini bajarish yuzasidan axborotlarini eshitadilar.

Konstitutsiya va boshqa huquqiy hujjatlar Oliy Majlis qo'mita va komissiyalarining zimmasiga bir qator vakolatlarni yuklasada, ular qonun chiqarish hokimiyatini amalga oshiruvchi Oliy Majlis singari mustaqil davlat organi hisoblanmaydilar va shu bois normativ hujjatlar qabul qilmaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va uning Kengashining topshiriqlarini bajarish uchun deputatlar orasidan muvaqqat komissiyalar tuzilishi mumkin.

Muvaqqat komissiyalarning vazifasi va ularning faoliyat tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ularni tuzish chog'ida belgilab qo'yiladi. Muvaqqat komissiyalar o'z zimmalariga yuklangan vazifalarni bajarib bo'lganlaridan keyin yoxud Oliy Majlis yoki uning Kengashi qaroriga binoan, faoliyatlarini muddatidan ilgari to'xtatadilar. Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari ishni o'z rejalariga, Oliy Majlis, uning Raisi hamda Kengashi topshiriqlariga va tavsiyalariga muvofiq tashkil etadilar.

Qo'mita va komissiyalar masalalarni jamoa bo'lib erkin muhokama qilish, oshkoralik hamda keng tashabbuskorlik asosida hal etadilar.

Oliy Majlisning Raisi qo'mita va komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirib turadi. Oliy Majlis qo'mita va komissiyalarining majlislari ochiq o'tkaziladi. Majlislarga davlat hamda jamoat idoralari va tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislari va olimlar taklif etilishlari mumkin. Ular majlislarda maslahat ovozi huquqi bilan qatnashadilar.

Ko'rib chiqiladigan masalalar yuzasidan komissiya va qo'mitalar tavsiya tarzida qarorlar qabul qiladilar va xulosalar chiqaradilar.

Oliy Majlisning qo'mita va komissiyalarida barcha masalalar ular a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan hal etiladi. Komissiya yoki qo'mitaning qarorlari, xulosalar va majlis bayonlarini komissiya yoki qo'mita raisi imzolaydi. Ishlab chiqilgan tavsiyalar tegishli idoralar va tashkilotlarga yuboriladi va zarur hollarda Oliy Majlis Raisi va Vazirlar Mahkamasining Bosh vaziriga ma'lum qilinadi.

Davlat organlari va jamoat birlashmalari qo'mitalar va komissiyalarning qarorlarini olgach, ko'rib chiqishlar, natijalar va ko'rilgan choralar haqida, agar qarorda o'zgacha qoida belgilanmagan bo'lsa, uzog'i bilan bir oy muddat ichida xabar qilishlari shart.

Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari o'z faoliyatlarini oshkoralik asosida amalga oshiradilar, faoliyatlarini haqida jamoatchilikni xabardor qiladilar.

12-§ bo'yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash uchun topshiriqlar.

Ushbu savollarga javob bering:



1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat hokimiyati organlari tizimida qanday o'rin tutadi?
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining avvalgi Oliy Kengashdan farqli jihatlari nimalardan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining konstitutsiyada mustahkamlangan vakolatlari?
4. Oliy Majlis faoliyatining shakllari?

Bilimingizni mustahkamlang



Oliy Majlis qonun chiqaruvchilik faoliyatining bosqichlarini quyidagi jadvalga qayd etib, dars jarayonida izohlab bering.

1-bosqich	2-bosqich	3-bosqich	4-bosqich

Qonunlar bilan tanishing



Oliy Majlis qabul qilgan qonunlar



1. Siyosiy sohaga oid qonunlar.
2. Iqtisodiy sohaga oid qonunlar.
3. Ijtimoiy sohaga oid qonunlar.
4. Huquqiy sohaga oid qonunlar.

Erkin fikr bildiring



1. Oliy Majlis deputatlar va partiya fraksiyalarining faoliyati haqida;
2. Oliy Majlis raisi va uning o'rinbosarlari faoliyati haqida;
3. Oliy Majlis Kengashi va uning vakolatlari haqida.

Qiyosiy tahlil



O'zbekiston va AQShda qonun chiqaruvchi davlat organlarining o'ziga xos farqli tomonlarini tushuntirib bering.

Davlat hokimiyati tizimi o'z navbatida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatidan iboat. 145 mamlakat miqyosida qonun chiqaruvchi davlat organi Kongress deb yuritiladi. Kongress esa ikki qismdan — Senat va Vakillar palatasidan tashkil topgan. Senat hajmi jihatdan kichikroq bo'lib, u har bir shtatdan ikkitadan saylangan vakillardan tarkib topgan. Vakillar palatasi tarkibi esa har bir shtatning aholisi soni va katta-kichikligiga qarab Kongress tomonidan belgilanadi. Konstitutsiyaga ko'ra, Vakillar palatasiga qo'yiladigan nomzod 30 000 fuqaroga bittadan oshmasligi kerak. Biroq aholi sonining ko'payib borishi bois, hozirgi kunda 530 000 fuqaroga bitta vakil to'g'ri keladi. Konstitutsiyada belgilab qo'yilganidek, Senatga saylanuvchi senator 35 yoshdan kichik bo'lmasligi, saylovgacha kamida to'qqiz yil davomida AQSh hududida muqim yashagan bo'lishi shart. Vakillar palatasiga nomzod qilib ko'rsatiluvchi shaxs esa 25 yoshdan kichik bo'lmasligi hamda yetti yil davomida o'zi saylanayotgan shtatda yashab kelgan AQSh fuqarosi bo'lishi lozim. Senatorlar olti yil muddatga, Vakillar palatasi a'zolari — Kongressmenlar esa ikki yil muddatga saylanadilar. Kongress faoliyati ikki yil. Konstitutsiyaga binoan, mamlakat vitse-prezidenti ayni paytda Senat prezidenti hisoblanib, u senat majlisiga raislik qiladi. Vitse prezident yo'q hollarda Senat o'z ishini boshqarib turish uchun senator tayinlaydi. Vakillar palatasi esa o'z raisi — Palata spikerini saylaydi. Kongress sessiyalari odatda har yilning uchinchi yanvar kuni Vashingtondagi Kapitoliy binosida o'tkaziladi. Hozirgi kunda senat qoshida 16 ta, Vakillar palatasi qoshida esa 22 ta hay'at mavjud. Mamlakat Konstitutsiyasi mazkur hay'atlarga muayyan vakolatlar bergan. Unga ko'ra, har bir palata o'zi tuzgan qonun loyihasini kongressga qo'yishdan oldin uni ko'rib chiqish uchun shu sohaga daxldor o'z hay'atiga yuboradi. Hay'at loyihani ko'rib chiqib, uni Kongressga tavsiya etishi, o'zgartirishi yoki qaytarishi mumkin. Bir palata tasdig'idan o'tgan loyiha ikkinchi palataga jo'natiladi. Ikkinchi palata qonun loyihasini ma'qullagandan keyingina u Kongressda ovozga qo'yiladi. So'ngra Kongressda qabul qilingan qonun Prezident imzo chekkandan so'ng kuchga kiradi. Konstitutsiyaga ko'ra, Prezident uni imzolashi yoki taqiqlashi mumkin. Prezident tomonidan taqiqlangan loyiha qonuniy kuchga kirishi uchun Kongressga qayta ovozga qo'yilishi va kongressmenlarning uchdan ikki qismi yoqlab ovoz berishi lozim bo'ladi... Darhaqiqat Amerika qo'shma shtatlarining qonun chiqaruvchi organi kongress mamlakatda alohida qudratga ega. U o'z navbatida shtat kongresslariga ham bo'linib ketadi.

«Hurriyat» gazetasi, 1999-yil 19—25-may.

13-§. IJRO ETUVCHI HOKIMIYATNING HUQUQIY ASOSLARI

**Ijro etuvchi hokimiyatning
davlat hokimiyatini amalga
oshirishda tutgan o'рни,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

Ijro etuvchi hokimiyatning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan. Ijro etuvchi hokimiyat

davlat hokimiyatini amalga oshirishning bir shakli bo'lganligi uchun uni tashkil etishning asosiy qoidalari konstitutsiyada belgilangandir. Konstitutsiyaning 91-moddasi 8-bandiga asosan O'zbekiston Prezidentlik Respublikasidir, ya'ni ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshirishga Prezident boshchilik qiladi.

1991-yilning 29-dekabridagi referendumda O'zbekiston xalqi mamlakatimizning mustaqil rivoji uchun ovoz berdi va tariximizda ilk marotaba bevosita, umumiy, teng va yashirin ovoz berish yo'li bilan Respublika Prezidentini sayladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi prezident hokimiyatini ancha mustahkamladi. Konstitutsiyaning 89-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i, ayni paytda Vazirlar Mahkamasining raisi hamdir. Prezident davlatning bosh arbobi, millatning ramzi, fuqarolar xavfsizligining kafolatidir. Konstitutsiyaning 90-moddasiga binoan respublika prezidenti O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadi. Asosiy qonunga ko'ra, bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

1991-yilda O'zbekistonda bo'lib o'tgan respublika prezidentligiga saylov «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi 1991-yil 18-noyabr Qonuniga asosan amalga oshirilgan. Konstitutsiyaga muvofiq Respublika Prezidentini saylashda O'zbekistonning 18 yoshga to'lgan fuqarolari ishtirok etadilar. Fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi. Saylovda faqat sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek ozodlikdan mahrum

etish joylarida saqlanayotganlar qatnashishi mumkin emas. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonuni bosilib chiqqandan so'ng Markaziy Saylov Komissiyasi 1991-yil 29-dekabrda O'zbekistonning birinchi Prezidentini saylash yuzasidan katta ishlarni boshlab yubordi. Birinchi navbatda butun O'zbekiston hududida okrug va uchastka saylov komissiyalari tuzildi.

«O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunning 24-moddasiga muvofiq respublika Prezidentligiga nomzodlar qonun asosida ro'yxatdan o'tgan respublika siyosiy partiyalari, O'zbekiston kasaba ittifoqi federatsiyasining s'ezdlarida, anjumanlarida yoki ularning respublika rahbariy organlari Kengashlarida ko'rsatiladi. Bundan tashqari, respublika Prezidentligiga nomzodlar tashkilotlar, muassasalar oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining jamoalari, fuqarolarining turar joylaridagi va harbiy xizmatchilarning harbiy qismlardagi majlislarida ko'rsatilishi mumkin. Lekin bu tashkilotlar ularning takliflarini O'zbekistonning 60 ming aholisi qo'llab-quvvatlagan taqdirdagina Prezidentlikka o'z nomzodlarini ko'rsatishlari mumkin. Respublika siyosiy partiyalari va O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan Respublika Prezidenti lavozimiga nomzod ko'rsatilganda, nomzodni qo'llash uchun saylovchilar imzosini to'plash shart emas. Shu ma'noda 1995-yilning 26-martida o'tkazilgan referendum Prezident vakolatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirishga bag'ishlangan bo'lib, u nafaqat ob'ektiv zarurat — Prezident va Oliy Majlis saylovlari muddatini yaqinlashtirishning bosqichma-bosqich demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishning ham shahodatidir. Shu boisdan O'zbekiston xalqi respublikada umummilliy hamjihatlikni ta'minlaydigan hokimiyatning yaxlit tizimini yaratishga intilishni, demokratik huquqiy davlat va rivojlangan fuqarolik jamiyat qurish yo'lini quvvatladi. I.A. Karimov 1992-yil 4-yanvarda Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida qasamyod qabul qildi va o'sha kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi o'z qarori bilan

I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga 1991-yil 31-yanvardan kirishdi, deb e'lon qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari. Prezidentning vakolatlari uni davlat hokimiyati organlari tizimidagi tutgan o'rni, umuman, davlat boshqaruvi shaklini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentlik Respublikasi bo'lgani uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti keng vakolatlarga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning XIX bobi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomiga, alohida, 93-moddasi Respublika Prezidentining vakolatlariga bag'ishlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyada ko'rsatilgan vakolatlarini maqsadi, mazmuniga ko'ra, shartli ravishda bir necha guruhga bo'lish mumkin:

1. Qonunchilik va qonuniylik sohasidagi vakolatlar;
2. Davlat organlarini tuzish sohasidagi vakolatlar;
3. Fuqarolarning huquq, erkinliklari, burchlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash sohasidagi vakolatlar;
4. Xalqaro munosabatlar sohasidagi vakolatlar.

O'zbekiston Prezidentining qonunchilik sohasidagi vakolatlarining asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan. Respublika prezidenti, birinchi navbatda davlat boshlig'i sifatida davlat va jamiyat rivojlanishining asosiy strategik yo'nalishlarini ishlab chiqadi va ularni Oliy Majlis yig'ilishlarida e'lon qiladi. Prezidentning bunday dasturlarida Respublika oldida turgan vazifalar, ularni hal etish yo'llari, qonunchilik sohasidagi asosiy yo'nalishlar ko'rsatib beriladi. Respublika Prezidenti davlat rahbari sifatida qonunchilik jarayonining bevosita ishtirokchisidir. Konstitutsiyaning 82-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. U Oliy Majlisga qonun loyihalarini yoki biror masala bo'yicha qonun ishlab chiqishni taklif etishi mumkin. Bu bilan respublika Prezidenti qonunlar yaratilishining boshlang'ich davrida ishtirok etadi. Respublika Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida qonun loyihalari muhokama qilinayotganda istagan vaqtida so'z olib, o'z fikrini bildirishi mumkin.

Konstitutsiyaning 93-moddasi 14-bandiga asosan, Respublika Prezidenti Oliy Majlis tomonidan qabul qilin-

gan qonunlarni imzolaydi. Bu holat esa Oliy Majlis qabul qilgan qonun faqat Respublika Prezidenti imzosidan keyingina, kuchga kirishini bildiradi. Qonunga e'tirozi bo'lganda Prezident o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga, tasdiqlashni kechiktirishga haqlidir.

Agar Oliy Majlis o'zi qabul qilgan qonunni ilgarigi holatda deputatlarning uchdan ikki qismining ovozi bilan tasdiqlasa, Prezident qonunni imzolaydi.

Prezident qonuniylikning ta'minlanishining kafilidir. Uning faoliyati qonuniylikni ta'minlashda ishtirok etuvchi organlarni tuzishda, ularning faoliyatini nazorat qilib turishda o'z ifodasini topadi. Respublika Prezidenti prokuratura organlarining rahbarlarini tasdiqlaydi, ularning bajarilishni ta'minlash sohasidagi faoliyatini nazorat qiladi. Bundan tashqari respublika Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va davlat qonunlariga amal qilinishiga, davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunchilikni amalga oshirishlariga kerakli sharoitlar yaratadi.

Prezidentning davlat organlarini tuzishdagi vakolatlari ham Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra Respublika Prezidentiga davlat organlari tuzish, ularning rahbarlarini tayinlash borasida katta vakolatlar berilgan. Bunda ularning ayrimlarini respublika Prezidenti bevosita o'zi tuzadi yoki ularni tuzish, tayinlash, saylash, tasdiqlash uchun tavsiya qiladi.

Respublika Prezidenti davlat rahbari sifatida respublikadagi davlat oliy hokimiyati va boshqaruv organlarining ishlarini yo'naltirib, ularning bahamjihat ishlashini ta'minlab turadi. U hokimiyat va boshqaruv organlarini bog'lash vazifasini bajaradi. O'zbekiston vazirliklari, davlat qo'mitalari va ularga tenglashtirilgan idoralar ijroiya hokimiyat rahbari bo'lgan respublika Prezidentining farmoni bilan tuziladi yoki tugatiladi. Ushbu farmonlar tasdiqlash uchun Oliy Majlisga kiritiladi. Bosh vazir, uning birinchi va boshqa o'rinbosarlari, Vazirlar Mahkamasining boshqa a'zolari ham respublika Prezidenti tomonidan tayinlanadi yoki lavozimidan ozod qilinadi. Oliy Majlis ushbu farmonlarni tasdiqlaydi. Prezident O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudi-

ning raisi va a'zolari, Oliy sud raisi va a'zolari, Oliy xo'jalik sudi raisi va a'zolari lavozimiga nomzodlarni, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi, Markaziy bank boshqaruvining raisi lavozimiga nomzodlarni Oliy Majlisga taqdim etadi. Prezident Respublika Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi hamda bu masalani tasdiqlash uchun Oliy Majlisga kiritadi. Viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi, bu masalalarni tegishli xalq deputatlari kengashining tasdig'iga qo'yadi.

Viloyat, tuman, shahar va xo'jalik sudlarining sudyalari respublika Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Konstitutsiya 93-moddasining 12-bandiga asosan respublika Prezidenti Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushadigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini ham o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqlidir. Bundan tashqari, respublika Prezidenti milliy xavfsizlik va davlat nazorat xizmatlarini tuzadi, ularning rahbarlarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi. Prezident Respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi. U Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlarni beradi.

Konstitutsiyasining 95-moddasida respublika Prezidentiga o'ta muhim vakolat yuklangan bo'lib, ya'ni u Oliy Majlisni tarqatib yuborish huquqidir. Respublika Oliy Majlisi qonunchilik faoliyatida hal qilish qiyin bo'lgan qarama-qarshiliklar, ixtiloflar bo'lishi yoki Oliy Majlis bir necha marta Konstitutsiyaga zid qarorlar qabul qilgan bo'lishi mumkin. Bunday hollar Oliy Majlisning normal faoliyatini tahdidga soladi.

Respublika Prezidenti davlat boshlig'i sifatida bunday hollarda o'zining konstitutsiyaviy vakolatlaridan foydalanib, ixtilofni hal qilish choralari ko'radi. Hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuzaga kelgan taqdirda, Konstitutsiyaning 95-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Konstitutsiyaviy sud bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida Oliy Majlisni tarqatib yuborish huquqi berilgan. Oliy Majlis favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatilishi mumkin emas.

Respublika Prezidentining fuqarolarning huquq, erkinliklari, burchlari va qonuniy manfaatlari sohasidagi vakolatlari Asosiy Qonunimizda bayon etilgan. O'zbekiston Konstitutsiyasida respublika Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir, deb belgilangan.

Respublika Prezidenti o'z lavozimiga kirishish paytida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig'ilishida: **«O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etish, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman»**, — deb qasamyod qabul qiladi.

Respublika Prezidenti fuqarolarning huquq va erkinliklarini respublika hududidagina emas, balki uning tashqarisida, boshqa chet davlatlar hududlarida ham ta'minlashning asosiy kafili bo'ladi.

O'zbekiston Prezidenti respublika fuqaroligiga qabul qilish, fuqarolikdan chiqarish, siyosiy boshpana berish masalalarini ham hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va faxriy yorliqlari bilan fuqarolarni mukofotlaydi.

Fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash borasida ham respublika Prezidentiga katta vakolatlar berilgan. Prezident inson huquqlarini himoya qilish uchun shaxsan javobgardir. Respublika Prezidenti fuqarolar xavfsizligini saqlash uchun kerakli choralar ko'radi. Jumladan, favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi, qabul qilingan Qarorni uch kun mobaynida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tasdig'iga kiritadi.

Shuningdek, Prezident davlat miqyosidagi katta bayramlar va tantanalarga bag'ishlab amnistiya to'g'risida hujjatlar qabul qiladi, O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan fuqarolarni avf etadi.

Respublika Prezidentining xalqaro munosabatlar sohasidagi vakolatlari ham keng qirralidir. Avval aytib o'tilganidek, O'zbekiston Prezidenti xalqaro munosabatlarda Respublika nomidan ish ko'radi. Uning xalqaro sohadagi vakolatlarini ana shu qoida belgilaydi. Respublika Prezidenti birinchi navbatda mamlakat xalqaro siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, o'z davlatining vakili sifatida xalqaro munosabatlarda yuqori vakillikni olib boradi, chet davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan muzokaralar o'tkazadi, bitim va shartnomalar tuzadi, ularni imzolaydi, respublika bilan tuzilgan hujjatlarga rioya etilishini ta'minlaydi.

Respublika Prezidenti o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik va boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi; O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlaydi hamda lavozimlaridan ozod qiladi; Respublika Oliy Majlisiga har yili ichki va xalqaro ahvol xususida ma'lumotnoma taqdim etadi. Respublika Prezidenti mamlakatimizga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish bo'yicha tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish huquqiga ega va bu to'g'ridagi qarorini uch kun mobaynida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tasdig'iga kiritadi. Respublika Prezidenti devoni alohida davlat hokimiyati organi hisoblanmaydi. Uning vazifasiga Prezidentning vakolatlarini amalga oshirishda zarur tashkiliy, huquqiy-maslahat, moddiy-texnik va boshqa har tomonlama sharoit yaratib berish, Prezidentning boshqa davlat tizimi organlari bilan aloqasini mustahkamlashga yordam berish kiradi. Respublika Prezidenti o'z faoliyatining asosiy sohalari bo'yicha davlat maslahatchilarini tayinlaydi va ular orqali Prezident devoni ishiga rahbarlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvining Prezidentlik Respublikasi shakli doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Hayotning har xil sohalariga rahbarlik qilish uchun yangi organlar tashkil etilmoqda. Masalan, Respublika Oliy Majlisining 1995-yil 23-fevraldagi birinchi sessiyasida davlatdagi oliy mansabdor shaxslarning maslahat

organi sifatida respublika Prezidenti huzurida Xavfsizlik Kengashi tuzish taklif qilingan edi. Bu kengashning vazifalari ko'p qirrali bo'lib, milliy xavfsizlikning ustuvor yo'nalishlarini va davlat siyosati asoslarini ishlab chiqishga javob beradi. Shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlash yuzasidan dasturlar majmui Xavfsizlik Kengashi rahbarligida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda prezident huzurida maxsus Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha idoralararo kengash tuzilgan. Bu kengash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yagona strategiyasini ishlab chiqadi, iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlaydi. Bu tavsiyalar respublika Prezidenti farmonlariga asos bo'ladi.

Konstitutsiyaning 91-moddasiga muvofiq, respublika Prezidenti o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi hamda vakillik organiga deputat bo'lishi mumkin emas.

Konstitutsiyaning 97-moddasiga binoan vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod Konstitutsiyaviy sud a'zosi lavozimini egallaydi. Bunday tajribalar xorijiy davlatchilik tarixida uchrab turadi va bu holat ko'plab davlatlarning Konstitutsiyalarida mustahkamlangan.

Prezident Oliy Majlis qabul qilgan qonunlarni amalga oshirishni ta'minlash maqsadida farmonlar, qarorlar va farmoyishlar qabul qiladi. Prezident farmonlari ijro hokimiyati organlari chiqaradigan normativ aktlar ichida oliy kuchga egadir. Prezidentning farmonlari respublikaning strategik xarakterga ega bo'lgan muhim normativ-huquqiy hujjatidir. Farmonlar bilan bir qatorda respublika Prezidenti davlat va ijroiya organlari boshlig'i sifatida o'zining konstitutsiyaviy vakolatlari doirasiga O'zbekiston Respublikasining butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan qarorlar va farmoyishlar ham chiqaradi.

Prezident farmonlarida qabul qilingan yechimlar uning qarorlarida huquqiy asosda batafsil yoritib beriladi va zarur chora-tadbirlar bilan mustahkamlanadi. Qarorlar vositasida iqtisodiy islohotning jadal suratda borishi huquqiy jihatdan

tartibga solinadi, iqtisodiyotning g'oyat muhim bo'g'inlari va sohalarida o'zgarishlar qilinadi.

Respublika Prezidentining ko'pgina qarorlari muammolarning bayon etilishi va mazmuni jihatidan belgilovchi xarakterga ega bo'lib, iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlarida islohotlarni avj oldirishning boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining hukumati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga va 1993-yil 6-mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunning 1-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining hukumati iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarda samarali faoliyat ko'rsatilishiga, qonunlarning ijro etilishiga, Oliy Majlisning boshqa qarorlarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining bajarilishiga rahbarlikni ta'minlaydigan ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi. *

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi organlariga rahbarlik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi tasarrufida bo'lgan davlat va xo'jalik boshqaruvining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'yicha o'z vakolatiga kiruvchi barcha masalalarini hal etishga haqlidir. Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi huquqiga ham ega.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunda Vazirlar Mahkamasining ijroiya hokimiyat organi sifatidagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari to'liq ko'rsatib berilgan. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaatlarini hisobga olish prinsiplariga asoslanadi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qiladi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, ularga zarur yordam ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasining Kons-

titutsiyasiga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi. Prezident Vazirlar Mahkamasining Raisi sifatida O'zbekiston Respublikasi hukumatining faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda uning o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi uchun chora-tadbirlarni ko'radi. Respublika Prezidentining bunday tadbirlari natijasida O'zbekistonda davlat qurilishida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Bularning hammasi davlat tizimi organlarining faoliyatini uyg'unlashtirish va ularning hamkorlikda ishlashini ta'minladi, davlat organlaridagi intizomni ko'tardi, pirovardida respublika iqtisodiy va ijtimoiy sohalarining rivojlanishiga olib keldi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi va tuzilish tartibi

Vazirlar Mahkamasi tarkibiga Bosh vazir, Bosh vazirning barcha o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi vazirlari, davlat

qo'mitalarining raislari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining rahbarlari kiradilar.

Ijroiya hokimiyati rahbari bo'lgan respublika Prezidenti ijro etuvchi hokimiyat devonini — Vazirlar Mahkamasini tuzadi. U Bosh vazir, uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari va Vazirlar Mahkamasining boshqa a'zolarini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masala Respublika Oliy Majlisi tasdig'iga kiritiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi o'z lavozimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi. Bu O'zbekiston bilan Qoraqalpog'iston Respublikalarining olib borayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy yo'lining birligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Respublika hukumati oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida, Vazirlar Mahkamasi bilimdon mutaxassislar, tajribali ishlab chiqarish tashkilotchilari, xo'jalik organlarining rahbarlari, taniqli iqtisodchi olimlarni o'z ishiga jalb qilishi mumkin. Ularning tashkilotchilik qobiliyati, mutaxassislik darajasi, mahorati bozor iqtisodiga o'tish sharoitida Vazirlar Mahkamasining faoliyatini samarali tashkil etishga va muhim masalalarni hal etishga yordam beradi.

**Vazirlar
Mahkamasining Oliy
Majlis va davlat hokimi-
yati boshqa organlari bilan
munosabati**

«O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi qonunda Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va davlat hokimiyatining boshqa organ-

lari bilan munosabati to‘liq ko‘rsatib berilgan. Masalan, ushbu qonunning 4-moddasida yangi saylangan Oliy Majlis oldida Vazirlar Mahkamasining o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qilishi ko‘rsatilgan, qonunning 6-moddasida ko‘rsatilishicha, yangi tuzilgan Vazirlar Mahkamasi o‘z vakolati davridagi faoliyatining dasturini ko‘rib chiqish uchun Oliy Majlisga taqdim etadi.

Vazirlar Mahkamasi ushbu dastur asosida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi, davlat byudjetini ishlab chiqadi, unga o‘zgartishlar kiritishni taklif etadi hamda Oliy Majlisga tasdiqlash uchun taqdim etadi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z ishi to‘g‘risida Oliy Majlis oldida hisob berib turadi. Oliy Majlis esa, o‘z navbatida, hukumat a‘zosining o‘zi rahbarlik qilayotgan davlat yoki xo‘jalik boshqaruvi organining faoliyati yuzasidan hisobotini eshitiishi hamda zarur bo‘lganda, uni iste‘foga chiqarish to‘g‘risida Prezidentga taklif kiritishi mumkin.

Qonun bo‘yicha, Vazirlar Mahkamasining a‘zolari Oliy Majlis, uning qo‘mitalari va komissiyalarining yig‘ilishida qatnashish va axborot berish huquqiga egadirlar.

Hukumatning qonun chiqaruvchi organ bilan yana bir munosabati Oliy Majlisning deputatlari Vazirlar Mahkamasi yoki uning ayrim a‘zolari faoliyatiga taalluqli masalani ko‘rish, Bosh vazir ana shu masala yuzasidan zarur tushuntirish va izohlarni olish hamda berish huquqiga egaligida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi Oliy Majlis qo‘mitalari va komissiyalarining hukumat faoliyatiga doir tavsiyalari va takliflarini ko‘rib chiqadi va ular yuzasidan chora-tadbirlar ko‘radi. Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasi tavsiyalar va takliflarni ko‘rib chiqish natijalari hamda ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Oliy Majlisning

tegishli qo‘mitalari va komissiyalariga ular bilan kelishilgan muddatlarda axborot beradi.

Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risidagi qonunda ushbu organning Oliy Majlis deputatlari, qo‘mitalari va komissiyalarining so‘rovlariga javob berishiga doir masalalarga ham o‘rin berilgan. Qonunning 7-moddasida ko‘rsatilishicha, Oliy Majlis sessiyalarida deputatlar, deputatlar guruhi, Oliy Majlis qo‘mitalari va komissiyalari Vazirlar Mahkamasiga yoki hukumat a‘zosiga hukumat yoki unga bo‘ysunuvchi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining faoliyatiga doir so‘rov bilan murojaat qilishga haqlidirlar. Bunda hukumat a‘zolari Oliy Majlis sessiyalarida uch kundan kech bo‘lmagan muddatda og‘zaki yoki yozma javob berishlari shart.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan o‘zaro hamkorlik qiladi, uning O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, Respublika Prezidentining farmonlari hamda xo‘jalik va ijtimoiy-madaniy qurilish masalalari bo‘yicha boshqa aktlarning qanday bajarayotganligi haqidagi axborotlarini eshitadi; Vazirlar Mahkamasi o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashining takliflarini ko‘rib chiqadi; Vazirlar Kengashining O‘zbekiston qonunlariga va huquqiy normalariga zid bo‘lgan qarorlari va farmoyishlarining ijro etilishini to‘xtatib qo‘yadi.

O‘zbekiston bilan Qoraqalpog‘iston Respublikalari o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy va boshqa sohadagi munosabatlarga doimiy va keng tus berilishi Vazirlar Mahkamasi huzurida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining doimiy vakolatxonasini tuzishga olib keldi.

Respublika Vazirlar Mahkamasi o‘z vakolatlari yuzasidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan ma‘lum munosabatlarda bo‘ladi. Bunday munosabatlarning turlari va hajmi «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi qonunning 9-moddasida to‘liq ko‘rsatilgan.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining hukumati sifatida juda keng vakolatlarga ega. Ular O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasida va «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunda mustahkamlangan.

Ushbu qonunga binoan, Vazirlar Mahkamasi iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqaradi; mulkchilikning barcha shakllarini uyg'unlashtirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni monopollashtirishdan chiqarish, bozor iqtisodiyotining huquqiy mexanizmini ruyobga chiqarish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Respublika hukumati xo'jalik yuritishning yangi shakllari — konsernlar, konsorsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va boshqa ana shunday tashkilotlarni barpo etishga hamda mustahkamlashga ko'maklashadi, xalq xo'jaligi va aholi talablarini qondirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ular faoliyatini yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi.

Vazirlar Mahkamasi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida O'zbekiston Respublikasi pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi, yagona narx siyosatini o'tkazish, mehnatga haq to'lash miqdorining belgilangan kafolatlarini va ijtimoiy ta'minot darajasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Yuqorida ko'rsatilgan vakolatlardan tashqari, Vazirlar Mahkamasi:

— respublika byudjetini, shuningdek, respublikani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbollari va eng muhim dasturlarini ishlab chiqishni va ularning ijrosini tashkil etadi;

— boshqaruv tizimini takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari, davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqadi;

— fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy resurslardan

oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

— fuqarolarni ijtimoiy va huquqiy himoya qilish, ularning mehnat qilish huquqini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi, ijtimoiy ta'minot tizimini takomillashtiradi;

— sog'liqni saqlash, xalq ta'limini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga ko'maklashadi;

— O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligini va mudofaa qudratini oshirish, davlat chegaralarining qo'riqlanishini ta'minlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi;

— davlat boshqaruv organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o'tkazish hamda respublika va jahon ahamiyatiga ega bo'lgan yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi, katta avariya va falokatlarning, shuningdek, tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini ko'radi;

— O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta'minlaydi, hukumatlararo shartnoma va bitimlar tuzadi, ularni bajarish chora-tadbirlarini ko'radi;

— tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida rahbarlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati vazirliklarning hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi, ular haqidagi nizomlarni tasdiqlaydi, ularning markaziy apparat xodimlarining sonini va ularga sarflanadigan mablag'ning hajmini belgilaydi.

Vazirlar Mahkamasi vazirlarning o'rinbosarlarini, davlat qo'mitalari raislarining o'rinbosarlarini, bosh boshqarmalar hamda boshqaruvning boshqa organlari rahbarlari va ularning o'rinbosarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi.

Vazirlar Mahkamasi bundan tashqari vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining faoliyatini nazorat qiladi va bu organ-

larning aktlari amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan hollarda ularni bekor qilish huquqidan foydalanadi.

Demak, hukumat respublika hayotining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalariga rahbarlik qiladi, islohotlarning asosiy huquqiy tashkilotchisi hisoblanadi. Hukumatning siyosati huquqiy asosda qurilgan bo'lib, mafkura hukmronligidan xolidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlislarini tayyorlash va o'tkazish tartibi «O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi ish tartibi» bilan belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining majlislari respublika Prezidenti — hukumat Raisi boshchiligida yoki uning topshirig'iga binoan, Bosh vazir tomonidan yilning har choragida kamida bir marta o'tkaziladi.

Qonunda Bosh vazir, uning o'rinbosarlari, Vazirlar Mahkamasi a'zolarining vazifalari aniq ko'rsatilgan. Masalan, Bosh vazir Vazirlar Mahkamasining ishini tashkil etadi, o'z o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, keyinchalik bu masala Vazirlar Mahkamasining Raisi tomonidan tasdiqlanadi. Prezidentning topshirig'iga binoan, xalqaro munosabatlarda respublika hukumati nomidan ish ko'radi hamda hukumatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolaydi. Vazirlar Mahkamasining majlisida ko'rib chiqish talab etilmaydigan davlat va xo'jalik boshqaruvi masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi. Vazirlar Mahkamasi Raisining topshirig'i bo'yicha boshqa masalalarni ham hal etadi. Qonunda ko'rsatilishicha, Bosh vazir bo'lmagan hollarda uning vazifalarini birinchi o'rinbosari bajaradi.

Bosh vazirning o'rinbosarlari esa vazirlar vakolatining taqsimotiga muvofiq o'zlari rahbarlik qiladigan tarmoqlardagi ishlarning ahvoli uchun javob beradilar. Ular tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni, ularning ishini nazorat qilishni amalga oshiradilar, Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan takliflarni hamda qaror va farmoyishlar loyihalarini dastlabki tarzda ko'rib chiqadilar.

Qonunga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi a'zolari o'zla-

riga topshirilgan faoliyat sohasi uchun javob beradilar. Ular Vazirlar Mahkamasi majlislarida ma'lum masalalarni ko'rib chiqishda ishtirok etadilar, Vazirlar Mahkamasiga ko'rib chiqish uchun takliflar kiritadilar hamda qarorlar ishlab chiqishda tashabbus ko'rsatishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasi a'zolari korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda pul to'lanadigan boshqa lavozimni egallash, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega emaslar.

Vazirlar Mahkamasining doimiy ishini ta'minlash maqsadida, uning doimiy tuzilmasi sifatida, Bosh vazir va uning o'rinbosarlaridan iborat tarkibda Vazirlar Mahkamasining Rayosati faoliyat ko'rsatadi. Vazirlar Mahkamasi Raisining qaroriga binoan, Vazirlar Mahkamasi Rayosatining tarkibiga O'zbekiston Respublikasi hukumatining boshqa a'zolari ham kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosatining hujjatlari qarorlar, farmoyishlar va bayonqarorlar shaklida chiqariladi. Vazirlar Mahkamasi davlat va xo'jalik boshqaruvining ayrim masalalari bo'yicha takliflar tayyorlash maqsadida doimiy va vaqtinchalik komissiya tuzadi va ularning a'zolari, vakolatlari hamda faoliyat tartibini belgilaydi.

**Vazirlar Mahkamasi
chiqaradigan hujjatlar**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari u qabul qiladigan hujjatlar, qarorlar va farmoyishlar orqali amalga oshiriladi. Bu huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Respublika Prezidentining farmonlari va «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonun asosida qabul qilinadi. Ushbu qonunning 20-moddasiga ko'ra: «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekistonning butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi».

13-§ bo'yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash uchun topshiriqlar.

Javob bering



Quyidagi savollarga konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan qonunlarni o'rganish asosida javob bering:

1. Ijro etuvchi hokimiyatning davlat hokimiyatini amalga oshirishdagi o'rni?
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlarini belgilab beruvchi konstitutsiyaviy qoidalar?
3. Vazirlar Mahkamasining mamlakatimiz iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy ravnaqini ta'minlash yo'lida amalga oshirayotgan tadbirlari.

Ko'rgazmali material



Vazirlar Mahkamasi tarkibi va tuzilishi tartibi, uning boshqa davlat organlari bilan munosabatini aks ettiruvchi ko'rgazmali material tayyorlang.

Matn tayyorlang



«Ijro etuvchi hokimiyatning huquqiy asoslari» mavzusida o'zingiz mustaqil ravishda matn tayyorlang va dars jarayonida o'rtoqlaringiz bilan muhokama qiling.

14-§. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi

O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati faoliyatini tashkil etishning asosiy qoidalari Konstitutsiyada belgilanib qo'yilgan. Oliy hokimiyat organlari faoliyatini tashkil etish kabi mahalliy davlat hokimiyatini tashkil etishda ham Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan asosiy qoidalarga asoslanish juda

muhimdir. Chunki aynan mahalliy hokimiyat bevosita qonunlar va ijro etuvchi hokimiyat normativ hujjatlarini amalga oshiradi, bevosita jamiyatning turli sohalaridagi muammolar bilan to'qnashadi. Shuning uchun mahalliy davlat hokimiyati xalq farovonligini ta'minlash va shu kabi davlat oldida turgan muhim vazifalarni bajarishda asosiy o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi dunyo tajribasidan kelib chiqqan holda o'ziga xos tarzda joylarda davlat hokimiyatini amalga oshirish mexanizmini yaratdi.

Konstitutsiyaning 99-moddasiga binoan viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlarda, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organi bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal qiladilar.

Hokim vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Hokimlarning vakillik organlariga rahbarligi vakillik organlarining ishini tashkil qilishga qaratilgandir.

Viloyat hokimi, Toshkent shahri hokimi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman va shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar.

Toshkent shahridagi tumanlarda vakillik organlari bo'lmaganligi tufayli Toshkent shahridagi tuman hokimlarini bevosita Toshkent shahar hokimi tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi, ular Toshkent shahar Xalq deputatlari Kengashida tasdiqlanadi. O'zbekiston Konstitutsiyasi 93-moddasining 12-bandiga binoan, «Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli». Bu tartib hokimlarda mas'uliyat hissini yanada kuchaytiradi.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunning 2-moddasida ko'rsatilishicha, tuman markazlari hisoblangan shaharlarda, viloyat hokimi shahar hokimini tuman hokimiga bo'ysundirish va yagona boshqaruv organi tuzish vakolatiga ega. Bu xususdagi qaror xalq deputatlari viloyat

Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Qonunda bunday holatni ko'rsatishdan maqsad, hokimlik tizimini mustahkamlash va uning ishini samarali tashkil qilish, boshqaruv apparatini ixchamlashtirish va arzonlashtirishdir. Xalq deputatlari barcha pog'onasidagi Kengashlarining va hokimning vakolat muddati besh yil.

Qoraqalpog'iston Respublikasining tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari va tegishli hudud hokimlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Mahalliy hokimiyat to'g'risida»gi qonun bilan hamda Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasi va qonunlari bilan tartibga solinadi.

Mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga berilgan vazifalar

ko'rsatilgan bo'lib, ular mahalliy hokimiyat organlari vakolatlarining konstitutsiyaviy asoslari hisoblanadi.

Bu moddaga binoan, mahalliy hokimiyat organlari vakolatiga quyidagilar kiradi:

— qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

— hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

— mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;

— mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;

— atrof-muhitni muhofaza qilish;

— fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;

— normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Bu vazifalar mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati organlarining, birgalikda amalga oshiradigan vazifalari bo'lib, ularning vakolatlari shu vazifalardan kelib chiqadi. Konstitutsiya vakillik va ijroiya hokimiyati organlarining vazifalarini aniq ajratib ko'rsatmagan bo'lsa-da, mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunda vakillik

va ijroiya hokimiyati organlarining vakolatlari aniq belgilab berilgan.

Mahalliy hokimiyat organlari tegishli hududda qonuniylik, huquqiy tartibot va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashda turli organlarni shu maqsad sari yo'naltiruvchi, ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi rolni o'ynaydi. Ular mazkur hududda qonuniylikni va huquqiy tartibotni mustahkamlash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurash choralarining umumiy yo'llarini, tadbirlarini ishlab chiqadi va shu tadbirlarning bajarilishini nazorat qiladi. Mahalliy hokimiyat organlarining bu sohadagi vakolatlari tegishli qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

Mahalliy hokimiyat organlari o'z hududidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarni rivojlantirishga rahbarlik qiladi. Mahalliy Kengashlar hududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlaydi. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunning 7-moddasiga asosan, mahalliy Kengashlar va hokimlar O'zbekiston Respublikasi mulki bo'lgan davlat mulki ob'ektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlarni samarali joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini ijtimoiy himoya qilish kabi sohalarda nazoratni amalga oshiradilar. Bundan tashqari, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi davlat mulkini chegaralash natijasida o'ziga berilgan yoki qonunlarga muvofiq, o'zi sotib olgan ob'ektlarga nisbatan mulkdor vakolatlarini to'liq amalga oshiradi.

Mahalliy hokimiyat organlari o'z ixtiyoridagi mulklarining xo'jalik faoliyatidan va boshqa vositalardan vujudga kelgan daromadlarni va shu daromadlar hisobidan orttirilgan mol-mulkni mustaqil tasarruf etish huquqiga egadirlar.

Vakillik organlari, hokimlar o'z mulklarini qonunga zid bo'lmagan tartibda vaqtincha foydalanish yoki doimiy egalik qilish uchun boshqa shaxslarga berish huquqiga egadirlar. Mahalliy organlar bu huquqdan o'z hududida ishlab chiqarishni rivojlantirish, aholining turmush farovonligini oshirish maqsadida foydalanadilar.

Mahalliy hokimiyat organlarining yer munosabatlari sohasidagi vakolatlari qonunning 10-moddasida mustahkamlangan. Chunonchi, viloyat, shahar hokimi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarga egalik qilish, foydalanish uchun ijaraga yer berishga, bu sub'ektlarning yerga egalik qilish va yerdan foydalanish huquqini to'xtatib qo'yishga, shuningdek, yerlarni olib qo'yishga haqli bo'lib, uning bu xususda qabul qilgan qarorlari tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Xalq deputatlari Kengashi, hokim, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni ham hal qiladilar.

Bundan tashqari, mahalliy hokimiyat organlari o'z hududida sanoat, qurilish, aloqa vositalari, qishloq xo'jaligi, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, ijtimoiy va madaniy sohalarga rahbarlikni amalga oshiradilar. Ushbu organlarning rahbarlarini lavozimga tayinlash, lavozimidan ozod qilish, shu organlarning faoliyatini nazorat qilish, ularning hisobotlarini eshitish mahalliy hokimiyat organlarining vakolatiga kiradi. Bu ham rahbarlikning bir shaklidir. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlik bo'yicha aniq vazifalari va vakolatlari amaldagi qonunlarda va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan.

Mahalliy hokimiyat organlarining, mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish vazifasi hududning iqtisodiy rivojlanishida, fuqarolarning turmush sharoitini yaxshilashda, davlat organlarini saqlab turishda zarur moddiy bazani vujudga keltirishga qaratilgan.

Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunda mahalliy hokimiyat organlarining bu masaladagi vakolatlari ajratib ko'rsatilgan. Masalan, ko'rsatilgan qonunning 25-moddasiga binoan, hokimlarning vakolatiga byudjet loyihalarini tayyorlash, byudjetning ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash, ijroni tashkil qilish kirsam, 24-moddada ko'rsatilganidek, xalq deputatlari Kengashlari vakolatiga hokimning taqdimiga binoan mahalliy byudjet va uning ijrosiga doir hisobotni tasdiqlash kiradi.

Shuningdek, ularning har ikkalasiga taalluqli vakolatlar ham ko'rsatilgan. Masalan, mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining muhim qismidir. Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunda, hokimlar aholiga kommunal xizmat ko'rsatish sohasida qonun hujjatlarida o'z vakolatiga berilgan masalalarni hal qilishi ta'kidlangan. Hokimlar o'z hududida kommunal xo'jalik tarmoqlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga rahbarlik qiladi. Kommunalar xo'jalik tarmoqlari, hokimliklarning tarkibiy bo'linmalari orqali boshqariladi. Ularning boshliqlari hokim tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod qilinadi. Bu masala mahalliy Kengash sessiyasida tasdiqlanadi. Mahalliy vakillik organlari va hokimlar kommunal xo'jalik tarmoqlari faoliyatini nazorat qilib boradilar.

Bundan tashqari, Konstitutsiya normalariga asosan, mahalliy hokimiyat organlari o'z hududida fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlaydilar. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunda mahalliy davlat hokimiyati organlarining bu sohadagi vakolatlari bevosita qayd etilmagan, lekin qonunning moddalarida ko'rsatishicha, hokimlarning va ularga qarashli ijroiya organlarining fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni tashkil etish bo'yicha vakolatlari fuqarolik holati aktlarini qayd etish organlarining faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Mahalliy davlat organlari fuqarolik holati aktlarini qayd etuvchi organlarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, bu organlarning faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi.

Qonunning 25-moddasida ko'rsatilishicha, yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari hokimlarning asosiy vazifasi Konstitutsiya, qonunlar, Oliy Majlisning boshqa hujjatlari, Prezident va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashlarining qarorlari ijrosini tashkil etishdir.

Bundan tashqari hokimlar jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va salomatligini muhofaza qilish chora-tadbirlarini

ko'radilar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda tegishli ishlarni tashkil etadilar, agar quyi turuvchi hokimlarning qarorlari Konstitutsiya, qonunlar va boshqa yuqori tashkilotlar qarorlariga zid bo'lsa, ularni bekor qiladilar; rahbarlari tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan ijroiya hokimiyati bo'linmalarining ishini nazorat qiladilar; xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlarni bajarmaganliklari uchun mansabdor shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida taqdimnoma kiritadilar; davlat mukofotlari bilan taqdimlashga doir iltimosnomalarni qarab chiqadilar va ular yuzasidan takliflar kiritadilar, respublika va xorijda viloyat, tuman hamda shaharning rasmiy vakili sifatida ish ko'radilar; aholini qabul qilishni tashkil etadilar, fuqarolarning taklif va shikoyatlarini ko'rib chiqadilar va o'z vakolatiga berilgan boshqa masalalarni hal etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko'rsatilishicha, mahalliy hokimiyat organlari o'z vakolatlari doirasida normativ hujjatlar qabul qiladilar. Ular qaror va farmoyishlar shaklida bo'lishi mumkin. Mahalliy Kengash o'z qarorlarini kollegial asosda qabul qilsa, hokim yakka-boshchilik prinsipi asosida qabul qiladi. Ular qabul qilgan qarorlarning ushbu hududda bajarilishi shartdir. Mahalliy hokimiyat organlari Konstitutsiya va qonunlarga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishlari mumkin.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunda, yuqorida keltirilganlardan tashqari, faqat xalq deputatlari Kengashlarining o'ziga taalluqli bo'lgan vakolatlar ham ko'rsatilgan. Masalan, amaldagi qonunlarga muvofiq, mahalliy soliqlar, yig'imlar, boj miqdorini belgilash, mahalliy byudjetga tushadigan mahalliy soliqlar, yig'imlar va to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish; hokim va uning o'rinbosarlarini lavozimga tasdiqlash va lavozimidan ozod etish; xalq deputatlari Kengashining ish tartibini; xalq deputatlari Kengashi doimiy va boshqa komissiyalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash; xalq deputatlari Kengashining

doimiy va muvaqqat komissiyalarini, boshqa organlarini tuzish, saylash va tugatish; bo'limlar, boshqarmalar va boshqa bo'linmalarining hisobotlarini tinglash; xalq deputatlarining so'rovlarini ko'rib chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish; hokimning va quyi Kengashning O'zbekiston Respublikasi qonunlariga mos kelmaydigan qarorlarini bekor qilish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining tashkiliy shakllari

Mahalliy vakillik organlari kollegial organdir. Ular o'z vakolatlarini amalga oshirishlari uchun deputatlarning to'la ishtiroki talab etiladi. Shuning

uchun, mahalliy Kengash ishining asosiy tashkiliy-huquqiy shakli sessiyadir. Faoliyatning sessiya shaklidagina vakillik organlari to'laqonli davlat hokimiyati organi sifatida ishlaydilar. Sessiyada, asosan, Kengash vakolatiga kiradigan masalalar muhokama qilinadi, hisobotlar eshitaladi va bajarilishi shart bo'lgan qarorlar qabul qilinadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlarining sessiyalari tegishli darajadagi hokim, hokim yo'qligida esa uning o'rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. Shuningdek, sessiya tegishli Kengash deputatlari kamida uchdan ikki qismining tashabbusi bilan ham chaqirilishi mumkin.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar o'z faoliyati yuzasidan va vakolati doirasida tegishli qarorlar va farmoyishlar chiqarishi to'g'risida aytib o'tilgan edi. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunda mahalliy vakillik organlari va hokimlarining aktlari Konstitutsiya, qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, respublika Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining hujjatlariga zid bo'lmasligi kerakligi ta'kidlangan.

Viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari va hokimlar faoliyatining qonuniy bo'lishi turli vositalar orqali nazorat qilinadi.

Ma'lumki, Mahalliy Kengashlarning Konstitutsiyaga, qonunlarga, respublika Prezidentining farmonlari, farmoyishlari va qarorlariga zid keladigan qarorlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi. Quyi

pog'onadagi Kengashlarning qarorlari yuqori pog'onadagi Kengashlar tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Hokimlarning Konstitutsiya va qonunlarga, Prezident farmonlari, farmoyishlari va qarorlariga, Vazirlar Mahkamasi hujjatlariga zid keladigan, shuningdek, hokimlarning respublika manfaatlariga zid keladigan hujjatlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan yoki Vazirlar Mahkamasi tomonidan to'xtatib qo'yiladi yoki bekor qilinadi.

Hokimlarning qarorlarini xalq deputatlari Kengashlari ham, quyi hokimlarning qarorlarini yuqori turuvchi hokimlar ham bekor qila oladi. Bularning hammasi Mahalliy Kengashlar va hokimlarning faoliyatida qonuniylik prinsipi-ning amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Ularning o'z faoliyatlarini qonuniylik asosida olib borishlarining yana bir kafolati hokimlar chiqargan hujjatlar (qaror va farmoyishlar) yuzasidan sudga shikoyat qilish mumkinligidir. Ushbu qonunning 28-moddasida ko'rsatilishicha, fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar hokimlar chiqargan huquqiy hujjatlar yuzasidan sudga shikoyat qilishlari mumkin.

Shikoyat bo'yicha sud qabul qilgan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun, shu jumladan, hokimlar uchun ham majburiydir.

Mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlashda prokuratura organlarining o'rni katta. O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi qonunning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar barcha davlat idoralari kabi hokimlarning qonunlarni aniq va bir xilda ijro etishini nazorat qilishi belgilab qo'yilgan. Prokuratura to'g'risidagi qonunning 22-moddasiga binoan, prokuror hokimlarning qarorlariga nisbatan protest bildirish huquqiga ega. Shuning uchun ham hokimning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, Prezident va hukumatning hujjatlariga zid bo'lgan va prokuror protest bildirgan qarorlarini shu hokimning o'zi yoki yuqori turuvchi hokim yoin-ki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, zaruratga qarab esa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qayta ko'rib

chiqadi. Prokurorning protestini ko'rib chiqish natijasi darhol prokurorga ma'lum qilinadi.

**Fuqarolar o'zini o'zi
boshqarish organlari
tuzilish tartibi va
vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida va O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-aprelida qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini-o'zi

boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunning yangi tahririda shahar, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda tuziladigan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tuzilishi va ularning huquqiy holati belgilab berilgan.

«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish to'g'risida»gi qonunning 1-moddasiga asosan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi — fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlangan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlaridan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir. O'zini o'zi boshqarishga bo'lgan huquqning ikki muhim tomoni mavjuddir. Birinchidan, o'zini o'zi boshqarish huquqining ta'minlanishi bu insonlarning siyosiy huquqlarining amalga oshishi, xalq hokimiyatchiligining ta'minlanishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy boshqaruvni takomillashtirishdir. O'zini o'zi boshqarish institutining o'zi ham aynan mana shu ikkita omilni ta'minlash maqsadida paydo bo'ldi. O'zbekistonda shahar, qishloq va ovullarda, shuningdek, ularning tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolar yig'ini o'zini o'zi boshqarish organlari hisoblanadi. Bu organlar o'z majlislarida rais (oqsoqol)ni va uning maslahatchilarini ikki yarim yil muddatga saylaydilar.

O'zini o'zi boshqarish organlarining asosiy maqsadi jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda fuqarolarga ko'maklashish, o'z hududlaridagi ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga O'zbekiston qonunlarini, respublika Prezidentining farmonlarini,

O'zbekiston hukumatining, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning qarorlarini bajarishda yordamlashish uchun fuqarolarni birlashtirishdir.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, o'zini o'zi boshqarish organlari ikki bosqichda tuziladi. Birinchisi, Konstitutsiyaga asosan quyi ma'muriy-hududiy birliklardagi qishloq, shahar va ovullarda; ikkinchisi, tuman va shahardagi mahallalarda tuziladi.

O'zbekiston Respublikasida hayotga tatbiq etilgan o'zini o'zi boshqarish tizimi, birinchidan, O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish talablarini hisobga olib amalga oshirilgan bo'lsa, ikkinchidan, u shu sohada dunyoda qabul qilingan tizimlarga ham mos keladi.

O'zbekiston sharoitida mahalla o'z tarixiy ildizlariga ega. U O'rta Osiyoda shaharlar doirasidagi hududiy-ma'muriy birlik bo'lgan va bizga o'tmishdan meros bo'lib qolgan. Mahalla cheklangan hududda istiqomat qiluvchi odamlar birlashmasi bo'lib, unda odamlar faqat qo'shnichilik rishtalari bilan emas, balki yuzlab yillar davomida yaratilgan ichki tartib-qoida, ma'naviy-axloqiy normalar, urf-odatlar va an'analar bilan bog'langanlar.

«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunga asosan o'zini o'zi boshqarish organlari hududiy prinsip bo'yicha tuziladi.

Fuqarolar yig'inlari ishida o'n sakkiz yoshga yetgan va mazkur hududda doimiy yashovchi fuqarolar qatnashadi.

Fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqol) tegishli hokim bilan kelishilgan holda saylanadi.

Fuqarolar yig'inlarida qatnashish huquqiga ega bo'lgan barcha aholining yarmidan ko'prog'i kelgan taqdirda, yig'inlar vakolatli hisoblanadi, vakillar yig'ilishlari esa ularga delegatlarning kamida uchdan ikki qismi kelgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Yig'ilishni rais yoki uning maslahatchilaridan biri boshqaradi. Barcha masalalar bo'yicha qarorlar ochiq ovoz berish orqali va oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Yig'in bayonnomasi va qarorlarini rais, uning yo'qligida esa, maslahatchilaridan biri imzolab, tegishli tuman, shahar hokimiga yuboradi.

Rais va uning maslahatchilarini fuqarolar yig'ini tegishli tuman, shahar hokimi bilan kelishgan holda saylaydi.

Maslahatchilarning miqdorini yig'in belgilaydi. Yig'inga maslahatchilarning nomzodlarini rais tavsiya etadi. Rais va maslahatchilar ularga yig'inda ishtirok etgan fuqarolarning yarmidan ko'prog'i ovoz bersa, saylangan hisoblanadilar.

O'zini o'zi boshqarish organlari o'z mulklariga va moliyaviy manbalariga ega. Ular o'zlari qurgan, sotib olgan yoki qonunda belgilangan tartibda o'zlariga berilgan jamoat ob'ektlariga, ijtimoiy-maishiy va boshqa ob'ektlarga, shuningdek, sotib olingan transport vositalari, xo'jalik anjomlari hamda boshqa mol-mulka ega bo'lib, ulardan foydalanadilar.

O'zini o'zi boshqarish organlarining moliyaviy resurslari Xalq deputatlari Kengashlari tomonidan ajratiladigan byudjet mablag'laridan, fuqarolar va mehnat jamoalarining ixtiyoriy xayr-ehsonlaridan, xayriya jamg'armalari ajratgan mablag'lardan tashkil topadi. O'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini tashkil etish tartibi bu organlar to'g'risidagi qonunda belgilangan.

14-§ bo'yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash uchun topshiriqlar.

**Qonunlar
bilan
tanishing**



Mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari haqidagi bilimlaringizni konstitutsiya asosida qabul qilingan qonunlardan foydalanib boyiting:

1. 1993-yil 2-sentyabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
2. 1998-yil 2-apreldagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

**Bilimingizni
mustahkam-
lang**



Quyidagi jadvalga mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati, ularning o'ziga xos vazifalarini qayd qilib, izohlab bering.



Mahalliy davlat hokimiyati organlari	Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari

Tanishing



O'zingiz yashab turgan joydagi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi faoliyati bilan tanishing. Tanishish natijasida hosil bo'lgan tasavvurlaringiz hamda bu organning jamiyatdagi tutgan o'rni yuzasidan munosabatingizni yozma shaklda bildiring.

15-§. SUD HOKIMIYATI

**Sud hokimiyati tizimi,
uning tashkil etilishi
va odil sudlovning
konstitutsiyaviy
prinsiplari**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik jamiyati sari intilayotgan davlatdir. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri bu uchta hokimiyatning normal ishlashi-

ni ta'minlashdir. Sud hokimiyati davlat hokimiyatini amalga oshirishning bir shakli bo'lib, huquqni muhofaza qiladi. Yuqorida ko'rsatilganidek, davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipiga asosan, sud O'zbekiston Respublikasida odil sudlovni amalga oshiruvchi organdir. Odil sudlov davlat faoliyatining bir turi bo'lib, jamiyatda sodir bo'ladigan va huquqiy normalarning buzilishi natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish va hal etishga qaratilganidir. Odil sudlov o'zining maxsus belgilari bilan

ajralib turadi. U davlat nomidan, qonunda belgilangan protsessual shaklda hamda fuqaroviy, jinoiy va boshqa ishlarni sud majlislarida ko'rib chiqish orqali amalga oshiriladi. Odil sudlovni amalga oshiruvchi sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. O'zbekiston Respublikasida sud organlarining faoliyati O'zbekiston Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarda hamda inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklariga, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga rioya etilishini kafolatlashga qaratilgan.

Sudning faoliyati ijtimoiy adolatni, tinchlik va totuvlikni ta'minlashga, huquqiy tartib va qonuniylikni barcha choralar bilan mustahkamlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasi va O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi (yangi tahrirdagi) qonunining 1-moddasida ko'rsatilganidek, O'zbekiston Respublikasining sud tizimi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman(shahar) sudlari, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudlaridan» iboratdir.

Yangi tahrirdagi «Sudlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida sudlarning tashkil topishi, ularni saylash va tayinlash tartibi ko'rsatilgan. Bu qonunning 63-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimiga binonan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan saylanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining O'zbe-

kiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan saylanadilar yoki tayinlanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi sudyalarining soni respublika Prezidentining taqdimnomasiga binoan Oliy Majlis tomonidan belgilanadi.

Viloyat sudlari, Toshkent shahar sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimiga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan, xo'jalik sudlari sudyalari esa O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Harbiy sudlar sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlariga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyalarining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Sudyalar besh yil muddatga saylanadi yoki tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasida odil sudlovni amalga oshirish Konstitutsiyada ko'rsatilgan huquqiy davlatni shakllantirishga qaratilgan demokratik prinsiplarga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Boshqa hech qanday davlat organi fuqaroviy, jinoiy va boshqa ishlarni ko'rish va hal qilish huquqiga ega emas. Bu qonunchilikni amalga oshirishni, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

«Sudlar to'g'risida»gi qonunga asosan, odil sudlovni amalga oshirish vazifasi faqat ma'lum huquqqa ega bo'lgan, o'z burchini professional asosda amalga oshiruvchi, huquqshunoslik ixtisosiga ega bo'lgan shaxsga topshiriladi.

Ko'rsatilgan qonunga asosan, O'zbekiston Respublikasining 25 yoshga to'lgan, oliy yuridik ma'lumotli, huquq ixtisosi bo'yicha kamida uch yillik mehnat stajiga ega bo'lgan, malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tumanlararo, tuman (shahar) sudi, xo'jalik sudi sudyasi bo'lib ishlashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining oliy yuridik ma'lumotli, huquq ixtisosi bo'yicha kamida besh yillik, jumladan, sudyalik lavozimida kamida ikki yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudining sudyasi bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi sudyasi bo'lib saylanish uchun oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish, huquqshunoslik ixtisosi bo'yicha kamida yetti yillik, shu jumladan, qoida tariqasida sudya bo'lib kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo'lish va malaka imtihonini topshirgan bo'lish talab etiladi.

Sudyalar siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'lishlari hamda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egalashlari mumkin emas.

Odil sudlovni amalga oshirish prinsiplaridan yana biri sudyalarning mustaqilligidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasi va «Sudlar to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga asosan, sudyalar mustaqil bo'lib, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Sudlar to'g'risidagi qonunda sudyalarning mustaqilligini ta'minlash kafolatlari ko'rsatilgan. Bu kafolatlar quyidagilardan iborat: ularni qonun bilan belgilangan tartibda saylash, tayinlash va ozod qilish; sudyalar daxlsizligi; odil sudlov qat'iy tartibda amalga oshirilishi; qaror chiqarish chog'ida sudyalar maslahatining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi; sudga hurmatsizlik yoki muayyan ishlarni hal qilishga aralashish; sudyalar daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik; sudyaga uning oliy maqomiga munosib ravishda davlat hisobidan moddiy va ijtimoiy ta'minot belgilash.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Sudlar

to'g'risida»gi qonunda sudyalarning mustaqilligini ta'minlash maqsadida sudyaning shaxsiy daxlsizligi mustahkamlanadi. Daxlsizlik sudyaga g'ayriqonuniy ta'sir etishdan saqlaydi, odil sudlovni amalga oshirayotganida uning huquqlarini cheklashga imkon bermaydi. Qonun moddasidagi bu talab sudyaning turar joyi, xizmat xonasi, uning transport va aloqa vositalari, xat-xabarlari, buyum va hujjatlariga ham taalluqlidir.

Qonunda sudyaning shaxsiy xavfsizligini saqlash choralari ham ko'rsatilgan. Masalan, sudyaga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidagina ko'zg'atilishi mumkin. Sudya, tegishli, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining, Oliy xo'jalik sudi Plenumining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi mumkin emas.

Qonunda sudya vakolatlarining to'xtatilish va tugatilish tartibi, vaziyatlari, ularni jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortishning o'ziga xos tartibi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi sud hokimiyatini amalga oshirishni ta'minlaydigan bir necha prinsiplarni mustahkamlagan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Sudlarda fuqarolik va jinoyat ishlarini oshkora muhokama qilish prinsipi barcha jinoyat va fuqarolik ishiga taalluqlidir. Bu prinsip fuqarolik yoki jinoyat ishlarida taraf sifatida ishtirok etmagan fuqarolar uchun u yoki bu sud ishini sud tomonidan muhokama qilish paytida ishtirok qilish imkoniyatini ta'minlab beradi.

Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi, masalan, sud muhokamasida davlat yoki tijorat sirlarini oshkor qilish xavfi mavjud bo'lsa yoki jinoyat ishi jinsiy jinoyat bilan aloqador bo'lsa, yopiq sud majlisiga, sudning ajrimiga ko'ra, 18 yoshga yetmagan shaxslar taklif qilinmaydi. Sudning hukmi yoki qarori barcha hollarda ochiq sud majlisida e'lon qilinadi.

Sud faoliyatining oshkoraligini ta'minlashda ommaviy-axborot vositalarining o'rni katta bo'lganligi sababli,

sudyalar sud jarayoniga ommaviy-axborot vositalari xodimlarini, jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalari vakillarini taklif qilishlari mumkin. Bundan tashqari, oshkora sud majlislarini bevosita korxonada, muassasa va tashkilotlarda ham o'tkazish mumkin.

Odil sudlovni amalga oshirishda til to'g'risidagi konstitutsiyaviy prinsip katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 115-moddasiga binoan, O'zbekistonda sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borayotgan tilni bilmaydigan sud ishtirokchilarining tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksida ko'rsatilishicha, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoki muhokamada ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga taqdim etilishi lozim bo'lgan tergov va sud hujjatlari, ularning ona tiliga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib berilishi lozim. Sudlarda milliy tilni yuritish masalasining bunday hal qilinishi sudda ishtirok etayotgan barcha shaxslar uchun tushunarli bo'ladi, boshqa tomondan esa, ayblanuvchi va jabrlanuvchiga protsessning tegishli harakatlarida ishtirok etishda o'zlarining huquqlarini amalga oshirib, o'z manfaatlarini himoya qilish imkoniyatlarini yaratib beradi. Sud jarayonida ushbu prinsipning buzilishi ish bo'yicha qabul qilingan sud qarorining bekor qilinishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida odil sudlovning asosiy prinsiplaridan yana biri aybsizlik prezumpsiyasidir.

Aybsizlik prezumpsiyasi — bu aybi qonunda belgilangan tartibda va tegishli organlar tomonidan tasdiqlanmaguncha shaxsning aybsiz hisoblanishidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida ko'rsatilishicha, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqib, aybi aniqlanmaguncha, u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar

ta'minlab beriladi. Bu prinsipga amal qilinishi sud organlarining jazo to'g'risidagi hukmni chiqarishlaridan oldin aynan shu shaxsning aybi bor yoki yo'qligini aniqlashga yordam beradi.

Dastlabki tekshirish organi jinoyat sodir etgan shaxsga ayb e'lon qilishda, uning ushbu jinoyatni sodir qilishdagi aybdorligini (aybsizligini) albatta isbot qilib berishga majbur, chunki ayblanuvchi aybsizlik prezumpsiyasiga ko'ra sudning chiqargan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirmagunga qadar aybdor deb hisoblanmaydi. Ayblanuvchi o'zining aybsizligini isbot qilib berishga majbur emas. Jinoyat qilgan shaxsning aybdorligini isbotlash majburiyati tergovchi, surishtiruvchi shaxs, prokuror va sudga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir kishining huquqi kafolatlanadi. Qoidaga ko'ra shaxsning bu huquqi advokatlar orqali amalga oshiriladi. Advokat har bir huquqiy masalalar yuzasidan malakali yordam berib, jinoiy va fuqaroviy sud ishlarida ishtirok etadi va ularga murojaat qilgan shaxslarning manfaatini himoya qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Sudlar to'g'risida»gi Qonunda hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, shavqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamситuvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi ta'kidlangan.

**O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudi**

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Konstitutsiyaviy sud organini tashkil etilishi ko'rsatilgan. 1990-yil mart oyida tuzilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan, Konstitutsiyaviy sud saylanguncha uning vazifasini bajarish vazifasi yuklatildi. Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasining vazifasi Oliy Kengash qabul qilgan qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarning, shuningdek, Respublika Oliy Kengashi muhokamasiga kiritilgan qonunlar va boshqa hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qay darajada muvofiq kelishini aniqlashdan iborat edi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudining tarkibi 1994-yilda Oliy Majlisga saylov o'tgandan so'ng,

Prezidentning taklifiga muvofiq, Oliy Majlis sessiyasida besh kishidan iborat tarkibda saylandi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi respublikada konstitutsiyaviy nazorat olib boruvchi oliy sud organidir. Konstitutsiyaviy sudning vakolati, uning tuzilish va faoliyat tartibi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 108-moddasi va 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi qonun bilan belgilanadi. Bu qonunlarga asosan Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston hududida Konstitutsiya ustunligini ta'minlash maqsadida quyidagi vazifalarni bajaradi:

— qonunlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan boshqa hujjatlarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, Hukumat qarorlarining va davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarning va boshqa majburiyatlarning O'zbekiston Respublikasiga mosligini aniqlaydi;

— Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

— O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarning normalariga sharh beradi;

— O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlar bilan berilgan doiradagi boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi.

Konstitutsiya va qonunda Konstitutsiyaviy sud ish faoliyatining asosiy prinsiplari ko'rsatilgan. Bular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sodiqlik, sudyalar mustaqilligi, kollegiallik, oshkoralik va sudyalar huquqlarining tengligidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarorlari, xulosalari va boshqa to'xtamlari ommaviy-axborot vositalarida e'lon qilinadi va ular matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Konstitutsiyaviy sudning to'xtami qat'iy va uning ustidan shikoyatga o'rin bo'lmaydi.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning barchasi uchun majburiydir.

15-§ bo'yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash uchun topshiriqlar.



Quyidagi savollarga javob bering:

1. O'zbekistonda sud hokimiyatining qanday tizimlari bor?
2. Odil sudlovning qanday konstitutsiyaviy prinsiplari mavjud?
3. O'z huquqini sud orqali himoya qilish tushunchasi va bu konstitutsiyadagi asosiy qoidalardan biri ekanligini izohlab bering.
4. Sud tizimidagi o'zgarishlar va yangilanishlar asosan qaysi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda?
5. Konstitutsiyaviy sudning asosiy vazifasi nimalardan iborat?



O'zingiz yashab turgan nohiyadagi sud organi faoliyati bilan tanishing va ommaviy axborot vositalarida chop etilgan sud jarayoni yuzasidan materiallarni jamlab, ularga o'zingizning mustaqil fikrlaringizni bildiring.



1. Sud hokimiyatining davlat hokimiyati tizimidagi o'rni;
2. Inson huquqlari va erkinliklarini hayotda to'la amalga oshirishda sud hokimiyati faoliyati;
3. Huquqiy meros va sud.

Unda:

- Sud vakolatlari;
- Sudning odillikka asoslanishi;
- Sud qarorining qat'iy kuchga egaligi;
- Sudning qonunga asoslanishi;
- Sud inson huquqi va erkinligining himoyachisi va shu kabi masalalar atrofida yoritilishiga e'tibor qarating.

16-§. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROKURATURA ORGANLARINING HUQUQIY ASOSLARI

**Prokuratura organlari
faoliyatining asosiy
yo'nalishlari**

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan, O'zbekiston hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini

O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar nazorat qiladilar.

Prokuratura organlarining maqsad va vazifalari birinchi navbatda qonunning ustunligini har tomonlama qaror top-tirishga, huquq-tartibotni mustahkamlashga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan inson va fuqaroning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy huquqlari hamda erkinliklarini, shuningdek, davlat mustaqilligini, Konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, siyosiy va iqtisodiy tizimlarni, milliy guruhlar va hududiy tuzilmalarning huquqlarini g'ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi prokuratura idoralari faoliyatini tashkil etish hamda prokurorlarning vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2001-yil 11-mayda qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»(yangi tahrirda)gi qonun va O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan boshqa qonun hujjat-lari bilan belgilanadi.

«Prokuratura to'g'risida» (yangi tahrirda)gi qonunning

4-moddasiga muvofiq, prokuratura organlari o'z faoliyatlarini quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiradilar:

— vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar, shuningdek fuqarolar tomonidan qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish;

— ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

— O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

— qonuniylikni ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

— jinoyat yuzasidan dastlabki tergov olib borish;

— sud muhokamasining barcha bosqichlarida va qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi masalalar sud tomonidan ko'rilayotganda ishtirok etish;

— qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish ishida ishtirok etish kabilardir.

Prokuratura organlari faoliyati prinsiplari
--

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatini amalga oshirishning o'ziga xos

prinsiplari mavjud. Quyi pog'onadagi prokurorlar yuqori pog'onadagi prokurorlarga bo'ysunish tartibida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori boshchiligidagi yagona markazlashgan tizimni tashkil etadilar. Ushbu tamoyil barcha darajadagi prokurorlar oldida turgan maqsad va vazifalarning birligini hamda qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish shakli va uslublarining umumiylikini, qonun buzilishi holatlariga nisbatan prokurorning ta'sir ko'rsatish vositalari, shuningdek qonunbuzarliklarning oldini olish choralarini ko'rishning yagonaligini anglatadi.

Prokuraturaning yagona va markazlashtirilganligi prokuratura tizimining barcha boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari,

mansabdor shaxslar va fuqarolarning qonunlarni aniq va bir xilda ijro etishlarining nazoratini amalga oshirishda ifodalanadi. Ushbu prinsip O'zbekiston Respublikasining hududida yagona qonunchilikning o'rnatilishini ta'minlaydi.

Prokuratura organlari nazoratni va o'z vakolatlarini davlat hokimiyati hamda mahalliy boshqaruv idoralaridan, mansabdor shaxslardan, jamoat birlashmalaridan mustaqil ravishda, O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilib turgan qonunlarga, xalqaro va davlatlararo shartnomalarga (bitimlarga) qat'iy rioya etib va faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysungan holda amalga oshiradilar, Prokuratura faoliyati faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis nazoratida bo'ladi. Prokuraturaning qonunlar ijro etilishini nazorat qilish, jinoiy ishlarni tergov qilish, shikoyatlar, arizalar va xabarlarni tekshirish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish borasidagi faoliyatiga davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek, mansabdor shaxslarning aralashishi taqiqlanadi. Prokuraturaning mustaqilligi, prokuratura organlarining tashkiliy tuzilishi, ulardagi bo'ysunish va hisob berish tartibi amalga oshirilishi bilan ta'minlanadi. Har bir prokuror o'z faoliyatida mustaqil bo'lib, o'z vazifasini bajarishda qonunlarga va ularga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan chiqarilgan buyruqlar, qo'llanmalar va ko'rsatmalarga amal qiladi. Prokurorlar o'z vakolatlari davrlarida siyosiy maqsadni ko'zlagan siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'xtatib turadilar.

Prokuratura organlari qonuniylik hamda jinoyatchilikning ahvoli, asosiy yo'nalishlari to'g'risida, boshqaruv idoralari tomonidan qonunlarga rioya etilishini ta'minlash, davlat va jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqlarini muhofaza qilish borasidagi vazifalar qanday bajarilayotganligidan, tegishlilikiga qarab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentini, Oliy Majlisni, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy idoralarini, O'zbekiston hukumati, xalq deputatlarining mahalliy Kengashlarini, hokimlarni xabardor etadilar. Qonuniylik tamoyili deganda

nafaqat prokuratura idoralarining boshqa davlat idoralari, korxonalar, muassasa va tashkilotlar tomonidan qonunlarga rioya etilishini nazorat qilishini, balki barcha prokurorlar va ular itoatidagi xodimlarning o'z faoliyatida qonun talablariga qat'iy amal qilishlarini ham tushunmoq lozim.

Prokuratura organlari fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish to'g'risidagi, shuningdek, davlat siri hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa sirni saqlash haqidagi qonun talablariga zid kelmaydigan darajada ish ko'radilar.

Prokurorning qonunda ko'rsatilgan vakolatlarini bajarish yuzasidan qo'ygan talablarini bajarish barcha idoralar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir. Prokuror talablarini to'la bajarishning majburiyligi va Prokurorning o'z vazifalarini moneliksiz amalga oshirishi qonun bilan kafolatlangan.

Prokuratura organlari qonuniylikni ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatida jamoatchilik bilan hamkorlikda harakat qiladi. Prokuratura organlari o'z faoliyatida oshkorlikni ta'minlash maqsadida:

— qonuniylik va jinoyatchilikning ahvoli to'g'risida jamoatchilikni muntazam xabardor qilib boradilar;

— ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazib turadilar;

— deputatlarning hamda ommaviy axborot vositalarining murojaatlariga qonunda belgilangan tartibda axborot taqdim etadilar.

Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari prokuratura organlari hay'atlari hamda muvofiqlashtiruvchi kengashlari majlislariga taklif etilishlari mumkin.

Prokuratura organlari tizimi

Prokuratura tizimi O'zbekiston Respublikasi miqyosida O'zbekiston Bosh prokuroriga bo'y-sunuvchi prokuratura organlari

yig'indisidan iborat bo'lib, bu qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishining nazoratini ta'minlash bilan bog'liq umumiy funksiyani amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura idoralari tizimini O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi, Qoraqalpog'iston

Respublikasi Prokuraturasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shaharlar va tumanlar, tumanlararo va boshqa hududiy prokuraturalar tashkil etadi.

O'zbekiston respublikasi prokuratura idoralarining tizimiga, shuningdek, transport, harbiy, tabiat muhofazasi prokuraturalari va boshqa ixtisoslashtirilgan prokuraturalar ham kiradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan viloyatlar va tumanlar prokuraturalariga tenglashtirilgan boshqa prokuraturalar, tuman prokuraturalariga ega bo'lgan shaharlarda esa tuman prokuraturalariga bo'ysunadigan shahar prokuraturalari tuzilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tuziladigan transport, tabiat muhofazasi prokuraturalari, boshqa ixtisoslashtirilgan prokuraturalar viloyatlar, tumanlar prokuraturalari, tumanlararo prokuraturalar yoki shahar prokuraturalari vakolati bilan tashkil etiladi hamda faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy Prokuraturasini tashkil etish va uning ish tartibi «Prokuratura to'g'risida»(yangi tahrirda)gi qonun, boshqa qonun hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy Prokuraturasi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan besh yil muddatga tayinlanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis oldida hisobdordir.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari Respublika Prezidenti tomonidan tayinlanadi va vazifasidan ozod etiladi, keyin Oliy Majlis tasdig'idan o'tadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy organi tomonidan besh yil muddatga tayinlanadi va ular

oldida hisobdordir. Viloyat prokurorlari va Toshkent shahri prokurori hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan besh yil muddatga tayinlanadilar, unga bo'ysunadilar va uning oldida hisobdordirlar.

Shahar, tuman prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar (harbiy qo'shin prokurori, harbiy garnizonlar, transport prokurorlari va ixtisoslashtirilgan prokuraturalarning prokurorlari) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan besh yil muddatga tayinlanadilar, o'zidan yuqori pog'onadagi prokurorlar va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunadilar hamda ular oldida hisobdordirlar. Quyi prokurorlarning bevosita O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tayinlanishi ularning mahalliy ta'sirlardan mustaqilligining muhim kafolatlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining faoliyatini tashkil etish tartibi «Prokuratura to'g'risida» (yangi tahrirda)gi qonunda batafsil ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasiga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori boshchilik qiladi. Respublika prokuraturasida Bosh prokuror, uning birinchi o'rinbosarlari, o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy prokurori, prokuratura idoralarining boshqa rahbar xodimlaridan iborat tartibda hay'at tuziladi. Hay'atning shaxsiy tarkibini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlar tuzilib, ularda katta prokurorlar va prokurorlar bo'ladi.

Prokuror nazorati — bu O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlarning O'zbekiston Respublikasi hududida barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, davlat nazorati organlari, hokimlar, kimga bo'ysunishidan, kimning tasarrufida bo'lishidan va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, boshqaruv organlari, korxonalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar, shuningdek, fuqarolar tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini ta'minlash, har qanday qonun buzilishi, uning

sabablari va shart-sharoitlariga o'z vaqtida barham berish, buzilgan huquqlarni tiklash hamda aybdorlarni belgilangan tartibda qonuniy javobgarlikka tortish yo'li bilan davlat nomidan amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Prokuror va uning o'rinbosarlari qonunlarga rioya etish ustidan umumiy nazorat faoliyatida quyidagi huquqiy va boshqa hujjatlarni qabul qilishlari mumkin: mansabdor shaxslarning qonuniy qarorlari va xatti-harakatlariga nisbatan protest keltirish; qonunni ochiqdan-ochiq buzish hollariga chek qo'yish to'g'risida amrnoma berish; qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik xususida mansabdor shaxslar va fuqarolarga yozma ravishda ogohnoma bildirish; davlat idoralari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarga qonunbuzarlik hollarini, shuningdek qonun buzilishining sabablari va bunga yo'l ochib bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalar kiritish; fuqarolar, jamiyat va davlatning huquqlari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish to'g'risida sudlar yoki xo'jalik sudlariga ariza bilan murojaat etish.

Prokuratura to'g'risidagi qonunda, bulardan tashqari, prokurorlarning nazoratni amalga oshirish va qonun buzilishlarga ta'sir ko'rsatish huquqiy vositalari, jinoyatchilikka qarshi kurash idoralarining qonunlarni ijro etishlari ustidan nazorat qilish; sudlarda ishlarning ko'rib chiqilishida prokurorning vakolatlari va prokuratura idoralarining faoliyatini tashkil etishga doir boshqa masalalar aniq belgilab berilgan.

16-§ bo'yicha egallagan bilimlaringizni mustahkamlash uchun topshiriqlar.

Bilimingizni mustahkamlang



1992-yil 9 dekabrda qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini o'rganish asosida javob bering:

1. Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari?

2. Prokuratura organlari faoliyati asosiy prinsiplari?
3. Prokuratura organlari tizimi, ularning qonuniylikni ta'minlashdagi o'рни?

Axborot banki



Prokuratura to'g'risida ma'lumot beruvchi huquqiy adabiyotlar va ommaviy axborot vositalarida chop etilgan materiallarni o'rganib, ularning ro'yxati jamlangan axborot bankini yarating hamda ular to'g'risida dars jarayonida o'z mulohazalaringizni bildiring.

Mustaqil fikr



Prokuratura va yoshlar hamkorligini mustahkamlash yuzasidan fikringiz?



1. Prokuratura va yoshlar hamkorligini mustahkamlash omillari.
2. Yoshlarning qonuniylikni ta'minlashda faol ishtiroki ahamiyati.
3. Voyaga yetmagan yoshlarning huquqlarini ta'minlashda Prokuratura organlarining o'рни.

M U N D A R I J A

Kirish 3

I b o b. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, unda shaxs va davlat munosabati huquqiy asoslari

1-§. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — asosiy qonun . . . 14
2-§. O‘zbekistonda shaxs va davlat munosabati 29

II b o b. O‘zbekiston fuqarolarining asosiy huquqlari

3-§. Fuqarolar huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari 36
4-§. Shaxsiy huquq va erkinliklar 51
5-§. Siyosiy huquqlar 62
6-§. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar 70

III b o b. O‘zbekiston fuqarolarining asosiy burchlari

7-§. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari 80
8-§. Vatanni himoya qilish va harbiy xizmatni o‘tash burchlari . . . 85

IV b o b. Huquq va erkinliklarning konstitutsiyaviy kafolatlari

9-§. Inson huquq va erkinliklarining ta‘minlanishi 90
10-§. Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish mexanizmi 98

V b o b. O‘zbekiston Respublikasining davlat shakli va davlat organlari

11-§. O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi va boshqaruv shakli 106
12-§. O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti — Oliy Majlis 122
13-§. Ijro etuvchi hokimiyatning huquqiy asoslari 146
14-§. Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari 162
15-§. Sud hokimiyati 174
16-§. O‘zbekiston Respublikasida Prokuratura organlarining huquqiy asoslari 183

U 32

«O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish»
kursi o‘quv qo‘llanmasi: (O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi
muassasalari uchun). — T.: Sharq, 2003. - 192 b.

Sarl. oldida: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim
vazirligi O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi.

67.400.1 (5U)ya 722

«O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUT- SIYASINI O‘RGANISH»

KURSI O‘QUV QO‘LLANMASI

(O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari uchun)

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent — 2003

Muharrir *F. Ismoilova*
Badiiy muharrir *A. Musoxo‘jayev*
Texnik muharrir *D. Gabdraxmonova*
Musahhih *I. Toirova*
Sahifalovchi *I. Soy*

Bosishga ruxsat etildi 11.03.2003. Bichimi 84x108^{1/32}. Tayms garniturası.
Ofset bosma. Shartli bosma tabog‘i 10,08. Nashriyot-hisob tabog‘i 10,2.
Adadi 40000 nusxa. Buyurtma № 4418. Bahosi shartnoma asosida.

**«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41.**

